


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**"ETIKA VA ESTETIKA ASOSLARI"
MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Toshkent 2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan

Tuzuvchilar:

L.A.Muhammadjonova - falsafa fanlari nomzodi, professor v.b.;
D.S.Qodirova falsafa fanlari nomzodi, dotsent;
N.SH.Agzamova falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

O.Nishonova.– falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N.B - falsafa fanlari doktori, dotsent

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomma)

MUNDARIJA:

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	10
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	12
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	134
V.	KEYSLAR BANKI	139
VI.	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	147
VII.	GLOSSARIY	149
VIII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	152

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim sohasida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad - ta’lim sifatini yanada yaxshilash va samaradorligini oshirish, ta’limga innovatsiyalarni joriy qilish, o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish hamda jahon talablariga javob beradigan yetuk va malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Bu maqsad o‘z navbatida, oliy ta’limda etika va estetika fanlarini o‘qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, fanning nazariy va amaliy assoslarni davr talablaridan kelib chiqqan holda mustahkamlash, talabalarning axloqiy va estetik dunyoqarashini boyitish kabi qator vazifalarni belgilaydi.

Etika va estetika oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishida o‘qitiladigan gumanitar fanlar turkumiga kiradi va ular “Falsafa” fani tarkibida o‘qitiladi. Biroq, shuni alohida ta’kidlash zarurki, XXI asrning dastlabki o‘n yilligiga kelib, globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiyot va moliyaviy sohalarda balki ma’naviy sohada ham talaygina muammolarni yuzaga keltirdi. Ayni paytda etika va estetika fanlaridagi o‘zaro bog‘liqlikning ko‘pgina sohalari ham global ehtiyojga muhtoj bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, kiberekstrizm, bioetika, kasbiy odob, texnika estetikasi, san’at sotsiologiyasi hamda estetikaning umumnazariy masalalari atrofida yuzaga kelayotgan baxs-munozaralar sog‘liqni saqlash tizimida, reproduktiv salomatlik, biologik xavfsizlik, genetik resurslardan foydalanish, OITS, giyoxvandlik, ekologiya va xatto organlar transplantatsiyasi kabi global masalalar atrofida taxlil qilinmoqda.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining “Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish pritsiplari”ning barchasi bevosita va bilvosita etika va estetika masalalariga daxldor. Xususan, “ta’limning ijtimoiylashuvi”da – ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlarni shakllantirish” kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim qismi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuning uchun oliy ta’lim tizimida etika va estetika fanlarini o‘qitishni yangi bosqichga ko‘tarishni davr taqazo etmoqda.

“Etika va estetikaning nazariy asoslari” moduli bo‘yicha dasturda fanning global muammolari, ta’lim bilan tarbiyaning uzviyligi masalalari, nazariy asoslari, amaliy ahamiyati, etika va estetika fani mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishning yangi, zamonaviy usul va uslublaridan foydalanishga doir masalalar o‘z aksini topgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulining maqsadi: “Etika va estetikaning nazariy asoslari” modulining *maqsadi*: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini etika va estetika fani haqidagi bilimlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash, etika va estetika fanidan o‘quv jarayonini metodik tashkil etishning zamonaviy usullaridan samarali foydalanishga doir amaliy tavsiyalarni berishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- etika va fanlari bo‘yicha o‘quv jarayonini texnik va texnologik ta’minlashga oid nazariy bilimlar berish;
- etika va estetika fanlarining ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot uchun zaruriyatiga doir ilmiy masalalarini taxlil qilish;
- yetuk va malakali kadrlarni tayyorlashda etika va estetika fanlarining amaliy ahamiyatini yoritish;
- ijtimoiy-gumanitar fanlarning umumnazariy masalalarini etika va estetika fanlari bilan uzviyligini ta’minlashga qaratilgan metodik asoslarini ishlab chiqish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- etika va estetikaning nazariy asoslarini;
- etika va estetika fanlarining umumnazariy masalalari, global muammolari, ta’lim, tarbiya va ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rnini;
- etika va estetika fanining asosiy tushunchalari, meyorlari va tamoyillarini;
- pedagogik faoliyati sohasida etika va estetikaning tamoyillari va qonuniyatlarini;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi in’ikosi, voqelikka axloqiy va estetik munosabatda bo‘lishning zamonaviy ko‘rinishlarini;
- o‘zbek falsafasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini;
- ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash vazifalarini ***bilishi*** kerak.
- ilmiy-tadqiqot ishlarida falsafaning zamonaviy masalalariga yondashish uslubiyatini to‘g‘ri tanlash;
- milliy va umuminsoniy axloqiy-estetik madaniyatning an’anaviy va zamonaviy asoslarini farqlash;
- pedagogik faoliyat sohasida etika va estetikaning amaliy ahamiyatiga doir ishlanmalarni tayyorlash;

- etika va estetika fanlarining umumnazariy masalalari, global muammolari, ta'lim, tarbiya va ma'naviy taraqqiyotdagi o'rni haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- etika va estetika fanining asosiy tushunchalari, meyorlari, tinglovchi pedagogik faoliyati sohasida etika va estetikaning tamoyillari va qonuniyatları, milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi in'ikosi, voqelikka axloqiy va estetik munosabatda bo'lishning zamonaviy ko'rinishlari haqida nazariy bilimlarga ega bo'lishi;
- amaliy ahamiyatiga doir ishlanmalarni tayyorlash, darsni samarali tashkil etish, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish hamda milliy va umuminsoniy axloqiy-estetik madaniyatning an'anaviy va zamonaviy asoslarini farqlashga doir amaliy **ko'nikmalarini egallashi**;
- tinglovchi pedagogik faoliyati sohasida etika va estetikaning umumnazariy masalalariga doir ilmiy xulosalarni o'rganish, etika va qarashlarni qiyosiy taxlil qilish, fanning ilmiy, nazariy, tarixiy va pragmatik ahamiyatini hayotiy voqelik va ilmiy asosda tushuntirib berish **malakalarini egallashi lozim**.
- tinglovchi etika, estetika fanlarida innovatsion o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- etika, estetika fanlarini o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish;
- kommunikativ vazifalarni xal etish texnologiyalari, kasbiy muloqot usullaridan foydalanish, hamkorlik ishlarini olib borish **kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim**.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Etika va estetikaning nazariy asoslari" kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlari, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruqlar bilan ishslash, rolli o'yin va boshqalar

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Etika va estetikaning nazariy asoslari" kursi o'quv rejadagi inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'langan.

Modulning olyi ta'limdagি o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim va tarbiya jarayonlarida etika va estetika fanlarining nazariy va amaliy asoslarini, ilmiy texnik taraqqiyotning axloqiy va estetik tafakkurga ta'siri, insonlararo munosabatda axloqiy va estetik madaniyatning o'ziga xos ko'rinishlari va xususiyatlarini amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchingin o'quv yuklamasi, soat					Mustaqil ta'lim	
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			jumladan		
			Jami	Nazariy	Amaliy	ko'chma		
1.	"Etika" va "Estetika" fanini o'qitishning zamonaviy usullari va uslublari. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo'llari.	5	5	2	2			
2.	XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari: axloqiy, ekologik axloq, etosfera. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo'lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta'siri.	5	5	2	4			
3.	Axloq psixologiyasi. Ruhiy tahlil yo'nalishi va g'ayrizo'ravonlik. Davlat xizmatchilari etikasi va imidji. Gender muammolari. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi va ratsionalligi.	5	5	2	2			
4.	Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi; kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi. Estetik anglash tushunchasi va uning	5	5	2	4			

	individual xarakteri. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko‘rinishlari.					
	Jami: 20 soat	20	20	8	12	

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari (2-soat)

1. “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.
2. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari.
3. O‘zbekiston ta’lim tizimining axloqiy-estetik mazmuni.
4. Oliy ta’limda etika va estetika fanlarining o‘qitilish holati. Etika va estetika fanlarini o‘qitishga yangicha yondoshuvlar.

2-mavzu. XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari: axloqiy, ekologik axloq, etosfera. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo‘lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta’siri. (2-soat)

- 2.1 XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari.
- 2.2. Axloqiy, ekologik axloq, etosfera.
- 2.3. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo‘lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta’siri
- 2.4. Internetning axloqiy-estetik tafakkurni o‘zgarishiga ta’siri.
- 2.5. Tibbiyot estetikasi va bioetika.

3-mavzu: Axloq psixologiyasi. Ruhiy tahlil yo‘nalishi va g‘ayrizo‘ravonlik. Gender muammolari. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi va ratsionalligi. (2-soat)

- 3.1. Axloq psixologiyasi
- 3.2. Ruhiy tahlil yo‘nalishi va g‘ayrizo‘ravonlik.
- 3.3. Gender muammolari
- 3.4. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi va ratsionalligi

4-mavzu: Kasbiy odobnung axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi; kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati. Etiket zamonaviy

axloqning nazariy va amaliy asosi. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko‘rinishlari. (2-soat)

- 4.1. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi
- 4.2. kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati.
- 4.3. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.
- 4.4. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.
- 4.5. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko‘rinishlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari (2-soat)

2-amaliy mashg‘ulot. XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari: axloqiy, ekologik axloq, etosfera. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo‘lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta’siri. (4-soat)

3-amaliy mashg‘ulot. Axloq psixologiyasi. Ruhiy tahlil yo‘nalishi va g‘ayrizo‘ravonlik. Gender muammolari. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi va ratsionalligi. (2-soat)

4-amaliy mashg‘ulot. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi; kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko‘rinishlari. (4-soat)

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, anglash qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (keyslar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim (BBB)” metodi

Metodning maqsadi:talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi

Metodni amalga oshirish tartibi:

1. O‘qituvchi doskani uch qismga ajratadi.
2. 1-qismga “Bilaman”, 2-qismga “Bilmayman”, 3-qismga “Bilib oldim” deb yozadi.
3. O‘qituvchi o‘quvchilarga murojaat qilib, “Etika va estetika kategoriyalari haqida kim nimalar biladi?” deb so‘raydi.
4. Talabalarning fikrlarini “Bilaman” ustuniga yozadi.
5. Talabalar o‘z fikrini aytib bo‘lgandan so‘ng o‘quvchilarga etika kategoriyalari haqida yana nimalarni bilishni xohlashlarini so‘raydi.
6. O‘quvchilarning savollarini doskaning “Bilishni xohlayman” qismiga yozadi.
7. Talabalarning savollari tugaganidan keyin o‘qituvchi etika kategoriyalari haqida ma’lumotlar yozilgan, oldindan tayyorlangan matnlarni talabalarga tarqatadi.
8. Talabalar matn bilan tanishadilar va yangi ma’lumotlarni bir-birlari bilan o‘rtoqlashadilar.
9. O‘qituvchi talabalardan etika kategoriyalari haqida yana qanday yangi ma’lumotlarga ega bo‘lganliklarini so‘raydi va “Bilib oldim” ustuniga yozadi.
10. O‘qituvchi uchchala ustunni umumlashtiradi va talabalar bilan birgalikda xulosa qiladi.

Namuna: Go‘zallik tushunchasining falsafiy mohiyatini tushuntirib bering?

Bilaman	Bilmayman	Bilib oldim

Blum taksonomiyasiga asoslangan holda Kognitiv (bilishga oid) sohadagi “Tahlil” o‘quv maqsadini amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan metod

Metodning maqsadi: talabalardao‘qilgan materialni eslab qolish, mazmuniga qarab turkumlash, tushunchalarni tizimga solish ko‘nikmasini paydo qiladi. Shuningdek, talaba fanda qo‘llaniladigan tushunchalar, tamoyillar, meyorlar va o‘ziga xos sifatlarini turkumlashni biladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Dars o‘qituvchining kirish so‘zi bilan boshlanadi.
2. O‘qituvchi Kirish so‘zidadarsning mavzusi, maqsadi va o‘tkazish tartibi bilan talabalarni tanishtiradi.
3. Talabalar 5 ta guruhga bo‘linadilar.
4. Guruhlarga 2 tadan savol yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi.
5. Talabalar qog‘ozdagi savollarga o‘z javoblarini beradilar.
6. Boshqa guruh a’zolari qo‘shimcha fikr yordamida javobni to‘ldirishlari mumkin.
7. Barcha savollarga javoblar berib bo‘lingach o‘qituvchi mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi.
8. Guruhlarga qo‘ygan baxolarini e’lon qiladi.
9. O‘quv mashg‘ulotini natijalarini sharhlaydi.

Namuna:

1-guruxga beriladigan 1-savol: Etika (yoki estetika) fanining amaliy ahamiyatini sharxlab bering? 2-savol: Etika (yoki estetika) fanining global muammolari haqida fikr bildiring?

2-guruxga beriladigan 1-savol: Etika (yoki estetika) fanining asosiy mezoni tushunchalarini hayotiy misollar yordamida asoslang? 2-savol. Etika (yoki estetika) fanining shaxs kamolotidagi o‘rnini tushuntiring?

Namuna: *Topshiriq №1. Quyidagi tushunchalarni jadvaldagি yo‘nalishga mos tarzda ajrating?* G‘ayriinsoniylik Vatanparvarlik Nafrat Vatanfurushlik Muhabbat Adolatsiz Erkparvarlik Ezgulik Millatparvarlik Loqaydlik Adolat Yovuzlik Shafqat Burch Shafqatsiz Loqayd Insonparvarlik Qullik Millatchilik Fidoyilik

Etikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari)	Etikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) ziddi	Etikaning tamoyillari	Etika tamoyillari ning ziddi

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

**1-мавзу: “Этика” ва “Эстетика” фанини ўқитишининг замонавий усуллари
ва услублари. Ахлоқий ва эстетик маданиятни шакллантиришнинг
тарбиявий воситалари ва йўллари (2-соат)**

РЕЖА:

1. “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.
2. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari.
3. O‘zbekiston ta’lim tizimining axloqiy-estetik mazmuni.
4. Oliy ta’limda etika va estetika fanlarining o‘qitilish holati. Etika va estetika fanlarini o‘qitishga yangicha yondoshuvlar.

Tayanch so‘zlar:

Etika va estetika, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, etika, estetika, axloq, nafosat, estetik bilim, estetik ta’lim, ma’naviyat, etikani o‘qitish, estetikani o‘qitish, estetik dunyoqarash, axloqiy yondoshuv, kategoriya, go‘zallik, hunuklik, ulug‘vorlik, fojeaviylik, estetik obyekt, muhabbat, nafrat,adolat, vatanparvarlik, millatparvarlik, san’at, nosan’at obyekti, texnika estetikasi, dizayn, sport estetikasi, tabiat estetikasi.

1.1. “Etika” ва “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.

O‘zbekiston Respublikasida yuqori malakali oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishda, yangi pedagogik texnologiyalarga alohida o‘rin ajratilgan. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta’kidlanganidek, "Talabalarni o‘qitishni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jadallashtirish zarur".

Pedagogik texnologiya - bu davr talabidir. O‘qituvchilik faoliyati ishlab-chiqarish faoliyatining bir turi bo‘lgani sababli, pedagogik texnologiyaning paydo bo‘lishi ham shu bilan bog‘liqdir. Shuning uchun, unga ham, ishlab-chikarish texnologiyasidek quyidagi talablar qo‘yiladi: loyihalash, boshqarilish, natijalarga kafolatli erishilish, tuzatuvlardan kiritilishi, tejamkorlik.

Pedagogik maqsadlarning hozirgi kunda eng keng tarqalgan taksonomiysi, amerikalik pedagog olim B. Blumning tizimi hisoblanadi. O‘quv maqsadlarining asosiy toifalari, B. Blum bo‘yicha, quyidagilar hisoblanadi: bilish; tushunish; qo‘llash; analiz;

sintez; baholash

O‘quv fanining maqsadlarini aniqlashtirish, bu taksonomiya bo‘yicha quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Fanning o‘quv maqsadlarini belgilash.

2. Har qaysi mavzu, bo‘lim, modulning maqsadlarini belgilash.

O‘quv maqsadlari tizimini tuzish va darajalashni jadval ko‘rinishida tasvir etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birinchi bosqichda har bir mavzu (bo‘lim) bo‘yicha tayanch iboralarni alohida ko‘rsatish lozim.

Ikkinchchi bosqichda, har bir tayanch iborani, o‘rganilish chuqurligini o‘rnatish zarur bo‘ladi. YA’ni, talaba qaysidir tayanch iborani bilish darajasida (o‘quv materialini eslab qolish yetarli bo‘ladi), boshqa tayanch iborani qo‘llash darajasida (aniq sharoitlar uchun o‘quv materialidan foydalanish), ayrim tayanch iboralarni baholash darajasida (o‘quv materialining u yoki bu qiymatini aniq maqsadiga ko‘ra baholashi va buning natijasi ijodiy xulosa chiqarishi) va h.k. o‘zlashtirishi zarur bo‘ladi.

Uchinchi bosqichda har bir o‘quv maqsadiga erishish, mezonni o‘rnatish kerak bo‘ladi. YA’ni, o‘quv maqsadi shunday ifodalanishi zarurki, unga yetish yoki yetmaganligini adashmasdan aniqlash mumkin bo‘lsin.

O‘quv maqsadlarining bunday aniq turlanishi, o‘qitish jarayonini optimal rejlash va o‘qitishdan ko‘zlangan natijalarga erishish imkoniyatini beradi. O‘quv maqsadlariga erishilgani yoki o‘qitish natijalari haqida faqat tashqi belgilar javoblar, masalalarni yechish va h.k. bo‘yicha xulosa chiqarish mumkin.

Ifodalovchi belgilari to‘la va ishonzhli yoritilgan maqsad, identifikatsiyalanadigan maqsad deyiladi. Shuning uchun, o‘qitish vazifasini identifikatsiya qilish uchun, uning tashqi belgilarini to‘la ifodalash zarur.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil qilish tartiblari

O‘quv jarayonining asosiy qismi dars mashg‘ulotlari bo‘lib, uni qay darajada mohirona tashkil etilishi pirovard natijalarda, ya’ni talabalar tomonidan o‘tilgan mavzuni qay darajada o‘zlashtirilishida o‘z ifodasini topadi.

Dars jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish

An’anaviy darslarga tayyorgarlik ko‘rishda, odatda, tegishli adabiyotlarni o‘rganib, darsning rejasi va tegishli ma’ruza matni tayyorlanar edi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida darsga tayyorgarlik ko‘rish an’anaviy tayyorgarlikdan katta farq qiladi. YA’ni, bunda, o‘qituvchi tayyorgarlik davomida tegishli mavzuning maqsadini, uni o‘tkazish usuli va vositalarini tanlashi yoki aniqlashi, namoyish etilishi zarur bo‘lgan tasviriy materiallarni taxt qilib qo‘yishi,

yeterli darajada tarqatma materiallarni tayyorlashi, o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini aniqlovchi baholash mezonlari ishlab chiqishi zarur. Ushbu tayyorgarlik davomida dars borishini ifodalovchi loyiha yoki boshqacha aytganda darsning ssenariysini tayyorlashi lozim. Unda darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanish nazarda tutiladi.

Dars jarayonini loyihalash

Dars jarayonini loyihalash - dars davomida o'qituvchi tomonidan talabalarga tegishli bilim, ko'nikma, axborot yoki ma'lumotlarni yetkazishni tartiblashtirishdir. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Mavzu va tayanch iboralarning o'quv maqsadlari shakllantiriladi (B.B lum taksonomiyasasi asosida).

2. Mavzuni yoritish uslubi tanlanadi.

3. Talabalarni faollashtiruvchi savollar, topshiriqlar, testlar, masala yoki mashqlar tayyorlanadi.

4. Baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bunda o'quv maqsadlarga erishilganligini aniqlovchi belgilar, topshiriqlarning javoblariga mosligini belgilovchi mezonlar keltirilishi maqsadga muvofiq.

5. Dars jarayoni loyihasining har bir qismida o'qituvchi va talabaning aniq vazifasi keltiriladi.

Fanning bir semestr davomida o'qitiladigan qismi uchun yuqorida zikr etilgan bandlar to'la yoritilgan uslubiy ishlanma yangi pedagogik texnologiyani tegishli fanga qo'llashga doir uslubiy qo'llanma hisoblanadi. Bunda tegishli fandan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun alohida-alohida uslubiy qo'llanma yaratish maqsadga muvofiqli. Quyida texnik, iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha dars loyihalari namunalari keltirildi.

"Etikaning asosiy tushunchalari. Axloqiy tamoyillar va meyorlari"

mavzusiga "Pinbord" metodining qo'llanilishi.

Dars mavzusi: (seminar) Etikaning asosiy tushunchalari, axloqiy tamoyillar va meyorlari

Darsning ta'limiy maqsadi: Axloqning mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o'rni, axloq tuzilmasi tushunchasi: axloqiy ong va unda urf odait va an'analarning o'rni; axloqiy hissiyotning o'ziga xos hissiy kechinma ekanligi; axloqiy munosabatlar va ularning axloqiy faoliyatga ta'siri, Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov tushunchalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning ijtimoiy zaruriyatligi hamda etikaning asosiy mezoniy tushunchalari, tamoyillari va meyorlari haqida ma'lumotlar berish .

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarning axloqshunoslik asosiy mezoniy tushunchalarini inson hayotidagi o'rnini xis qilish hamda qo'llay bilish

ko‘nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, axloq tuzilmasi tushunchasi: axloqiy ong va unda urf odat va an’analarning o‘rni; axloqiy hissiyotning o‘ziga hos hissiy kechinma ekanligi; axloqiy munosabatlar va ularning axloqiy faoliyatga ta’sirini tushuntirishdan iborat.

Darsda foydalaniladigan metod “Pinbord”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni ma’ruza mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

3. Ma’ruza yakunida mavzuga oid tushunchalar bilan ishslash

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochiladi. Ma’ruza mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda axloqning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, axloq tuzilmasi tushunchasi: axloqiy ong va unda urf odat va an’analarning o‘rni; axloqiy hissiyotning o‘ziga hos hissiy kechinma ekanligi; axloqiy munosabatlar va ularning axloqiy faoliyatga ta’siri, ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning ijtimoiy zaruriyati haqida ma’lumotlar beradi.

“Pinbord” metodi mazmuni.

Pinbord metodi (ingliz tilidagi pin – yopishtirmoq, board – doska) – ya’ni olingan bilimlarni doskaga mustahkamlash, yopishtirmoq degan ma’noni anglatadi. Pinbord metodi-vazifalarni hal etish bo‘yicha g‘oyalarni tizimlashtirish va guruhlashdirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi. Metodni quyidagicha qo‘llash tavsiya etiladi: talablarni rangi kartochkalar yordamida kichik guruhlarga ajratish va vazifalar berish, iloji boricha har bir guruhga alohida vazifalar beriladi. Guruhlar vazifalarni bajarishlari uchun qog‘oz to‘plami va yozishlari uchun markerlar tarqatiladi. Berilgan vazifani kichik guruh a’zolari kelishilgan holda qog‘ozlarga yozib boradi. Guruhdan bitta ishtirokchi yozadi qolgan ishtirokchilar vazifa javoblarini aytib turadi. Vazifa bajarib bo‘lgandan keyini magnitlar yordamida doskaga mahkamlanadi va taqdimot qilinadi. Barcha kichik guruhlar taqdimotidan keyin guruhlarga bilan birgalikda bajarilgan vazifalar muhokama qilinadi hamda noto‘g‘ri javoblar bo‘lsa olib tashlanadi. Har bir guruh taqdimotidan so‘ng, oldindan ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida baholaniladi.

“Pinbord” metodining ishlanmasi

Kichik guruhlarga beriladigan vazifalar :

1-guruh: Etikaning asosiy kategoriyalari (qizil rangli kartochkalar)

2-guruh: Etikaning tamoyillari (yashil rangli kartochkalar)

3-guruh: Etikaning meyorlari (sariq rangli kartochkalar)

Etikaning asosiy kategoriyalari:

- Muhabbat va nafrat
- Ezgulik va yovuzlik
- Yaxshilik va yomonlik
- Kamtarlik
- Baxt
- Hayotning ma’nosi
- Vijdon
- Nomus
- Adolat

Etikaning meyorlari:

- Millatparvarlik
- Vatanparvarlik
- Erkparvarlik
- Insonparvarlik
- Mehmondo’stlik
- Mehnatsevarlik
- Tinchlikparvarlik
- Fidoyilik
- Ziyolilik

Etikaning meyorlari:

- Halollik
- Rostgo‘ylik
- Hayolilik
- Insoflilik
- Xushfe’llik
- Kamtarinlik
- Bosiqlik
- Xudbinlik
- Shuhratparastlik

Xulosa: “Pinbord” metodini o’tkazish talabalarga seminar mashg‘ulotda etikaning kategoriyalari, tamoyillari va meyorlariga oid tushunchalarni o‘z o‘rnida qo‘llashda foyda beradi.

“Kichik guruhlarda ishlash”

"Kichik guruhlarga bo‘lish" maqsadlari quyidagilardir : 1- dars jarayonida yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish; 2- amaliy topshiriqlarni bajarish; 3- tarbiya jarayonida ijtimoiy topshiriqlarni bajarish; 4- darsdan bo‘sh vaqtlarini tashkil etish; 5- talabalarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish; 6 - shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash.

Guruhlarda ishlash uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Guruhlarda mashg‘ulotni rejalashtirib, talabalarni 4-5 guruhga taqsimlash zarur, har guruhda 4 - 6 ishtirokchi bo‘lishi mumkin.

Izoh: guruhlarning ko‘pligi ish natijalari prezентatsiyasi va baholashi vaqtini cho‘zib yuboradi; guruhda talabalar sonining ko‘pligi guruh ishida faol ishtirok etish imkoniyatini cheklaydi.

2. Guruh tarkibini o‘qituvchi belgilaydi. Guruhning tarkibi xilma-xil bo‘lishi kerak. Barcha munosabatlarda "tabaqa lashtirilgan" guruhlar tuzish mumkin. Eng zehnli va qobiliyatli talabalar harbir guruhga kiritilib, zehni o‘tkir bo‘lmagan talabalarni ham harbir guruhga taqsimlash mumkin. Iloji boricha guruh tarkibini tez-tez almashtirishga harakat qilish lozim. Talabalar doimo bir tarkibda ishlashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

3.Taqsimlashning birdan bir usulini 3-4 marta qo‘llanganda u zerikarli bo‘lib qoladi, shuning uchun guruhlarga taqsimlashning qiziqarli usullarini topish zarur (lotereya, alifbo bo‘yicha, imkoniyat va qiziqishlar asosida va boshqalar).

4. Berilgan topshiriqni bajarish uchun guruh doira shaklida o‘tiradi. Har bir ishtirokchi hammani ko‘rmaguncha guruh ishni boshlay olmaydi. Ulardan biri yozadi ("rayter"), biri qilingan ishni so‘zga chiqib himoya qiladi (spiker). Bu rollar ijrosini barcha guruh a’zolari navbat bilan bajaradi. Kichik guruh rahbarlarini tez-tez (1-2 xafizada, bir oy yoki chorakda bir marta) almashtirish kerak, chunki har qaysi talaba ham rahbar, ham bo‘ysunuvchi sifatida guruhdagi ishlarni bajarishi lozim.

5.Kichik guruh uchun berilgan vazifani bajarishga aniq yo‘riqlar ko‘rsatish va yetarlicha vaqt berish zarur.

6.Guruh ishi natijalarining qanday shaklda topshirilishini aniq tushuntirish va u haqida guruhga kimni e’lon qilishi kerak bo‘lsa, uni oldindan tanlab qo‘yishi zarur.

7.O‘qituvchi ish vaqtida doimo har bir guruh atrofida yuradi, chunki uni savollarga javob berish zarurati bo‘lishi mumkin.

8. Guruhlarni baholash va mukofotlash tizimini ishdan oldin o‘ylab topish va tushuntirish kerak. Muvaffaqiyatga erishilgan guruh-uchun albatta mukofot tayyorlanadi. Qimmat bo‘lmasa ham shunday mukofotlar talabalarni rag‘batlantiradi. Bajarilgan ishlarni kichik guruhlarning to‘plangan ballari maxsus stendda

ko'rsatiladi.

Talabalarni kichik guruhlarga taqsimlash uchun turli usullarni qo'llash mumkin. Masalan:

- ◆ 4 gacha sanash;
- ◆ mevalarning nomlariga ko'ra - olma, nok, olxo'ri, anor;
- ◆ geometrik shakllar nomi bilan - uchburchak, to'rtburchak, kvadrat, aylana va hokazo.

“KEYS-STADI” METODI

Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, study – ta’lim co’zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir.

“KEYS-STADI” metodini amalga oshirish bosqichlari

- Keys bilan tanishuv (individual)
- Asosiy muammoni (o‘quv muammosini) ajratib olish va o‘rganish (individual va kichik guruhlarda)
- G‘oyalar yig‘ish va muammoning maqbul yechimini tanlash, modellashtirish (kichik guruhlarda)
- Keys yechimi uchun taklif etilgan g‘oyalarni taqdimoti, tahlil va baholash (o‘qituvchi va kichik guruhlar)
- Keys yechimi va tavsiyalar. (o‘qituvchi, kichik guruhlar va individual)

“Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari. shaxs axloqiy tarbiyasi” mavzusiga «Keys stadi» metodining qo’llanilishi.

Dars mavzusi: (amaliy mashg‘ulot) Oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta’siri, erkak va ayolning o‘rni. Oilaviy munosabatlarga noan’anaviy yondoshuvlar: bir jinsli nikohlar, nikohsiz oilalar va ularning oqibatlari.

Darsning ta’limiy maqsadi: Axloqning mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odad va an’analarning o‘rni, Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni. Davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida ma’lumotlar berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, etikaning mezoniy tushunchalarini inson hayotida qo’llay bilish ko‘nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirish, oilaning muqaddasligi ahamiyatini tushuntirishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini

yuksaltirish, axloqning insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odat va an’analarning o‘rni, davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni, davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida ma’lumotlar berish.

Darsda foydalaniladigan metod: “Keys stadi”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochiladi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda axloqning mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odat va an’analarning o‘rni, Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni. Davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida ma’lumotlar beradi.

3. “Keys stadi ” metodni o‘tkazish.

Bu metoddan maqsad: ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo‘lib, hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti shaxsga yo‘naltirilgandir. Bu tashkiliy institusional keys bo‘lib, ma’lumotlar, vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Auditoriyadagi talabalarning sonidan kelib chiqib, jurnaldagi tartib raqamlari yoki, o‘tirgan joydagi insonlarni qiziqishlari, yoki rangli qog‘ozlarini tarqatib bir xillilarni ajratib olish yo‘llari bilan guruhlarga ajratib olinadi. Har bir guruhga “muammo” tarqatiladi.

1 – vaziyat:

Yosh oila qurayotgan kelin - kuyovga o‘z oilaviy shifoxonalariga tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yo‘llanma berildi. Kuyov tuy taraddudi bilan vaqt yo‘qligini vaj qilib bo‘lim boshlig‘i bilan “gaplashib” ma’lumotnomani bir amallab oladi. Kelin esa barcha qoidaga ko‘ra ko‘rikdan o‘tadi. Bu yosh oila quruvchilar bir – birlariga sog‘lom ekanliklarini bildirishdi va ularni FXDYO bo‘limida qayd etildi. 4 – 5 oylardan so‘ng kelin oilaviy shifoxonaga qaynonasi bilan chiqib, homiladorlik bo‘yicha ro‘yxatga qo‘yiladi. Olingan birinchi tahlillar kelinda zaxm kasali mavjud

ekanligini ko'rsatadi.

Bundan xabar topgan er va qaynona kelinni "yengil tabiat ayol bizning xonadonimizga mos kelmaydi" – deb sharmandalarcha uydan xaydab yuborishadi. Bu yosh oilani tiklab bo'ladimi?

2 – vaziyat:

Oiladagi ayol rahbar. Oila yumushlarini bajarishga, bolalar o'rtasidagi muammolarni hal qilishga, turmush o'rtog'ining ham ko'ngliga yo'l topa olishga ulgurmoqda. Oiladagi erkak ham rahbar. U faqat davlat ishlari bilan band. Ayol va siyosat sizning munosabatingiz.

3 – vaziyat:

Shunday vaziyatni tasavvur qiling: Siz bir oilaga kirdingiz. Shu oiladagi mavjud turmush tarzini nimalar orqali baholaysiz? "Sog'gom turmush tarzi mustahkam oilaning garovidir" degan fikrga qarashlaringiz.

4 – vaziyat:

Yangi ko'chib kelgan qo'shningizni qizi tashqi jihatdan o'zining chiroyli odobi va axloqi bilan ajrab turadi, oilasi ham baobro', hurmatga sazovor insonlar. Mahallaga kelgan kuyov tomonning vakillari sizlardan shu oila haqida ma'lumot berishni so'rab qoldi siz va boshqa qo'shnilar ular haqida to'liq tasavvurga ega emassizlar sizning bu oilaga beradigan bahoingiz.

Shundan so'ng guruhdagilarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Ular o'zlarining oralaridan bitta taqdimotchini tanlab oladilar va barcha fikrlarni jamlashni o'qituvchi so'raydi. Bunda vatman qog'oz va markerlardan foydalangan xolda alohida ishlanadi. Vaqt tugagach bittadan taqdimot uchun 5 daqiqa beriladi shu vaqt ichida muammoni yechini topishga harakatlar bo'ladi.

Xulosa: "Keys stadi" ni o'tkazish orqali talabalar o'rtadagi munosabatlar iliqlashadi, faollashadi, oilaviy munosabatlarga amaliy yondashiladi. O'qituvchi o'z o'rnida Davlatimizni oila institutiga bo'lgan munosabatini ilmiy jihatdan asoslab berishga erishadi.

"DOMINO" METODI

"Etikaning maqsadi va vazifalari. Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining axloqiy mohiyati" mavzusiga "Domino" metodining qo'llanilishi.

Dars mavzusi: (seminar) Etikaning maqsadi va vazifalari. Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining axloqiy mohiyati.

Darsning ta'limiy maqsadi: Etika fanining mohiyati, uning tadqiqot

obyekti hamda ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligini tushuntirish; hozirgi kunda axloqning zamonaviy muammolari va ularga taalluqli bo‘lgan tushunchalar haqida ma’lumotlar berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarga etikaning tadqiqot obyekti bo‘lmish odob, xulq, axloq tushunchalarini mohiyatini bat afsil tushuntirib berish hamda hozirgi kunda inson asosiy faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan axloqshunoslik yo‘nalishlari bilan tanishtirishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, axloqiy tushunchalarini inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini his qilish hamda to‘g‘ri qo‘llay bilish ko‘nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirishdan iborat.

Darsda foydalaniladigan metod “Domino”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochiladi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib; bugungi kunda etika fanining ahamiyati, uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi; axloqiy tafakkur taraqqiyoti hamda axloqning zamonaviy muammolari haqida ma’lumotlar beradi.

“Domino” metodning o‘tkazilishi.

Bu metoddan maqsad bugungi kunda etika fanining nazariy va amaliy ahamiyatini bat afsil yoritib berish orqali talabalarda odob, xulq va axloq tushunchalarini inson hayotidagi o‘rnini his qilish hamda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Guruhdagi talabalarning sonidan kelib chiqib 4-5 ta kichik guruh shakllantiriladi. Kichik guruhlarga mavzuga oid bo‘lgan savollar va savolga javoblardan iborat kartochkalar tarqatiladi. "Domino" metodni o‘tkazish tartibi: kichik guruhlar berilgan kartochkalardagi savollarga to‘g‘ri javoblarni topib to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirishi kerak bo‘ladi. Kichik guruhlarning vazifalari bir xil bo‘ladi. Bu yerda asosiy maqsad qaysi guruh berilgan savollarga bиринчи bo‘lib kuyib chiqishi kerak to‘g‘ri javob topadi va to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiradi. Kartochkalarni joylashtirish paytida bittasining javobi noto‘g‘ri joylashtirilsa barcha javoblar ketma-ketligi buziladi.

Tayyorlangan kartochkalar soni juft bo‘lishi talab etiladi hamda kartochkalar soni juda ko‘p bo‘lmasligi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Domino” metodning ishlanmasi

“Etika” fani	axloq haqidagi qarashlar tarixini va boy ma’naviy merosini o‘rganish asosida zamonaviy odob - axloq qoidalari va ularga amal qilishning ijtimoiy ma’naviy ahamiyatini o‘rganishdan iborat.
Fanni o‘qitishdan maqsad	-axloqning milliylik va umumbashariylik xususiyatlarini tahlil etish, zamonaviy axloqiy meyorlarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish; - axloqiy kategoriyalarining inson hayotidagi belgilovchi o‘rnini aniqlash.
Fanning vazifalari	inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burlish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.
Odob	oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.
Xulq	jamiyat, zamon, ba’zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobil xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa.
Axloq	(grech. Ἕνδονε-λαζατλανις) - qadimgi davr falsafiy tushunchalaridan biri sifatida ko‘ngilocharlik, huzurlanish ma’nolarini beradi.
Gedonizm	(grech. εὐδαιμονία—barqarorlik, huzurbaxshlik, baxt)—inson asosiy faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan axloqshunoslik yo‘nalishlardan biri sanaladi.
Evdemonizm	har ikkala fan ham bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan.
Etika va dinshunoslik	ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe’l-atvori va mayl-istiklarini o‘rganadi. Bu o‘rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: biri u yoki bu xatti-harakat, fe’l-atvor, sababiy asoslarning ruhiy tabiatini va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, ikkinchisi esa

	ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.
Etika va ruhshunoslik	o‘z mohiyatiga ko‘ra insonni siyratan baholaydi, unga mana bu – fazilat, bu esa illat deb, insonning mavjud xislatlarini tahlil qilib ko‘rsatadi.

Xulosa: “Domino” metodini o‘tkazish orqali talabalar fanning nazariy qismini chuqur o‘zlashtirishga olib keladi. O‘qituvchi o‘z o‘rnida fanning kategorial tizimini ilmiy jihatdan asoslab berishga erishadi.

San’atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. San’at va uning turlari va ularning o‘zaro aloqadorligi mavzusiga “Charxpalak” metodining qo‘llanilishi.

Dars mavzusi(seminar): San’atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. San’at va uning turlari va ularning o‘zaro aloqadorligi

Darsning ta’limiy maqsadi: San’at estetikaning obyekti sifatida o‘ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Shunga ko‘ra, uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San’at hayotni in’ikos ettirar ekan, insonning o‘zini o‘ziga ko‘rsatuvchi ulkan ko‘zgu vazifasini o‘taydi. U insonni o‘rgatadi, da’vat etadi, go‘zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san’atning ko‘makchisi, yetakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san’atning paydo bo‘lishidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san’at asarining ichki murvatlaridan tortib, san’atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘rganadi. Ikkinchchi tomondan, san’at uchun umumiylar qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tatbiq etadi. Uchinchi tomondan, esa san’at asarini anglash etayotgan kishi ruhidagi o‘zgarishlarni nafosat nuqtai nazaridan tadqiq qiladi.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san’at, adabiyot va ma’rifat ko‘tarishiga shubha yo‘q. San’at mohiyatan shaxsning xistuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o‘ziga jalb etib kelganligini tahlil qilishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: San’at va uning turlari san’atning xususiyatlari va vazifalari, badiiy ijod jarayoni, ijodkor va anglash etuvchi hamda san’at turlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tafakkur orqali talqin etishda hamda turli xil munosabatlarni o‘rganishda insonga ko‘mak beruvchi vosita ekanligini anglash bilan belgilanishini tushuntirib berishdan iborat.

Darsda foydalaniladigan metod “Charxpalak ”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni seminar mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochiladi. Seminar mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda san’at va uning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti hamda estetika falsafiy fan sifatida barcha san’atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go‘zallik orqali haqiqatga yetishtirishga xizmat qilishi haqida ma’lumotlar beradi.

“CHARXPALAK” metodining mavzuga qo‘llanilishi

Talabalarni sonidan kelib chiqqan holda 4 yoki beshta guruhgaga ajratish va qo‘yidagi jadvalni berish. Kichik guruhlarda turli xildagi ruchkalar beriladi Bajarilgan ishning o‘ng burchagiga guruhning raqami, chap burchagiga esa o‘ziga tegishli bo‘lgan biror belgini qo‘yadi va berilgan rangli ruchkada vazifani bajaradi shu asosida guruhlarni vazifalari bir-biridan ajralib turiladi. Jadvaldagি tushunchalarning ma’nosidan kelib chiqib xususiyatlar, tamoyillar va vazifalarga taalluqligini ruchka bilan ajratib belgi qo‘yib chiqadi.

Jonlantirilgan ma’ruza

Ma’lumki, ma’ruza oliv o‘quv yurtlarda talim berishning asosiy vositasi (quroli) hisoblanadi. Yaxshi tayyorlangan va tashkil etilgan, dinamik tarzda o‘tkazilgan ma’ruza: yangi informatsiyani berishi, murakkab nazariy masalalarni tushuntirib sistemaga solishi, muammoni hal etish jarayonida ijodiy tafakkurni modellashtirishi, turli g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tahlil qilishi va ko‘rsatishi, bilim olishga intilishni shakllantirishi, ta’limni davom ettirish uchun tashabbus va motivatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari ma’ruza iqtisodiy jihatdan ham qulaydir. Ideal tarzdagi ma’ruza talabalarni o‘quv jarayoniga jalb etishi, ular o‘rtasida o‘zaro ta’sirni keltirib chiqarishi va qiziqish uyg‘otishi kerak. Lekin, afsuski, bunday ideal holatga juda oz ma’ruzalar erisha oladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hatto eng qiziqarli ma’lumot beruvchi ma’ruzalar ham 15 - 20 daqiqadan so‘ng o‘z unumdorligini yo‘qotadi.

Hozirgi zamon oliv ta’limining talablarini hisobga olib, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi va o‘rganilayotgan materialni faol tahlil qilishni rag‘batlantiruvchi yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda quyidagi jonlantirilgan ma’ruza variantini havola qilamiz.

Jonlantirilgan ma’ruza - an’anaviy ma’ruzaning chuqurlashtirilgan variantidir. Mazkur ma’ruzada faoliyatning har xil shakl va turlari qo‘llaniladi. Jonlantirilgan ma’ruza bilim, o‘quv va ko‘nikma hamda shaxsning emotsional-axloqiy fazilatlarini

shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ma’ruzani o‘tkazish usuli:

1-qadam. Avvaldan ma’ruzani mantiqan tugallangan qismlarga bo‘lib chiqing.
2-qadam. Talabalarga diqqatini materialning muhim jihatlariga jalb etuvchi vazifa bering. Vazifalar turlari:

1. Barcha bilimlarini jamlash maqsadida "aqliy hujum" o‘tkazing. (Kichik guruhlarda) fikrlarni vatmonga yozib, doskaga ilib qo‘ying.
2. Juftliklarda muhokama qilish uchun savol bering.
3. Boshlamoqchi bo‘lgan ma’ruzaga tegishli bo‘lgan atama va tushunchalar ro‘yxatini ko‘rsatib, 3 - 4 minutdan so‘ng bu termin va tushunchalarni taxminiyl talqinini berishni so‘rang.
- 3-qadam. Ma’ruza materiallarini 5 minut davomida bayon eting (10 minutdan oshmasin).
- 4-qadam. Dastlabki natijalarni xulosalash, talabalar o‘z fikrlarini ma’ruzada eshitgan g‘oyalar bilan taqqoslaydilar.
- 5-qadam. Uncha katta bo‘lmagan vazifalar beriladi (kichik guruhlarda yoki juftliklarda ishslash uchun).

Vazifalar turlari;

- uchun nima qilmoq kerak
- bilan nima bo‘ladi?
-da qanday qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin va hokazo.

Ikkinci qadamda bayon etilgan vazifalardan ham foydalanish mumkin. Muhimi ma’ruzani davomini tinglash uchun talabalarda qiziqish va intilish paydo bo‘lsin.

6-qadam. Ma’ruzani keyingi qismini 10 - 15 daqiqa bayon etish.

7-qadam. Ma’ruzaning bu qismi bo‘yicha fikrlarini xulosalash. Talabalar o‘z g‘oyalarini ma’ruzada bayon etilgan fikrlar bilan taqqoslaydilar.

8-qadam. Yakuniy vazifa:

- 1.Talabalar juftliklarga bo‘linib, ma’ruzaning muhim tamoyillariga tegishli bo‘lgan savolga javob beradilar.
- 2.Talabalar 10 minutli "esse" yozadilar.
- 3.Ular 5 daqiqada “chiqish karta”sini to‘ldiradilar.

O‘qituvchiga maslahat

Juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rishingiz, jonlantirilgan ma’ruza (prodvinutaya leksiya) o‘tkazishning turli variantlarini qo‘llay bilishingiz, improvizatsiya qilishga tayyor bo‘lishingiz lozim.

1.2. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo'llari.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin dastlabki o'rta ga tashlangan eng dolzarb muammolardan biri ma'naviyat bo'ldi. Hozir ham bu muammo jamiyatimizning diqqat markazida. Zero, ma'naviyatsizlik har qanday jamiyatni tanazzulga olib borishi shubhasizdir. Shu bois «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, o'quvchi shaxsi asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z Vatani va xalqiga sodiq fuqarolarni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'naliшlaridan biri bo'lgan Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarda «Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi», -deb ko'rsatiladi¹.

Darahqiqat, insoniyat tarixini axloqiy, madaniy, estetik taraqqiyotdan ayri xolda tasavvur etish mumkin emas.

«Estetik madaniyat» tushunchasiga ilmiy manbalarda turli fikrlar va ta'riflar beriladi. Jumladan, «Estetik madaniyat - estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol qilish usullarining majmui»². Bu ta'rifda estetik madaniyat qadriyatlar doirasida olinib, uni jamiyatda tarkib topishi va o'zlashtirilishiga urg'u beriladi. Biroq, aslida estetik madaniyat shaxsni tabiatga bo'lgan intilishlari va uni o'zlashtirishga qaratilgan munosabatlarining mahsuli sifatida vujudga kelib, voqelik go'zalligidan bahramand bo'lish, turli shart-sharoitlarda o'z ehtiyojlariga qarab narsa va hodisalarni o'zgartirish asosida shakllanib kelgan.

Shuningdek, «Estetik madaniyat - bu inson ehtiyojlarining murakkab tizimi bo'lib, unda odamzod hissiyotlari, malakalari, ko'nikmalar, bilimlari, meyorlari, maslaklari bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi»³dir. Mazkur ta'rifda estetik madaniyat ko'proq insonning ehtiyojlariga bog'liq hodisa ekanligiga urg'u berilgan bo'lib, u ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yangilanib, iste'mol qilib borilishi nazarda tutiladi.

¹ Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т. «Шарқ» нашириёт-матбаа концернининг Бош таҳририяти. 1998. 55-бет

² Фалсафа. Қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. -466 6.

³ Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. Estetika asoslari. –Tochkent: Cho'lon, 2006 -B. 143.

Yana bir ta’rifda, «estetik madaniyat insonning ma’naviy-hissiy faoliyati bilan bog‘langan munosabatlar va qadriyatlar tizimini ifodalaydi»⁴, deyiladi. Bunda estetik madaniyat insonning ma’naviyati va falsafiy tafakkurining qadriyatlar tizimida shakllanishi asos qilib olinadi.

Bundan tashqari, shaxs estetik madaniyatiga nisbatan «Estetik madaniyat qadriyatlarini o‘zlashtirish, shaxsiy va ijtimoiy tajribaning o‘zaro aloqadorligi negizida amalga oshadi, unda shaxsning estetik dunyoqarashi, qadriyatlarga tanlab munosabatda bo‘lish malakalari, go‘zallik va mukammallik to‘g‘risidagi tasavvurlari, voqelik, san’at qadriyatlarini anglash etish shakllari, estetika, san’atshunoslik to‘g‘risidagi bilimlari muhim omil hisoblanadi. Shaxsning estetik madaniyati, shunday qilib, estetik qadriyatlarni yaratish, o‘zlashtirish va iste’mol qilish usullaridan tashkil topadi»⁵, degan ta’riflarda shaxs estetik madaniyatiga maqsadli yondoshish va kelajakka estetik mohiyatni qarama-qarshiliklar va murakkab jarayonlar negizida to‘g‘ri yo‘naltirish⁶ sifatida munosabat bildiriladi.

Estetik madaniyatga berilgan yuqoridagi ta’riflarda bu muammoning ayrim tomonlari, qirralari olinadi, ammo uning tub mohiyati ochilmay qoladi. Mazkur ta’riflar asosida estetik madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. YA’ni estetik madaniyat bu – muayyan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilarning voqelikdagi narsa va hodisalarga nisbatan hissiy-emotsional va zavqiy munosabatda bo‘lib, ularni ma’naviy-estetik qadriyat sifatida baholashining ifodasidir. Shuningdek, estetik madaniyat, inson va jamiyat moddiy-ma’naviy darjasи, ijtimoiy-siyosiy omillar, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy-tarixiy hodisadir.

Mazkur ta’riflar estetik madaniyat tushunchasining keng qamrovli ekanligi, voqelikning inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liqligi, har bir zavqiy munosabat estetik dunyoqarashning negizida rivojlanib borishni o‘z ichiga oladi. Bir so‘z bilan aytganda, estetik madaniyat – bu inson jismoniy va ma’naviy kamolotining voqelikka nisbatan zavqiy munosabatining ifodasidir.

Estetik madaniyatning metodologik asoslari shaxsning estetik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, insonda zavqiy munosabatlarni shakllantiruvchi his-tuyg‘u, malaka, ko‘nikma, meyor va mezonlar bilan uzviy aloqador bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, shaxsning voqelikni anglash etishi bilvosita estetik hissiyotlarda namoyon bo‘lib borishini ko‘rsatadi.

Jamiyatning rivojlanib borishi davomida estetik madaniyat faqatgina voqelikni estetik anglash etib qolmasdan, balki shaxsning estetik ongida vujudga

⁴ Гулметов Э., Кобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. –Т.: Фан, 2000, -38 б.

⁵ Маданиятшунослик асослари. –Тошкент: Фан, 2006. – 84 б.

⁶ Пирацов А.В. Эстетическая культура личности. –Ленинград: Знание, 1978. – 6 с.

keladigan go‘zallik dunyosining qiyofasi, badiiy-estetik didlari, asrlar davomida shakllanib va sayqallanib keladigan umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy va estetik ideallari ham boyib borishini ifodalaydi. Shuningdek, estetik madaniyat jamiyat rivojida xilma-xil vazifalarni bajarib keladi. U tadriiy rivojlanish jarayonida shaxsning tabiatga bo‘lgan munosabati va uni o‘zlashtirishga intilishini, mehnat faoliyatining o‘zgarib borishini, maishiy xizmat sohasini, ijtimoiy hayotning zavqli manzaralarini, insonlarning borliqqa zavqiy yondoshuvini, jamiyat talab va ehtiyojlari asosida vujudga keladigan badiiy-estetik omillarning qondirilishini ta’minlaydi.

Jamiyat ma’naviy hayotining go‘zallik qonunlariga muvofiq o‘zgaruvchan bo‘lishiga shaxsning estetik madaniyati o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shaxs estetik madaniyatida faqatgina muayyan jamiyatning estetik madaniyati, o‘z xalqining badiiy-estetik va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarigina emas, balki, shu vaqtgacha insoniyat yaratgan barcha qadriyatlar tizimini o‘zlashtirilishi, adabiyot va san’atning baholanib borilishi va muhokama etilishi, tabiatdagi voqeа-hodisalarga nisbatan zavqiy munosabatni shakllantirish nazarda tutiladi. Shaxs estetik madaniyati hamisha insonning vogelikka zavqiy munosabatining namunasi sifatida estetik tasavvur, faoliyat, talab va ehtiyoj, tafakkur va nutq, ijtimoiy hayot va mehnatdagi go‘zallikni o‘z ichiga qamrab oladi.

Estetik madaniyat jamiyat va shaxs ma’naviy hayotining muhim omili bo‘lishiga qaramasdan, u faqatgina ma’naviy omillar bilan chegaralanib qolmasdan, u butun insoniyat tomonidan yaratiladigan narsa va hodisalarning ichki va tashqi dunyosi bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, estetik madaniyat insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonida erishgan tajribalari, tabiatga bo‘lgan zavqiy munosabatlarining namoyon bo‘lishi, ijtimoiy-ruhiy jarayonlarning o‘zgarishi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan estetik madaniyat tarixiylik negizida vujudga keladigan moddiy, ma’naviy, axloqiy, diniy, psixologik, siyosiy va ijtimoiy sohalarni, shaxsning jamiyatda subyekt sifatida estetik talab va ehtiyojlarini qondirilishini qamrab oladi.

Estetik madaniyat avloddan avlodga o‘tuvchi zavqli hayotni shakllantiradi. Bu esa, asosan, adabiyot va san’atda rang-barang qiyofalarda inson obrazlari, maqsadlari va ideallari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda estetik madaniyatni shakllashtirish shaxsdan ulkan mehnat talab etadi. Lekin hamisha ham shaxs biron-bir estetik faoliyat asosida o‘zi mustaqil bilim olishi, tabiat va jamiyatni o‘rganishi, shaxsiy hayotida yuz beradigan o‘zgarishlarga tayyor turishi oson kechmaydi. Shu sababli ijtimoiy hayotdagi badiiy-estetik islohotlar shaxs uchun ijobiy ta’sir etuvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etib, har bir shaxsga yo‘naltiriladigan estetik hissiyot negizida muloqot madaniyatiga chorlaydi, har bir kishini go‘zallik, zaq-

shavq olamiga, aql-anglash bilan yashashga, did bilan inson qalbidan joy olishga undaydi.

Estetik madaniyat natijasida shaxsda o‘tmish merosga munosabat shakllanadi, tafakkuri boyiydi, chunonchi, real hayot manzaralarini anglash etishga, undan saboq olishga harakat qiladi. Shu ma’noda, estetik madaniyat hayotni falsafiy anglash etish va hayotga falsafiy-ma’naviy munosabatda bo‘lish demakdir. Bu narsa tarixiy jarayon sifatida qadimdan to hozirgi kunga qadar o‘zining boy merosini jahon xalqlari estetik-falsafiy tafakkurida ifodalab kelgan.

Estetik madaniyat – estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste’mol qilish usullarining majmui. Estetik madaniyat tabiatni estetik o‘zlashtirish jarayonlari natijalarini, mehnat faoliyatida, turmushda, ijtimoiy munosabatlardagi estetik holatlarni; san’atning ijtimoyi borlig‘ini; jamiyat a’zolarining estetik qarashlari, didlari va manfaatlari ko‘lamin; estetik tarbiya nazariyasi va amaliyotini; kishilar ijtimoiy estetik faoliyalari namoyon bo‘lishining rang-barang shakllarini ifoda etadi.

Madaniyat – (arabcha – madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rgan) – tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usuli. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga maqsadagi muvofiq ta’siri (yerni ishla va x.k.), hamda insonning o‘zini tarbiyalash va o‘qitish ma’nolarini ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi orqali svilizatsiya bilan bog‘liq mazmun tushunila boshlandi.

Axloq va axloqiylik muammolari insonning ijtimoiy munosabatlarida muhim o‘rin tutgani bois, bu masala azaldan yetuk faylasuflar, allomalarining diqqat-e’tiborida turgan. Chunonchi, o‘z asarlarida inson axloq normalarini egallasagina ma’naviy kamolotga erishishi mumkinliini ta’kidlagan Abu Nasr Forobiy axloqiy kamolot sharhlari va asoslarining sharhiga alohida to‘xtalib, axloqiy kamolotga erishish, avvalo, shaxs jamiyat a’zolari bilan faoliyatda mushtarak-mutanosib bo‘lsa, uning ongida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy manfaatlarga ham moyillik yuzaga kelishi orqali amalga oshishini ko‘p bor tilga oladi.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy axloqiylik insonning kishilarga, jamiyatga va o‘z-o‘ziga real, amaliy munosabati asosida shakllanishini ta’kidlaydi. Beruniy insonni oliy mavjudot sifatida tavsif etar ekan, Alloh unga inoyat etgan aql-zakovatga munosib bo‘lmog‘i kerakligini bayon etib, insondagi noxush axloqsizlik, badfe’llik, avvalo, uning o‘zi uchun, qolaversa, jamiyat uchun katta musibat keltirishini uqtiradi.

Shu bois jamiyat taraqqiyoti uchun zarur hisoblangan axloqiy qadriyatlarning egallanishi, insonning amaliy faoliyatda ularga amal qilishi - axloqiy madaniyatning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Axloqiy madaniyat, avvalo, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga axloqiy tamoyillar a'mollar va qadriyatlar shakllanishi sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Axloqiy madaniyat olamni ma'naviy-amaliy anglashning zarur vositalaridan biri sifatida ma'lum qadriyatlarga yo'nalganlikni, faoliyat meyorlari va sabablarini, insonlararo munosabatlarning o'ziga xos shakllarini qamrab olgan holda, ularni asoslab beradi. Axloqiy madaniyatning muhim omili bo'lgan axloqiy ong o'z navbatida u yoki bu holatda nafaqat qanday yo'l tutish kerakligini, balki vaziyat taqozo ettan vazifani qanday amalga oshirish zaruratiii ham tushunishga imkon yaratadi. Axloqiy madaniyatga, avvalo, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya qilish mahsuli sifatida qarash, shu bilan birga, unga erishgan shaxs turli ijtimoiy muhitlar stixiyasi va favqulodda sodir bo'lgan hodisalar zar-bidan o'zini yo'qotib quymasligini ham ta'kidlash joiz.

Bu jarayon maktab, oila va boshqa tarbiya dargohlari kutganidan o'zgacha ham bo'lishi mumkin. Binobarin, shaxsning axloqiy madaniyatini qandaydir qotib qolgan omil ko'rinishi sifatida emas, balki muntazam yuksalib va boyib boruvchi, hatto axloqning zavol topishi yo'liga kirib qolishi ehtimoli bor bo'lgan jarayon sifatida ham tushunmoq lozim.

Axloqiy qadriyatlar iqtisodga, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga va madaniyatning boshqa ko'rinishlariga nisbatan nisbiy mustaqillikka ega ekani tabiiy. Huquqiy meyorlar, odat va an'analar, iqtisodiy va jtimoiy-siyosiy muassasalar, san'at va shu kabilar zinhor axloqiy adriyatlardan holi bo'lgan holatda amal qilmaydi, bu holat esa o'z navbatida shaxsning axloqiy madaniyati shakllanishiga sezilarli ta'sir etadi. Axloqiy qadriyatlar shakllanishida unga ijtimoiy meyorlar ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlash joiz. Jamiyatdagi umumiyl tartiblar, ijtimoiy -meyorlar tarzida, insonning ularga qay tariqa rioxqa qila borishi, ularni qay darajada o'zlashtirishi, ularning individual ongida qay tarzda aks etishi tufayli ichki uyg'otuvchi omillarga aylana boradi. Fuqarolar axloqiy madaniyatining o'ziga xos tarzda shakllanishiga xalqlarning hayot tarzi, ular yashayotgan muhit, urf-odat va an'analar kuchli ta'sir etishini ham nazardan ochirmaslik lozim.

Tabiiy muhit, yashash tarzi, diniy e'tiqod va shu kabilar ta'sirida yuzaga kelgan axloqiy ongning o'ziga xosligi axloqiylikning etnik xususiyatini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, axloqiy madaniyatning shakllanishida milliy davlatchilik shakllanishi va rivojining ahamiyati kattadir. Zero, ayni davlat xalqlar hayotida talay mutaraqqiy axloqiy urf-odatlarni qonunlashtiradi va ngu asosda o'z taraqqiyoti uchun qonunlashtirilgan xulqiy asoslarni yaratadi. Bizning nazarimizda, hozirgi kunda axloqiy madaniyat inson hayotini boy botiniy mazmun bilan, yuksak ijtimoiy mantiq bilan to'ldiradi, unga to'laqonlilik bag'ish-laydi, jamiyatda uchrab turuvchi ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'luvchi xuro-fot va illatlar, salbiy odatlardan holi

bo‘lishga, yangi hayot faoliyati shakllarini joriy qilishga imkon yaratadi.

Axloqiy madaniyat darajasini oshirish zaruriyati hozirgi sharoitda mustaqil O‘zbekistonning mafkuraviy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim hisoblanadi. Shaxsning axloqiy madaniyati mohiyati uning individual ongini va amaliy axloqiy faoliyatini milliy va umuminsoniy tamoyillar darajasiga olib chiqilishi bilan alohida xususiyatga egadir. Ayni vaqtda shaxsning axloqiy madaniyati ko‘p qirrali qadriyat bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari axloqiy bilimlar, his-tuyg‘u, e’tiqod va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi.

Jamiyatda madaniy rivojlanish uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘liga ega. Madaniyatning turli shakllari tarixan shakllanib, ijtimoiy qatlamlar uchun turlicha xizmat qilib kelgan. Madaniyatning shakllari, ayni choqda, shaxs ma’naviy yuksalishi, asrlar osha ma’naviy qadriyatlarni to‘plash va ko‘paytirish bilan ajralib turadi. Ana shunday ma’naviy qadriyatlardan biri sifatida estetik madaniyat shaxs tafakkuri, ongi va dunyoqarashini boyish jarayonida juda kata rol o‘ynaydi. Shunday ekan, avvalo, estetik madaniyatning o‘zi nima ekanligini anglab yetish, shu asnoda uning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillarini tadqiq etish zaruriyati tug‘iladi.

Jamiyatning estetik madaniyati muayyan tarixiy sharoitda yaratilgan va anglash etilayotgan estetik qadriyatlari yig‘indisidan iborat. Unga, birinchi navbatda, millat istiqomat qiladigan muhit tabiati, ijtimoiy-siyosiy tuzumdagи tizimlar faoliyatiga munosabat, yaratilayotgan barcha moddiy va ma’naviy qadriyatlarning estetik jihatlari, odamlar hayoti va faoliyatidagi estetik tomonlar, adabiyot va san’at durdonalari kiradi. Estetik madaniyat tarkibida, albatta, jamiyatning badiiy salohiyat amallari juda katta rol o‘ynaydi.

Shaxs estetik madaniyati esa muayyan jamiyat estetik madaniyatining o‘ziga xos aloqa vositasi sifatida individual-milliy, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik mayllardan tarkib topadi.

Jamiyatda estetik madaniyatning rivojlanish qonuniyatlari ijtimoiy hayotdagi barcha sohalarni qamrab olgan holda, tevarak-atrofdagi manzaralarning takrorlanmas tarovatlarini, turli xil vaziyatlar asosida (obyektiv va subyektiv omillar natijasida) kelib chiqadigan estetik munosabatlarni, shaxs ideallari, inson hayot tarzi va mehnat faoliyatida zarur omil bo‘lgan ijodkorlik qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Jamiyatda estetik madaniyatni yaratuvchisi va ijodkori shaxs ekan, u o‘zining ongli estetik faoliyati negizida moddiy va ma’naviy estetik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan zaruriy vositalarni yaratishga intiladi. Shu asnoda shaxs tafakkuri, voqelik haqidagi tasavvurlari, nafosat olami, ijtimoiy muhit to‘g‘risidagi qarashlari muayyan qonuniyatlar tizimida rivojlanib boradi.

Jamiyatda shaxs estetik madaniyati turli xil narsa va hodisalar o‘rtasidagi

jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi asosida rivojlanadi. Bu shaxsning ongida hosil bo‘ladigan tasavvur va fikrlar yig‘indisi estetik mohiyat kasb etgan quyidagi qonuniyatlarda o‘z ifodasini topadi.

Tabiat va jamiyat rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan estetik madaniyatning bu qonuniyatlari ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, ayniqsa, san’at, axloq, huquq, din, fan va ta’lim sohalarida amal qilib, madaniyat nazariyasining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ularning har biri jamiyat rivojida alohida-alohida shakllanib, shaxs dunyoqarashi va estetik ongingin taraqqiy etishiga olib keladi.

Quyida ana shu qonuniyatlarning falsafiy-estetik mohiyati va yo‘nalishi haqida fikr yuritamiz.

1. Axloqiy va estetik madaniyat unsurlarining notekis rivojlanishi Bu qonuniyat ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida va hamma sivilizatsiyalarda amal qiladi. Bu qonuniyatning jamiyatda amal qilish mexanizmini har bir shaxs estetik ehtiyojining o‘zgarib va rivojlanib borishidan bilish mumkin. Doimo shaxsning estetik ehtiyojlari muayyan davr va vaziyatlarda o‘zgarib turadi, ba’zi davrlar oralig‘ida shaxsning muayyan qadriyatarga ehtiyoji kuchayadi. Bu jarayonga javoban estetik madaniyat o‘zining ma’lum sohasini rivojlantiradi, ayrim unsurlarini qayta ishlaydi, natijada, estetik madaniyat elementlarining rivojlanish darajasi notekis bo‘lib chiqadi. Masalan, qadimgi dunyo madaniyatida mifologiya va afsona kabi estetik madaniyat unsurlari intensiv rivojlangan, ilm-fan, huquq, siyosat kabi sohalar esa kurtak holida edi. Bunga sabab, qadimgi odamlar oddiy ko‘rinishdagi uylarni qura olmaganliklari, o‘zlari uchun kiyinishning estetik jihatdan sodda shaklini bilmaganliklari, tabiat kuchlarini jilovlay olmaganliklari uchun ular ustidan xayoliy, mifologik qarashlarning ustunlik qilganligidir.

O‘rta asrlarda esa estetik madaniyatning yana bir sohasi din, xususan, G‘arbda nasroniylik va Markaziy Osiyoda islom dirlari shakllanib, keng tarqalgan va odamlar turmush tarzining barcha sohalariga, siyosat, huquqiy, axloqiy hayotga faol ta’sir ko‘rsata boshlagan. O‘rta asrlarda dinning mavqeい shunchalik kuchli ediki, Ovrupo qirolligiga toj kiydirish, hukmronlik qilishga ruxsat berish cherkov qo‘lida edi. Arab xalifalari, ya’ni payg‘ambarning o‘rinbosarlari, dunyoviy davlat unvoniga ega bo‘lmasalar-da, mamlakatda ularning so‘zlari qonun, farmonlari dasturamal edi. Barcha qozilik ishlari, fuqarolik, mulkchilik, oilaviy munosabatlar shariat tomonidan tartibga solinardi. Ovrupa mamlakatlarida yirik mashina ishlab chiqarish usulining, kapitalizmning shakllanishi jamiyat estetik madaniyati oldiga fan va texnikani rivojlantirish vazifasini qo‘ydi. Pirovardida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ilmiy dunyoqarashga asoslangan estetik madaniyat an'anaga aylandi, odamlarda texnokratik dunyoqarash shakllanib, asta-sekin insonparvar estetik

madaniyatdan tobora uzoqlashish holatlari ham vujudga keldi.

Biroq, umummadaniyatdagi texnokratik yo‘nalish ayni paytda estetik madaniyat rivojiga to‘sinqilik qiluvchi hodisaga aylanishi ehtimoldan xoli emas. Bu ayni paytda g‘ayri estetik madaniyat hamda turli axloqsizlik illatlarini avj olishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, estetik madaniyatning maqsadi shaxsni uyg‘un rivojlantirish ekanligini inkor qiladi, insonlar o‘rtasidagi barcha ijtimoiy munosabatlarni moddiy manfaatdorlikka bog‘lab qo‘yadi. Ammo kapitalizm jahon bozorini vujudga keltirib, xom-ashyo uchun, arzon ishchi kuchi uchun, kapital qo‘yish uchun kurashni keskinlashtirib, yirik postindustrial ishlab chiqarish usulini barqaror qilib, milliy va etnik to‘sinq va chegaralarni buzib tashlab, estetik madaniyatning muhim sohasi siyosatning rolini kuchayishiga zamin hozirladi.

Bundan tashqari, XX asrda, shuningdek, estetik madaniyat sohasidagi erkinlik, mutlaq erkinlik tamoyili ham shu darajada kuchaydiki, endi estetik madaniyatning turg‘un qonuniyatları individual mayl, xohish, ehtiyojlarning ifoda maydoniga aylandi. Bu narsa, ayniqsa, moddiy ishlab chiqarish, tasviriy san’at, badiiy adabiyot va teatrda o‘z ifodasini topdi. Abstraktionizm, surrealizm, kubizm, simvolizm, pop-art singari badiiy-estetik yo‘nalishlar estetik madaniyat unsurlarining cheksiz-chegarasiz ekanligiga ishora bo‘ldi.

2. Axloqiy va estetik madaniyatlar taraqqiyotining notekis rivojlanishi. Tarixdan ma’lumki, o‘tmishda ham, hozir ham, turli mamlakatlarda turli xalqlarning estetik madaniyati bir xil va tekis rivojlanmaganligi ko‘zga tashlanadi. Bu hodisa tasodifmi yoki u qandaydir ichki qonuniyatlarga buysunadimi? Nega turli xalqlar estetik madaniyatları notekis rivojlanadi, ba’zi xalqlar estetik madaniyati darajasida farq seziladi? Bu savollarga estetik madaniyatlarning notekis rivojlanish qonuniyati javob beradi. Mazkur qonuniyatning amal qilish sabablari quyidagilardan iborat: a) ishlab chiqarish kuchlari hamda vositalarining notekis rivojlanishi; b) tabiat va ekologiya ta’siri; v) xalq ijtimoiy-tarixiy tajribasi va estetik madaniyati an’analarining o‘ziga xosligi; g) diniy va axloqiy tasavvurlarning estetik madaniyat bilan nechog‘lik uyg‘unligi va hokazo. Ana shu omillarning bir yoki bir nechasi u yoki bu xalq estetik madaniyatiga ta’sir natijasida estetik madaniyat taraqqiyotidagi notekislik vujudga keladi. Masalan, eramizdan oldingi to‘rt minginchi yillarda Misrda ilk sivilizatsiya vujudga kelib rivojlanishiga va bu sivilizatsiya o‘sha davrlarda boshqa xalqlar estetik madaniyatlariga nisbatan ilgarilab ketishiga sabab, Misr aholisi qulay sharoitda yashagani, Nil havzasini o‘zlashtirib, ishlab chiqarish vositalarini ancha mukammallashtirgani sabab bo‘lgan edi. Ammo, o‘z davrining ilg‘or estetik madaniyati bo‘lgan bu sivilizatsiya qo‘shni mamlakatlarning doimiy tajovvuzlari va ichki ziddiyatlari ta’sirida inqirozga uchradi. Estafetani Yefrat va Tigr daryolari oralig‘ida yashovchi Mesopotamiya aholisi shumer va akkadlar,

keyinchalik Ossuriya qo‘lga oldi. Ammo bu original sivilizatsiyalar ham tarix sahnasidan tushdi. Buning sababi ijtimoiy-tarixiy jarayonlar doimo estetik madaniyatning istiqboli yoki inqirozini ham belgilab keldi.

Miloddan oldingi uch minginchi yillarda Hind estetik madaniyati rivoj topdi, Moxonjo-Doro va Xarappa sivilizatsiyasi gullab yashnadi. Er. av. uch minginchi yillarda Xitoyda ilg‘or estetik madaniyatli sivilizatsiya shakllandi va rivojlandi. Markaziy Osiyoda esa ilk sivilizatsiya o‘sha davrda shakllangan va Turon madaniyati deb yuritiladi. Demak, qaysi xalq qulay tabiiy va ijtimoiy muhitga ega bo‘lsa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar chegarasini kengaytirgan, o‘z tarixiy an’ana va estetik qadriyatlarini rivojlantirgan, boyitgan va kengaytirgan, umumbashariy ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirgan, voqelikka zavqiy munosabatni chuqurlashtirgan bo‘lsa, o‘sha xalqning estetik madaniyat darjasini o‘sib borgan, bunday sharoitlar, omillar chegaralanganda estetik madaniyatning taraqqiyot tezligi susaygan va toraygan. Bu esa, o‘z navbatida jahon miqyosidagi ikki mingta turli qabila, elat va millatlar estetik madaniyatining notejis rivojlanishiga olib kelgan. Shuningdek, bu notejis estetik madaniyat milliy o‘ziga xoslikning omili sifatida ham ko‘zga tashlanadi.

3. Estetik madaniyat bilan tabiiy muhitning mutanosibligi. Bu qonuniyat ham barcha davrlarda va barcha xalqlarning madaniy taraqqiyotiga xosdir. Bu qonuniyat jamiyat va tabiatning ichki, muhim, takrorlanuvchi aloqalarini ifodalaydi. Jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’siri natijasida ular bir-birida chuqur iz qoldiradi. Tabiiy muhitning estetik madaniyat shakllanishidagi «izlari»ni barcha sohalarda ko‘rish mumkin. Xususan, estetik madaniyatning muhim elementi bo‘lgan uy-joy, inshoatlar, binolarda tabiiy muhit o‘z izini qoldiradi.

Estetik madaniyat va tabiiy muhitning mutanosibligi qonuniyati kiyinish madaniyatining ham o‘ziga xosligini belgilagan. Masalan, Markaziy Osiyo kontrast, ya’ni o‘zgaruvchan iqlimli bo‘lgani uchun, yerli aholi ana shu sharoitga moslashib kiyim tanlaganlar. Shimolning sovuq o‘lkalarida yashovchi qabilalar esa doimo issiq pustinlar, mo‘yna kiyim-bosh kiyishga majbur bo‘lganlar. Janubiy Afrikaning ba’zi qabilalari hozir ham kiyim kiymaydilar, ularning ko‘pchiligi birgina lungi bilan yopinadilar, xolos. Qizilqum va Qoraqumlardagi kuchli shamollar va vodiylarning tog‘ va qum o‘rtasida «qozon» kabi holatga tushishi natijasida turli kasalliklar tarqatuvchi bakteriyalarning mo‘lligi xalqni shunga javoban libos kashf qilishga va ipakdan kiyim kiyishga majbur qilgan. Masalan, ishton qumni badanga yopishishiga yo‘l qo‘ymaydi, ipak esa ko‘plab viruslarga nisbatan qalqon vazifasini bajaradi.

Tabiiy muhitning estetik madaniyat shakllanishiga ta’sirini hammomlarning kelib chiqishida ham ko‘rish mumkin. Doimo yuz-qo‘lni yuvib turish, kiyimlarni tez-tez almashtirish, ichki va tashqi kiyim kiyib yurish ham tabiiy muhit talabi,

tozalik poklik ehtiyoji asosida kelib chiqqan. Aks holda hammomda cho‘milish, badan a’zolarini yuvib turish, ipak kiyimlar kiyish, kiyimlarni yuvib, tez-tez almashtirish bo‘lmasa ommaviy epidemiyalar oqibatida Turon xalqi qirilib ketgan bo‘lardi. Sharq xalqlarining turmushida shakllangan bunday estetik madaniyat namunalari salib yurishlari davrida Ovrupoliklar tomonidan qabul qilingan. Hammomda cho‘milish, ishton kiyib yurish, ovqatdan oldin va keyin qo‘l yuvish, ichki va tashqi kiyim kiyish, ularni almashtirib turish, ko‘rpa-to‘shaklarga choyshab qoplab, stol va kursidan foydalanish, stakon (ustixon) dazmol (utyuk) dan foydalanish, kolbasa (qo‘lbosti) ishlab chiqarish, soya uchun rangli shishalardan foydalanish, yopiq aravani, shamol va suv tegirmonini ishlatish kabi madaniy qadriyatlar Markaziy Osiyodan Ovrupaga o‘tgan.

Tabiiy muhit ovqatlanish madaniyatiga ham ta’sir qiladi. Ma’lumki, sovuq iqlimda inson organizmi o‘zidan energiyani ko‘proq ajratib chiqaradi, demak koloriyali ovqatlardan, shu jumladan, 4000 kilokollarriyaga ega bo‘lgan cho‘chqa go‘shtini iste’mol qilishga to‘g‘ri keladi. Aksincha, issiq iqlim sharotida odam organizmi kamroq energiya ajratib chiqaradi, demak, mu’tadil energiyali ovqat, ya’ni 3400 kilokollarriyaga ega bo‘lgan qo‘y go‘shtini iste’mol qilish joizdir. Agar cho‘chqa go‘shti iste’mol qilinsa organizmda modda almashinishi buziladi, badanga issiqlik toshadi, oshqazon buziladi va hokazo.

Tabiiy muhit axloqiy-estetik madaniyat va urf-odatlarga ham chuqur ta’sir o‘tkazadi. Ko‘pchilik marosimlar, rasm-rusumlar, to‘ylar, bayramlar tabiat jarayonlarining siklik holatlari asosida kelib chiqqan. Masalan, Navro‘z bahorgi teng kunlilik, yangi yil darchasi, ekin ekishning boshlanishini nishonlash bayramidir. Mehrjon - kuzda hosilni yig‘ib olish bayramidir. Qovun sayli, lola sayli, sust xotin, vahm angom kabi bayramlar ham xuddi ana shu tabiatning siklik, doiraviy aylanish jarayonlari asosida shakllangan estetik madaniyat ifodasidir. Odam hayoti ham siklik xarakterga ega. Tug‘ilgan kun, balog‘atga yetish, uylanish, farzand ko‘rish, payg‘ambar yoshi, vafot etish bilan bog‘liq barcha marosimlar tarixan shakllangan. Tabiatdagi siklik harakatlar asosida estetik obyektlar haqida tasavvurlar ham paydo bo‘lgan. Masalan, hafta yetti sayyoradan nishona, 12 oy o‘n ikki yulduzlar turkumiga ishora, taqvim quyosh va oyning siklik harakati asosida paydo bo‘lgan.

4. *Ma’naviy ehtiyojlarning axloqiy-estetik madaniyat taraqqiyotiga mos tarzda o‘zgarib borishi.* Bu qonuniyat madaniyatning funksional qonuniyatlaridan biridir.

Ma’lumki, ehtiyojlar rang-barang, ko‘p qirrali bo‘lib, doimo o‘sib boradi. Agar ehtiyojlarning ko‘p turliligi estetik madaniyat unsurlarining paydo bo‘lishini taqozo qilsa, ularni qondirilishi yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Shakllanayotgan yangi faoliyat turlari ayni paytda yangi ehtiyojlar tufayli vujudga

keladi. Shu ma'noda estetik madaniyat ham quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib boradi. Bir so'zo' bilan aytganda, moddiy-ma'naviy ehtiyojlarning uzviy o'sib borishi estetik madaniyat taraqqiyotining ichki manbasi, harakatlantiruvchi o'zagidir. Agar ehtiyojlar bir qolipa solinib dogmalashtirilsa, estetik madaniyat ham o'zgarmay qolaveradi. Aksincha insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari cheksiz o'zgarib, o'sib borar ekan, estetik madaniyat ham shunchalik cheksiz rivojlanib boraveradi.

5. Ijtimoiy tuzum bilan axloqiy-estetik madaniyatning aloqadorligi. Bu sivilizatsiyalar va madaniyatlar o'rtasidagi ichki, muhim, umumiyoq aloqalarni ifodalaydi. Ma'lumki, har bir ijtimoiy tuzum o'zining ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy munosabatlari, tafakkur tarzi, tabaqalar tuzilishi, mafkurasiga ega. Bu esa, o'z navbatida, muayyan estetik madaniyat tipini ham shakllantiradi. Bu qonuniyat har bir tuzumda o'zining spetsifik xususiyatlariga ham ega bo'ladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumida xususiy mulkchilik, sinflar, davlat yo'q edi, barcha jamoa a'zolari ishlab chiqarardi va mahsulot teng taqsimlanardi, urug', qabila esa o'zini-o'zi boshqarardi, ijtimoiy, axloqiy-estetik va diniy munosabatlar qon-qarindoshlikka asoslanar edi. Bu xususiyatlar muayyan estetik madaniyat tipini ham shakllantirgan edi.

Ibtidoiy estetik madaniyat quyidagi xususiyatlar bilan izohlanadi: birinchidan, u sinkretik, yaxlit xarakterga ega, ya'ni estetik madaniyat unsurlarga va sohalarga bo'linib ketgan emas, balki yagona, yaxlit bir ma'naviy qadriyat, madaniyatni tashkil qilardi; axloq, din, san'at, urf-odatlar va hokazolar ajralib chiqmagan edi; ikkinchidan, shunga binoan professional badiiy-estetik qadriyat yaratuvchilar (rassom, haykaltarosh, yozuvchi, shoir, musiqachi, raqqos, sozanda) bilan bu ne'matlarni «iste'mol» qiluvchilar ajralib chiqmagan edilar; madaniy qadriyatlarni yaratuvchilar ham, tarqatuvchilar ham, saqlovchilar ham, iste'mol qiluvchilar ham urug', qabilaning o'zi edi; uchinchidan, ma'naviy-axloqiy qoidalar, urf-odatlar, diniy va estetik tasavvurlar bir yoki bir necha urug' yoki qabila doirasida amal qilar, boshqa jamoalarga esa tarqalmas edi, ya'ni estetik madaniyat kuchli lokal ajralgan, turli etnik to'siqlar bilan chegaralanib, «orolchalarga» bo'lingan edi; to'rtinchidan, insoniyat tarixidagi bu ilk estetik madaniyat barcha tomonidan yaratilib, barchaga mo'ljallangan va barchaga xizmat qilgan edi; beshinchidan, mazkur sinkretik madaniyat bag'rida asta-sekin mehnat taqsimoti kuchaygan sari, odamlar ehtiyojlarining tarixiy rivojlanishi sababli madaniyatning turli sohalari paydo bo'ldi, estetik madaniyat inson bilan tabiat va jamiyat munosabatlarining zavqli ijodiy ko'rinishi tarzida shakllana boshladi.

Qulدورлик тузумда xususiy mulkchilik, sinflar, davlat, ekspluatatsiya, mulkiy tengsizlik kelib chiqdi va bu hodisalar estetik madaniyatning o'ziga xos

tipini vujudga keltirdi. Bu davr estetik madaniyati quyidagilarda aks etdi: a) bu jamiyatning estetik madaniyatiga bog‘liq ravishda siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, ilmiy madaniyat kabi yangi madaniyat unsurlari paydo bo‘ldi; b) bu davr estetik madaniyati professional va xalq estetik madaniyatiga bo‘lindi, estetik madaniyat arboblari (yozuvchi, rassom, musiqachi, haykaltarosh va hok.) bilan madaniyat namunalarini iste’mol qiluvchilar paydo bo‘ldi; v) madaniyat yaratuvchilar, madaniyat iste’molchilari va madaniyat homiylari vujudga keldi; g) estetik madaniyatning sinkretligi buzildi va madaniyat turli unsurlar va sohalarga bo‘linib ketdi.

Feodalizm jamiyatni ham estetik madaniyatda o‘zining chuqur izini qoldirdi. Bu davr estetik madaniyati – tabaqa va kastalar, boylar va kambag‘allar estetik madaniyatiga ajralish, Yevropada ritsarlik odatlarining (etiketining) vujudga kelishi, Sharqda dinning hukmron mafkuraga aylanishi, G‘arbda nasroniy va Sharqda muslimmon estetik madaniyatiga bo‘linib ketishi bilan xarakterlanadi. Lekin halq qaysi qit‘a va mamlakatda yashamasin, qaysi din va mazhabga ega bo‘lmasin estetik madaniyat bunyodkori va iste’molchisi bo‘lib qolaverdi. Bundan tashqari, bu davrda estetik madaniyatning umumbashariy jihatlari ham ko‘proq va kengroq ahamiyat kasb eta boshladi. Sharq sivilizatsiyasining jahon xalqlari madaniy-estetik taraqqiyotiga ta’siri kuchaya bordi. Masalan, Sharq sivilizatsiyasida allaqachon moddiy va ma’naviy-estetik qadriyat tusini olgan ovqatdan oldin qo‘l yuvish, tishni miskov bilan tozalash, hammomda cho‘milish, ishton kiyib yurish, ularni almashtirib turish, kiyimni dazmollash, g‘isht pishirish, shamol tegirmondan, usti yopiq aravadan foydalanish, qog‘oz tayyorlash singari insoniy odat va ishlab chiqarish madaniyati jahon xalqlari orasida keng tarqala boshladi.

Kapitalistik tuzum ham o‘ziga xos estetik madaniyat tipini shakllantirdi. Birinchidan, bu davrda texnokratik yo‘nalish avj olib, an’anaviy estetik madaniyat shakli va vazifalari o‘zgara boshladi. Yirik mashina ishlab chiqarish usuli fan, texnika, texnologiya kabi estetik madaniyat sohalarini rivojlantirishni zaruriyat qilib qo‘ydi. Shaxs tafakkuri ham, emotsiyal estetik madaniyat ham tobora ratsionallashib, nazariyalashib bordi. Ikkinchidan, kapitalizm jahon bozorini vujudga keltirib, barcha xalqlarni bir-biriga bog‘liq qilib qo‘ydi, buning natijasida alohida regional va lokal estetik madaniyatlarning integratsiyalashuv poydevoriga asos solindi. Uchinchidan, bu davrda turli elatlar va xalqlar millat bo‘lib birlashuvi natijasida milliy estetik madaniyatlar shakllanishi tezlashdi. Milliy estetik madaniyatlarning vujudga kelishi esa sivilizatsiyalar taraqqiyotiga yangi kuch-quvvat bag‘ishladi. To‘rtinchidan, kapitalizm, ayni paytda, estetik madaniyatning shunday sohalarini rivojlantirdiki (masalan, ommaviy qirg‘in qurollari, tabiiy muhitni zaharlovchi texnika va texnologiya va hokazolar), butun insoniyat

sivilizatsiyasining emas, yerdagi hayotni ham jar yoqasiga olib kelib qo‘ydi. Beshinchidan, ijtimoiy munosabatlар shu darajaga yetdiki, odamlar o‘rtasidagi oilaviy, shaxsiy, axloqiy, ma’naviy, estetik va boshqa munosabatlardagi an’anaviylik pul-tovar munosabatlari tizimi bilan almasha boshladi.

6. Shaxs axloqiy-estetik madaniyatining shakllanish xususiyati. Bu shundan iboratki, har bir shaxs muayyan madaniy muhitda dunyoga keladi, o‘sadi va shakllanadi. U milliy estetik madaniyat qadriyatlarini o‘ziga singdiradi, masalan, til, urf-odatlar, axloqiy qoidalar, bilimlar, muomala normalari, ishslash, dam olish, oila qurish uchun zarur bo‘lgan sifatlarni qabul qilib oladi. Albatta, har bir shaxs tanlash imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘z estetik ehtiyojlariga ko‘pincha mos keladigan madaniy qiymatlarni o‘zlashtirishga intiladi. Shaxs muayyan estetik madaniyat boyliklarini iste’mol qilish bilan chegaralanib qolmasdan, estetik madaniyatga faol ta’sir etib, uni o‘zgartirdi, rivojlantirdi. Buning uchun u yangi madaniy qadriyatlarni yaratadi. Masalan, Amir Temur, Bobur, Ulug‘bek singari davlat arboblarining, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Kaykovus, Alisher Navoiy, Nodira va boshqa allomalarining estetik madaniyatimizga qo‘shgan hissasi bunga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari shaxs madaniy qadriyatlarni o‘zida saqlab, uning obyekti bo‘lib qolmasdan, ularni boshqa shaxslarga tarqatadi va bu narsani ko‘pincha ta’lim-tarbiya, muomala vositasida amalga oshiradi. Ammo, shaxs estetik madaniyatning barcha jihatlarini o‘zida mujassamlashtira olmaydi, ularning hammasini kishilar orasida yoyishga ham imkoniyati yetmaydi, chunki u zamon va makonda, sharoit va imkoniyatlar bilan cheklangandir, estetik madaniyat esa cheksiz xarakterga ega. Jamiyat estetik madaniyatining shaxs tabiat, fikrlash va faoliyat turlariga ta’siri barcha davrlar va xalqlarda amal qiladi. Turli sabablarga ko‘ra hayvonot olamiga tushib qolgan odamlarda na til, na tafakkur, na axloq, na bilimlarning bo‘lmasligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Ijtimoiy muhit, an’ana va millatning tarixiy-ma’naviy tajribasi shaxs estetik madaniyatida belgilovchi rol o‘ynaydi. Bu narsa, o‘z navbatida, estetik madaniyatning milliy o‘ziga xosligini keltirib chiqaradi. Turli sivilizatsiyaga mansub bo‘lgan shaxslar, masalan, fransiz, ingliz, olmon, amerikalik, afrikalik, o‘zbek yoki tojik, qozoq yoki rus turlicha fikrlaydi, o‘zini tutadi, muloqotda bo‘ladi va hokazo. Shu bilan birga estetik madaniyatlar millatlar o‘rtasidagi umumbashariy insonparvarlik kayfiyatlarining tarkib topishi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Shaxsning yuksak estetik madaniyati uning umumbashariy qadriyatlarga sodiqligining ramzi, ko‘rinishidir.

7. Axloqiy-estetik madaniyatning vorisiylik qonuniyati. Bu qonuniyat eski qadriyatlар bilan yangi qadriyatlар orasidagi umumiyligi, ichki aloqalarni ifodalaydi. Odatda bu qonuniyat madaniy meros va zamonaviy estetik madaniyat o‘rtasidagi

aloqalar tarzida ko‘rinadi. Madaniy meros tushunchasi o‘tmish xalqlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmuini anglatadi. Vorisiylik qonuniyatiga ko‘ra, har bir yangi estetik madaniyat quruq joyda paydo bo‘lmaydi, u avval mavjud bo‘lib kelgan estetik madaniyat asosida yuzaga keladi, undagi muayyan qadriyatlarni qabul qilib oladi, ayrimlarini esa inkor etadi.

«Eski estetik madaniyat ko‘pincha an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, malaka va tajribalar, o‘tmishda yaratilgan qadriyatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Bu qiymatlar estetik madaniyatning qo‘lga kiritilgan yutuqlari shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichida o‘zlashtiriladi, qayta ishlanadi, boyitiladi va yanada taraqqiy ettiriladi. Estetik madaniyatning vorisiyligi qonuniyati ana shunda o‘z aksini topadi»⁷.

Madaniy meros o‘tmishda yaratilgan qadriyatlar yig‘indisi bo‘lsa, vorisiylik ana shu qadriyatlarning yangi estetik madaniyat bilan aloqasini aniqrog‘i o‘tish jarayonini ifodalaydi. Bu o‘tish jarayonida qadriyatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zgartirilgan holda qabul qilinishi mumkin. Masalan, musulmonlar azada janoza o‘qishining mazmuni va tartibini o‘zgartirmasdan amalga oshirib kelmoqdalar. Navro‘z bayramini nishonlashning tartibi va rasm-rusumlari esa o‘zgartirilib ijro etilmoqda. Ba’zi madaniy hodisalar esa umuman inkor qilinadi. Masalan, qalin olish, xun olish va boshqa o‘tmishdagi urf-odatlar hozirgi estetik madaniyatimiz tomonidan inkor etilgan hodisalardir.

Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy jarayonlarning siklik o‘zgarishlari asosida shaxs estetik madaniyatining qator tamoyillarini vujudga keltiradi. Bu tamoyillar estetik madaniyatning shaxs dunyoqarashi, ma’naviy qiyofasi, falsafiy tafakkurini yangicha taraqqiyot tarzi bilan uyg‘unlashtirib, jamiyatdagi ma’naviy, mafkuraviy, iqtisodiy, falsafiy, badiiy, estetik faollikni oshirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda jamiyatda shaxs estetik madaniyatining quyidagi tamoyillarini ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, shaxsning tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga keladigan estetik madaniyatlarni davr mafkurasi va g‘oyasiga asoslangan holda o‘zida aks ettirishi, uni kelajak avlodlarga yetkazib berishga asoslangan tarixiylik tamoyilidir. Har qanday milliy g‘oya yoki milliy mafkura bir daho yoxud allomaning o‘ylarida yetishgan fikrlar va faqat sof aql mahsuli bo‘lmay, balki jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik madaniyati, hayotining mahsulidir. Estetik madaniyat tabiat va jamiyat qonunlari kabi kashf etilmaydi, balki xalqning ongi, turmush tarzida ma’naviy dunyoning muhim jihatlari sifatida shakllanib boradi. Shuning uchun ham har bir milliy g‘oya o‘ziga xos va o‘ziga mos tarixiy-estetik mazmunga ega bo‘ladi.

⁷ Хайруллаев М, Шорохмедов Д. Маданият ва мерос. -Тошкент::Фан, 1973. – 15 6.

Ikkinchidan, shaxs estetik madaniyatning ijtimoiyligi shundaki, u jamiyatning barcha sohalari, qatlamlariga singib, shaxsning nafosat dunyosidan darak beradi va uning faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Shaxs estetik madaniyati jamiyatning barcha sohalarida namoyon bo‘lishi universal hodisa ekan, uni o‘rganish usullari, uslublari ham keng qamrovli, turlituman bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, shaxs estetik madaniyatining polifunksionallik tamoyili jamiyatdagi turli ijtimoiy vazifalarni bajarishda ko‘rinadi. Xususan, estetik madaniyat olamni o‘zgartirish, insonni tarbiyalash, borliqni bilish, ijtimoiy organizmni boshqarish, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ular amallarini nazorat qilish, fuqaroni himoya qilish, unga lazzat bag‘ishlash, tarixan shakllangan estetik madaniyatni avlodlarga yetkazib berish, amalga oshmagan va oshmaydigan istaklarning o‘rmini to‘ldirish kabi vazifalarni bajaradi.

To‘rtinchidan, estetik madaniyatning umumfalsafiy tamoyili markazida shaxsning borliqdagi o‘rni, uning tabiatga, jamiyatga va o‘ziga bo‘lgan munosabati masalasi turadi. Madaniyatsiz shaxs o‘zining hayotdagi o‘rni va ahamiyatini anglay olmaydi, tabiat va jamiyatga ongli, ijobiy va ijodiy munosabatda bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham madaniyat shaxsni tabiat va jamiyat bilan bog‘laydi hamda bu murakkab aloqani anglab yetishga, insonning olamdagи o‘rni va ahamiyatini tushunib yetishga imkon beradi. Estetik madaniyat bu yo‘lda cheksiz imkoniyatlarga ega.

Beshinchidan, shaxs estetik madaniyati dunyoni anglab yetishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Inson nimaga dunyoga keladi, u qanday yashaydi, yashashdan maqsad nima, u nimalarga qodir singari savollarga javob topishda shaxs estetik madaniyatining ahamiyati katta rol o‘ynaydi, chunki madaniyat o‘z vositalari yordamida mazkur muammolarni yechish yo‘llarini ishlab chiqadi va taklif etadi.

Oltinchidan, shaxs estetik madaniyati ma’naviy qadriyatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy qadriyat esa o‘z tabiatida millat va mamlakatning umumbashariy madaniyatdagi ulushi, hissasi sifatida estetik ahamiyat kasb etadi.

Yettinchidan, shaxs estetik madaniyatida globallashuv tamoyilining ham ahamiyati katta. Unda turli xil madaniyatlarning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri, aloqlari, uyg‘unlashishi, integratsiyalashuv jarayoni ham aks etadi.

Sakkizinchidan, shaxs estetik madaniyatiga siklik (davriylik) xususiyati xos. Chunki sivilizatsiyalar ham butun borliq kabi o‘z boshidan siklik jarayonlarni kechiradi. Sivilizatsiyalar ma’lum bir davrda muayayn mintaqada paydo bo‘ladi, turg‘unlik va taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechiradi yoki o‘rnini boshqa sivilizatsiyalarga bo‘shatib bergeniday, shaxs estetik madaniyati ham o‘zgarib, bir

bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tib boradi⁸. Uning shakl va amaliyotida turli jihatlar, turli tamoyillar namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, shaxs estetik madaniyatining shakllanish tamoyillari jamiyat rivojlanishida o‘zining yangicha qiyofasi, mazmun va mohiyati bilan estetik ong va faoliyatning xilma-xilligini vujudga keltirib, voqelikka bo‘lgan zavqiy munosabatlarni boyitib boradi.

1.3. O‘zbekiston ta’lim tizimining axloqiy-estetik mazmuni.

Bugungi kunga kelib etika va estetika fanlarining tadqiqot sohasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarda, jumladan, sog‘liqni saqlash tizimida – tibbiyot estetikasi va bioetika, ekologiya sohasida – ekologik estetika va axloqiy muhit, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn) va axloqiy makon kabi sohalarning yuzaga kelgani shular jumlasidandir. Jamiyatda ma’naviyatni yuksaltirishni esa “Etika” va “Estetika” fanlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zotan, Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida farzandlarimizni milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelganligi, bu masalaga e’tibor bermaslik butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishi mumkinligi alohida qayd etiladi.

Aytish mumkinki, estetika insonning kundalik hayotiga g‘oyatda yaqin bo‘lgan fan hisoblanadi. Chunki, hozirgi tahlikali zamonada yashayotgan har bir odam go‘zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egasi bo‘lishi, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay olishi, «ommaviychilik san’ati»ning g‘ayri axloqiy xususiyatlarini rad qila bilishi lozim. Shuni xulosa qilgan jahoning klassik universitetlari ta’limda estetik bilimni mustahkamlashga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Jumladan estetika bo‘yicha Garvardda (AQSH) 3 ta markaz, 18 ta yo‘nalishda (bu yo‘nalishda estetika sohasiga doir 46 ta fan o‘qitiladi) ilmiy tadqiqot hamda ta’limiy ishlar olib borilmoqda. Oksfordda (Angliya) “Estetika” fakulteti tashkil etilgan bo‘lib, fakultetda shu sohaga doir 66 ta, Prinston universitetida (AQSH) “Estetika” kafedrasida 30 dan ortiq fan mavjud. Daniyada esa maxsus “Estetika” universiteti bor. Mazkur universitetlar hozirgi paytda jahon oliy ta’lim muassasalarining reytingida kuchli o‘ntalikning ichida turibdi. Bundan tashqari, Avstriya, Kanada, Angliya, Germaniya, Gretsiya, Hindiston, Isroil, Eron, Italiya, Niderlandiya, Shvetsariya, Shotlandiya, Norvegiya, Shimoliy Afrika davlatlarida “Etika” va “Estetika” markazlaridan tashqari, oliy ta’lim muassasalarida “Etika” va “Estetika”

⁸ Мадиримов Р.М., Мадиримова М.С. Маданиятни тадқиқ қилишнинг методологик муаммолари. // Фан ва илмий ижодиёт методологиясининг муаммолари. -Самарқанд, 1998. -Б. 120-124.

nomi bilan alohida kafedralar faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, mamlakatimizda O'zbekiston Milliy universitetining Ijtimoiy fanlar fakultetida "Etika va estetika" kafedrasi faoliyat olib bormoqda.

Ma'lumki, ta'lim tizimi barcha davrlarda ham davlat siyosatining asosiy bo'g'ini va jamiyatning manaviy kamoloti, yertangi kelajagini belgilab beradi. Shuning uchun ham istiqlolning ilk davrlaridan boshlab milliy ta'lim tizimini ishlab chiqishga katta urg'u berilib amalda bu borada qonun va dasturlar qabul qilindi. Horijiy davlatlar e'tirof etayotgan bugungi ta'limdagi yutuqlarimiz olib borilayotgan amaliy Harakatlarning mevasidir. Milliy ta'lim tizimining joriy etilishi o'quvchitalabalarda faqat ma'lum fan sohasi bo'yicha o'qitib bilim berish bilan chegaralanib qolmay ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va estetik didini ham shakllantirishdan iborat. Ularning bilimi, intilishlari va imkoniyatlari bizdan behad darajada yuqori bo'lishini, halollik va poklik xislatlari, savob ishlarni qilishga intilib yashashlari hayotlari tarziga aylanishini orzu qiladi. Zero, yoshlarimizning axloqiy-estetik kamolotida umumbashariy yutuqlarni egallash, tariximiz, madaniyatimiz va buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosning ahamiyatini tobora chuqurroq anglash va uni taxlil qilib xayotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va 1997 yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishi va hayotga tadbiq qilinishi ushbu muhim sohada chuqur islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotining shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik hamda madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor sohasi sifatida qonunan belgilab qo'yildi va asosiy e'tibor shaxsning kamolotiga qaratildi.

Globallashuv davri o'zi bilan ijobiy yangiliklar bilan birga milliylikka havf soluvchi unsurlarni ham tashiydi. Shuning uchun globallashuv jarayonida axloqiy-estetik bilimlar ijtimoiy-ma'naviy zaruriyatga aylanishi kuzatilmoqda. Chunki yoshlarning globallashuv taqdim etayotgan keng imkoniyatlardan foydalanishdagi qoidalarni chetlab o'tayotgani o'larni birmuncha milliylikdan begonalashuviga olib kelishi noto'g'ri yo'llarni o'zlarida qo'llashi axloqiy-estetik bilimlarning dolzarbligini yana bir bor namoyon etadi.

Mamlakatdagi ta'lim-tarbiya tarixi va taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan asosiy voqeа 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tizimga yangicha ruh va yo'nalish bag'ishladi, deya aytish mumkin. Maqsadli ta'lim asosida kadr tayyorlanishi tufayli ta'lim tizimi 7 bosqichga bo'linib undagi samaradorlik va kadrlarni kasbga yo'naltirish muvafaqiyatli amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda ta'lim asosida olib boriluvchi tarbiya jarayoni ham samarali amalga oshirilmoqda. Chunonchi, o'rta

maxsus ta’lim tizimida “Odobnoma”, “Tasviriyy san’at”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi”, “Musiqa”, “Ma’naviyat asoslari”, “Madaniyatshunoslik”, “Estetika” fanlari asosida estetik va axloqiy tarbiyani boyitishga e’tibor berilmoqda.

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki bиринчи navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir. Mazkur tamoyil xalqning axloqiy-estetik tarbiyasi nafaqat individual, balki mamlakatning saviyasini ham belgilaydi. Shu ma’noda, mazkur bobda estetik va axloqiy bilimlar o‘zbekiston ta’lim tizimining asosi bilan bog‘liq masalalar ilmiy taxlil qilinadi.buning uchun avvalo bilim nima, uning mohiyati va mazmuni nimadan iborat, undan so‘ng estetik va axloqiy bilim nima, uning mazmuni, talqini, zaruriyati va ahamiyati qanday kabi masalalarga alohida to‘xtalib o‘tishimiz kerak.

“Bilim — ijtimoiy-tarixiy, amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi; shu voqelikni inson ongida tasavvurlar tushunchalar, muhokama va nazariyalar orqali ifodalangan adekvat in’ikosi. Kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma’lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqeа va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi.”⁹ O‘z o‘rnida bilim fanda shakl va smohalarga xam bo‘lib o‘rganiladi.

Estetik bilim chuqur va barqaror estetik qiziqlichlarni hosil qilishi mumkin. O‘quvchidagi estetik bilim uni estetik faol bo‘lishga, faoliyatini namoyon qilishga tayerlaydi. Shaxs asta-sekin tevarak-atrofni go‘zallik qonunlari asosida o‘zgartirishga, go‘zallik yaratishga harakat qiladi, chunki inson go‘zallikni nafaqat mushohada etadi, balki uni yaratadi ham. Estetik jihatdan tarbiyalangan odam xayotni go‘zal qilishga intiladi, estetik tomondan faol bo‘ladi. Shaxsning estetik faolligi xayotda go‘zallik yaratishda egallangan estetik ko‘nikmalarida: chiroyli, bejirim kiyinishida, madaniy muomalasida, o‘zini tuta bilishida, oila va ishda estetik muhitni yaratishida namoyon bo‘ladi.

Kuzatishlarimiz natijasida nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida o‘quvchi-talabalarda quyidagi holatlar ko‘zga tashlandi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo‘lish;
- estetik tuyg‘uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go‘zalliklarini his etishi;

⁹ «Фалсафа қомуси» Ўзбекистон 2010 й.

- go‘zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko‘rinishda go‘zal bo‘lishga intilish.

Axloqiy bilim mohiyatiga ko‘ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy meyor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘u va xislatlarni shakllantirish, o‘quvchi-tadabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

1.4. Oliy ta’limda etika va estetika fanlarining o‘qitilish holati.

Etika va estetika fanlarini o‘qitishga yangicha yondoshuvlar.

Etika fani bugungi kunda:

1. (Moskva davlat universitetining Etika kafedrasida) Falsafa fakultetida jami 48 soat
2. Televideniying oliy maktabi fakultetida – “Etika” fani
3. Politologiya fakultetida – “Siyosiy etika” fani
4. Sotsiologiya fakultetida - “Ishbilarmon muomalasi etikasi” fani
5. Oliy tarjima maktabida - “Tarjima va diplomatik protokol etikasi” fani o‘qilib kelmoqda.

Keyingi 5 yilda o‘qilayotgan maxsus kurslar:

1. «Antichnaya etika»; «Etika Aristotelya»; "Aktualniye problemi etiki", "Negativnaya etika" (akademik RAN, professor A.A. Guseynov) - 40 chasov
2. "Normativnaya etika", "Istoriya etiki Novogo vremeni", «Filosofiya lyubvi», (professor R.G. Apresyan) - 48 chasov
3. «Biomeditsinskaya etika»; «Professionalnaya etika» (professor A.Y. Ivanyushkin) - 30 chasov
4. «Nrvavstvenniye osnovaniya lichnostnogo bitiya», "Etika globalnix problem" (professor A.V. Razin) - 30 chasov
5. «Stoicheskaya traditsiya v etike», "Moralnaya filosofiya Drevnego Rima", "Etika zaslug i etika blagodati A. Avgustina", "Etika B. Spinozi", "Ponyatiye straxa" (dotsent A.G. Gadjikurbanov) - 66 chasov

6. "Etika delovix otnosheniyi", "Etika biznesa" (dotsent T.I. Poroxovskaya) - 30 chasov
7. «Proisxojdeniye morali» (D.S. Akimova) - 30 chasov

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston ta'lim tizimida axloqiy va estetik bilimlarning o'rnini belgilash uni oshirishda tizimdagagi o'zgarishlar qabul qilingan qonun, dastur va ular asoda qabul qilingan meyoriy hujjatlarning tarkibida ham e'tibor qaratilgan muhim jihat axloqiy madaniyatning eng yuksak namunasini o'zida jamlagan, estetik did, go'zallik va nafosatda milliylikni bilan birga zamonaviylikni uyg'un anglay va qo'llay biladigan kadrlarni tayyorlash ularni ishlab chiqarish va jamiyatning turli jabhalaridagi qaynoq nuqtalarga yetkazish kelajakdagi asosiy maqsad hisoblanadi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning axloqiy va estetik mohiyati.

Mamlakatimizning mustaqillik yillarda erishgan yutuqlari, jahon hamjamiatining munosib va teng huquqli a'zosi sifatida mustahkam o'rin egallashiga keng yo'l ochib berdi. Istiqlolning birinchi kunlaridanoq mamlakatimiz taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan ustuvor masalalar qatorida yoshlar tarbiyasiga, xususan, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga ham katta ahamiyat qaratildi.

Mustaqillik davrida bu kabi masalalar bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda ularning natijalaridan pedagogik faoliyatda keng foydalanimoqda. Ayniqsa, bugungi va ertangi kunimizning, mamlakatimiz taraqqiyotining asosi bo'lgan, xalqimizning barcha orzu intilishlarini, maqsadlarini hayotimizda amaliy ro'yobga chiqaradigan serqirra, har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash masalasida qilinayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqidir. O'zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Aql – zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”¹⁰ degan fikrlari mamlakatimizda ta'lim va tarbiyani yanada yuksak darajalarga ko'tarishdek vazifalarni oldimizga qo'yadi.

Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 27 avgustdagagi IX sessiyasida qonuniy zamin bo'lgan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi. Dunyoning ko'plab mutaxassislari tomonidan e'tirof qilinayotgan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” mamlakatimizga yuqori saviyali kadrlar tayyorlab berish bo'yicha uzoq va davomli maqsad – manfaatlarni o'zida aks ettiradi. Har bir tashkillashtiriladigan ishlar puxta tuzilgan reja asosida, samarali tarzda olib borilishi bilan bir qatorda ijobjiy natija berilishiga ham katta ahamiyat qaratishimiz lozim. YA'ni har bir qiladigan harakatimizdan

¹⁰Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халкни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. Тафаккур. 2-сон. 1998-й.

yaxshi natija chiqsin. Ushbu natijalar inson manfaatlari uchun xizmat qilsin. Shu bilan birga jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shsin. Bu kabi vazifalarni amalga oshira oladigan islohotlar ko'plab topiladi, ammo ularning orasida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" alohida o'rinni tutadi. Dasturda bu boradagi fikrlarga alohida e'tibor berilib, maqsadga milliy va zamonaviy ruh bag'ishlanadi. "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy hulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida. Zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir."¹¹

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiyligi va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Ma'lumki, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» 5 ta bo'limdan iborat bo'lib, unda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari, dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, dasturni ro'yobga chiqarishga oid chora-tadbirlar belgilab berilgan. Har bir tayyorlanayotgan kadr o'z salohiyati va faoliyat turidan kelib chiqib mutaxassislik sohasining to'laqonli egasiga aylanishi uning amaliy faoliyatida yutuqlarga erishishiga olib keladi. Shu davrgacha amalda bo'lgan tizim kamchiliklari, endilikda ularga yo'l qo'ymaslik ham dasturdan ko'zlangan maqsadni ayonlashtiradi. "O'quv jarayoni bilim darajasi o'rtacha bo'lgan mo'ljallangan bo'lib, ta'limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o'quv dasturlari bilan ishslash kabi mexanizmlaridan yaxshi foydalanimayapti. O'quv dasturlari mafkuraviy sarqitlardan to'liq holi bo'lganicha yo'q ularda ma'naviyat va axloq asoslarini o'rgatuvchi, iqtisodiy, huquqiy, estetik bilimlarni beruvchi fanlarga yetarlicha o'rinni berilmayapti."¹² Bugunga kelib bu fikrlar yuzasidan bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilib ta'lim tizimi eski asoratlardan tozalanishiga muvaffaq bo'linmoqda. Bu borada sohaga dahldor barcha mutaxassislarning fikrlari va

¹¹Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. "Шарқ" 1998 й.

¹² "Таълим тўғрисида"ти Конун. Т.: Шарқ, 1997. Б.37

tajribasidan unumli foydalanimoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ustoz, muallim, o'qituvchi zimmasiga eng muhim vazifa - jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi yuklatilgan. Har bir jamiyatda ham pedagog, o'qituvchi, tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan. Ayniqsa, bizning mustaqil yurtimizda o'qituvchiga hurmat-e'tibor va unga qo'yilgan mas'uliyat ham nihoyatda oshib bormokda. Bu o'rinda respublikamizda 1 oktabrni «Ustoz va murabbiylar kuni» deb e'lon qilinganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Ma'lumki, «shaxs va davr» yoki «davr va shaxs» munosabati muammolari tahlilida uchta holat bo'lishi mumkin:

Birinchidan, shunday shaxslar bor - ular davr bilan hamnafas, o'zi yashagan zamonning yalovbardori sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinci toifa shaxslar o'z davrining ruhi, maqsad va vazifalarini anglay olmaydi, ya'ni zamondan orqada qoladi.

Uchinchi toifa insonlar yetakchilar sanalib, ular voqelikdan o'zib ketadi, ayni paytda o'z davrining ruhini chuqur his etadi va anglaydi. Bunday shaxs hayotiy qarashlari, g'oyasi va faoliyat yo'nalishida keljakni ko'ra oladi. Shunday qilib, milliy dasturdan ko'zlangan maqsadlar juda ko'p. Avvalo, bu maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamlakatimizdagи ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zgarishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs komil insonlar vujudga keladi.

Milliy dasturda ko'zlangan maqsadlarga erishishi ta'lim-tarbiya tizimidagi ishlar samarasiga va avvalo, o'qituvchiga ham bog'liqdir. O'z davrining ruxini chuqur anglagan, keljakni ko'ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilarning bosh vazifasidir. O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rmini ongli intizom egallashiga erishmog'imiz darkor. O'qituvchining bosh vazifikasi: o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ularda tafakkur qirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muxim ta'limiy-tarbiyaviy ish bo'lib hisoblanadi.

Bunday murakkablashib borayotgan jamiyatda har bir shaxs o'z iste'dodi va mahoratini ko'rsata olmasa, fikrlash tarzi va tafakkuri zamon bilan ham nafas bo'lmas ekan uni barkamol inson darajasiga ko'tarib bo'lmaydi. Umuman, hamma zamonlarda ham yetuklikning asosiy shartlaridan biri avvalo bilim va hunar, yuksak fazilatlar egasi bo'lish bilan belgilanadi.

Bu kabi shartlarni ado etish uchun yoshlarga keng imkoniyatlar hamda qulayliklar yaratib berilgan. O'zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov "Bugungi kunda taraqqiy topgan davlatlar ilmiy jamoatchiligining e'tibor markazida turgan, eng ilg'or, istiqbolli ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarini yurtimizda rivojlantirish maqsadida Fanlar akademiyasi va oliy o'quv yurtlari tarkibida yangi

laboratoriyalarni tashkil qilish, ularning rivojlangan mamlakatlardagi ilm-fan markazlari bilan samarali hamkorlik aloqalari o‘rnatishiga erishishimiz kerak” - degan edilar. Yevropa, AQSH, Rossiya, Koreya, Yaponiya va boshqa bir qancha mamlakatlardagi oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa ta’lim olish samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qancha qulayliklar yaratilishini ta’minlab beradi. Nafaqat bizning talabalar chet davlatlarga borib o‘qishadi, balki chet davlatdan ham bir qancha talabalar kelib bizning oliy o‘quv yurtlarimizda tahsil olib, malakalarini oshirib ketishmoqda. Birgina “Magistratura to‘g‘risida Nizom”ning o‘zida xorijiy fuqarolarga ham yurtimizda tahsil olishga qanchalik keng imkoniyat yaratib berilganligi aytib o‘tilgan. Xorijiy fuqarolar yurtimizda tahsil olishni “Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan hamda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Davlatimizning Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilab berilgan oliy ta’lim sohasiga, yetuk kadrlar tayyorlash masalasiga bo‘lgan e’tiborning yorqin ifodasi bo‘lgan bunday yangiliklar yoshlarning yanada chuqurroq bilim olishi, kelgusida yuksak ma’naviyatli, har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Yoshlarni kamolga yetkazish ta’lim tizimida axloqiy va estetik bilimlar orqali amalga oshadi, ularning ijtimoiylashuvi esa insonni bevosita hayotga va vogelikka yaqinlashtiradi. Shu o‘rinda “ijtimoiylashuv-inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o‘zlashtirilishi jarayoni” ekanligini nazarda tutsak tushunchaning ahamiyati oydinlashadi. Ijtimoiylashuv - inson tomonidan kishilik madaniyatining, xususan axloqiy-estetik madaniyatning o‘zlashtirib borilishi jarayoni sifatida ham talqin etilishi mumkin. Madaniy muhitga moslashish jarayoni sifatida ijtimoiylashuv insonning butun umri bo‘yi davom etadi, biroq bu jarayon bolalik davrida boshlanadi. Mazkur davrda bola axloqiy-estetik qadriyatlarni o‘rganish jarayonidan uzib qo‘ysa, ijtimoiylashuv jarayoni to‘xtab qoladi. Insonning axloqiy-estetik qadriyatlarni o‘zlashtirishi jarayoni uning individualligining shakllanishi bilan hamohangdir. Bunda asosan ta’lim tizimining o‘rni beqiyos negaki, yuqorida aytiganidek shaxsning shakllanish jarayonining asosiy davri ta’lim olish vaqtiga to‘g‘ri keladi. Shularni hisobga olgan holda dasturi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish

mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.”¹³

Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari:

Maqsad: ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir;

Vazifa: ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

Dasturni ro‘yobga chiqarish bosqichlari: ta’lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma’naviy-axloqiy saviyasini sifatiga nisbatan qo‘yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish.

Dasturning qabul qilinishi huquqiy ahamiyat bilan birga milliy ta’lim va tarbiya tizimimizda yangicha qadriyat sifatida ham qaralishi mumkin. Dasturning boshlanishidan unga asos bo‘lgan meyoriy hujjatlar bilan birga milliy tajriba, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyati, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil xulasa chiqara oladigan, yangicha tafakkurga ega bo‘lgan, nafaqat mamlakat hayotida balki dunyo tajribasiga ijobiy ta’sir o‘tkaza oladigan, milliy axloqning yuksak namunalarini olib chiqish darajasidagi, estetik did va tafakkurda ustun bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir. “Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagи sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.”¹⁴ Bu bilan biz faqatgina ta’lim tizimida kadr tayyorlash emas mamlakat fuqarolarini etishtiruvchi mukammal jarayon ekanligini unutmasligimiz kerak.

Kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari:

Milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi;

Vatanparvarlik, o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usini shakllanayotganligi;

Boy milliy, madaniy-tarixiy an’analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli:

Shaxs - Kadrlar tayyorlash sohasidagi Davlat siyosati insonni intellektual va

¹³ Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. “Шарқ” 1998 й. 34 б.

¹⁴ Ўша манба. 34 бет

ma’naviy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzlucksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ro‘yobga chiqariladi;

Uzlucksiz ta’lim - Uzlucksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

Uzlucksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari - ta’limning ijtimoiylashuvi-ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrleshni shakllantirish.

Maktabdan tashqari ta’lim: Bolalar va o’smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish ularning bo‘sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy, estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etadilar.

Oliy ta’lim: uzlucksiz ta’lim - malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’limning insonparvarlik yo‘nalishida bo‘lishini ta’minalash hamda yoshlarni milliy istiqlol mafkurasi va umuminsoniy qadriyatlar asosida, Vatanga, jamiyatga, oilaga va tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash;

O‘zbek xalqi uchun tarbiya azaldan birlamchi qadriyat sifatida ulug‘lanib kelingan, shuning uchun farzand tarbiyasiga hali u tug‘ilmasidan boshlab kirishilgan. Hozirgi kunda ham bu jarayon davlat tomonidan rag‘batlantirilib borilmogda. Maktabgacha tarbiya maskanlaridagi bolaning har qanday imkoniyat darajasi faqat uyda tarbiyalangan boladan ancha yuqori bo‘lishi ma’lum. Shu sababdan bu tizimning rivojiga ham alohida sharoit hozirlangan. “Maktabgacha ta’lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog‘chalari hamda «bolalar bog‘chasi-maktab» majmui tarmog‘i rivojlanib bormoqda. Bolalarga chet tillarni, xoreografiya, tasviriy va musiqa san’ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o‘rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etilgan.” Bugun nafaqat bolalar bog‘chalarida balki, shu maqsadga yo‘naltirilgan uylarda tarbiya jarayoni tashkil qilinmoqdaki, uning samarasi ko‘zga ko‘rinib bola nafaqat axloqiy va estetik tarbiya balki boshlang‘ich bilimlarga ham ega bo‘lib o‘rtalig‘inga yetkizilmoqda. Deydilarki, bola oq qog‘ozga o‘xshaydi unga qanday chizgilarni chizsang, shularni

o‘zida namoyon etadi. Bolaning chiroyli axloq yuksak, did egasi bo‘lib shakllanishi ayni shu davrga to‘g‘ri keladi. Negaki, bog‘chada bolaning ko‘proq tarbiyaviy jihatini o‘stirishga harakat qilinadi, tarbiya bo‘lsa odob-u axloqdan, husni xulqdan iborat.

Shu bilan birga ta’limning o‘rta bo‘g‘inida ham davlat dasturi asosida rejalahtirilgan maqsadli kadrlarning boshlang‘ich ta’lim tarbiyasi olib boriladi. Ayni ko‘zlangan maqsad ya’ni maqsadli kadr masalasiga dasturda tanqidiy yondashuv bilan to‘g‘ri tahlil beriladi. Shu davrgacha amalda bo‘lgan tizim orqali biz juda ko‘p kamchiliklarga duch keldik, bu ayniqsa ta’limdagi uzluksizlikning yo‘qligi oqibati deb ko‘rsatildi. Maktablarni bitirib chiqayotgan o‘quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolayapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik shakllanmay qolayotgani ta’kidlanadi. “9-11 sinflarni tamomlagan yoshlar mustaqil hayotda o‘z o‘rnini aniqlay olmaydi. Ularda o‘zlariga ishonch shakllangan emas, o‘rta maktab bitiruvchilarining 10 foizigina oliv o‘quv yurtlariga o‘qishga kirmoqda, xolos.”¹⁵ Bu esa qolgan 90 foiz bitiruvchilarning kelajagini so‘roq ostida qoldiradi. O‘n bir yillik umumiy o‘rta ta’limdagi kamchiliklarni hisobga olib uni ilmiy asoslanmagan deb topildi, “u o‘quvchilarda kasbga yo‘naltirish va ta’limning amaliy yo‘nalganligi yetarli darajada bo‘lishi hamda mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyati ko‘nikmalari shakllanishini ta’minlamayapti. Har yili tayanch maktablarning 100 ming nafarga yaqin bitiruvchisi ishlab chiqarish sohasida hamda kasb-hunar ta’limini davom ettirish uchun talab etilmay qoldirilmoqda.”¹⁶ Oqibatda mamlakatda turli ijtimoiy muammolarning kelib chiqishi 1990 yillarda bo‘lgani kabi 1 mln. kadrning o‘z mutaxassisligi doirasidagi ishni topa olmasligi singari muammolarni hosil qiladi.

Ta’lim tizimidagi uzluksizlikning va vorislikning yo‘qolishi maktab bitiruvchilarining hech qanday kasbga ega bo‘lmay qolishi, mehnat faoliyati ko‘nikmalari shakllanishidagi kamchiliklarga axloqiy quşrlarning tarbiyalanmay qolishiga olib keladi. “Natijada yigit va qizlar o‘z qobiliyatları, istaklari, ijodiy va mehnat moyilliklariga monand hayot yo‘lini belgilab olishda jiddiy qiyinchiliklar sezmoqdalar.” Ilmiy va ijodiy qobiliyatlar va istaklarning rag‘batlantirilmasligi yoki, unga talabning yo‘qligi, mehnatga moyillik shijoat yetarli bo‘lgan holatda mavjud emasligi millatning katta yo‘qotishiga yoki adolatsizlikka olib kelishi mumkin. Bugun yangicha ko‘rinishda tashkil etilgan tizim o‘zining “ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar”¹⁷ yaratishi bilan

¹⁵ Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. “Шарқ” 1998 й. 37 б.

¹⁶ Ўша манбаа 37 б.

¹⁷ Ўша манбаа 43 б.

ahamiyatlidir. Uzluksiz ta’limda shakllanayotgan kadr yoki iste’dod egasi bevosita keyingi bosqichda o‘z o‘quv va ijodiy faoliyatini davom ettiraverishi mumkin. Ta’limning yana shunday bosqichlari borki ularda ta’lim va tarbiyaning axloqiyestetik kamolotning erkin va mustaqil ta’lim asosida shakllanishini ko‘rish mumkin, bu esa o‘z o‘rnida ijodkorlik yerkin tafakkur, qobiliyatning namoyon bo‘lishiga olib keladi. “Bolalar va o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda mактабдан ташқари давлат ва nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etadilar.

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish”¹⁸ mактабдан ташқари ta’limning maqsadga yetishuvini ta’minkaydi.

Etika va estetika fani mashg‘ulotlarining didaktik tamoyillari.

Etika va estetika faniga doir didaktik manbalari haqida quyidagilarni ta’kidlash maqsadga muvofiq:

Musulmon sharqida etika va estetika faniga oid didaktik manbalar

Abu Nasr al Forobiy	Fozil odamlar shahri
Abu Ali Ibn Sino	Donishnoma
Kaykovus	Qobusnoma
Sa’diy Sheroyziy	Guliston, Bo‘ston
Yusuf Xos Xojib	Qutadg‘u bilig
Ahmad Yugnakiy	Hibat ul-haqoyiq
Imom al-Buxoriy	Al adab al-mufrad
Abdurahmon Jomiy	Bahoriston, Guliston
Alisher Navoiy	Mahbub ul qulub
Husayn Voiz Koshifiy	Axloqi muxsiniy;
Didaktikaning G‘arb tafakkuridagi rivoji	
Komenskiy Y. - «Buyuk didaktika».	

Pestalotssi va Disterverg - doimo predmet yoki fanning inson ongida anglanishi jarayoniga, predmetning mohiyati va mazmunini tushunish qanday sodir bo‘lishiga va qanday o‘zlashtirilishiga, shakllanishiga katta e’tibor berdi.

Gerbart - bilish jarayonining mohiyati va manbalariga, bosqichlariga,

¹⁸ Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. “Шарқ” 1998 й. 51 б.

bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlar masalasini o‘rgandi.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta’limda etika va estetika fanlarining o‘qitilish holati haqidagi fikringiz.
2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to‘g‘risidagi qonun haqidagi fikringiz
3. Bugungi kunda estetika fanini o‘qitilish holati haqidagi fikringiz.
4. Axloqiy-estetik madaniyat deganda nimalarni tushunasiz? Uning shaxsga qanday aloqadorligi bor ?
5. Ta’lim tizimining axloqiy-estetik muhitga ta’siri deganda nimalarni tushunasiz?.
6. Yoshlar tarbiyasida milliy ma’naviy kamolotning tadrijiy rivoji haqidagi fikringiz.
7. Ta’lim tizimidagi axloqiy-estetik fanlar muhim asos sifatida nimalarni aytib bera olasiz?
8. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil qilish tartiblarini izohlab bering.

2-мавзу. XXI асрнинг глобал ахлоқий ва эстетик муаммолари: ахлоқий, экологик ахлоқ, этосфера. инсон шахсидаги иллатларнинг пайдо бўлиш оқибатлари унинг жамият ривожига таъсири. (2-соат)

РЕЖА:

- 2.1 XXI асрнинг глобал ахлоқий ва эстетик муаммолари.
- 2.2. Ахлоқий, экологик ахлоқ, этосфера.
- 2.3.Инсон шахсидаги иллатларнинг пайдо бўлиш оқибатлари унинг жамият ривожига таъсири
- 2.4.Интернетнинг ахлоқий-эстетик тафаккурни ўзгаришига таъсири.
- 2.5. Тиббиёт эстетикаси ва биоэтика.

Tayanch iboralar:

Kompyuter texnologiyalari, etika, axloqiy muxit, Axloqiy tarbiya, san'at, musiqa, kino, teatr, ommaviy madaniyat, xeppi, komiks, starizm,internet, kitch, emo, gotika, seriallar, adabiyot, musiqa, reklama. global muammo, biologik axloq, bioetika, paternalizm, abort, o'lim jazosi, ksenotransplantatsiya, transplontatsiya, ksenotransplantat, evtonaziya, klonlashtirish.

2.1. XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari.

Kompyuter texnologiyalari paydo bo'lishi bilan insonlar o'rniga robotlardan foydalanish hamda robotlarga odamlarning munosabati muammolari ko'ndalang bo'ldi. Shuningdek jahon oziq-ovqat va xom ashyo resurslarini taqsimlash, aholining o'sishi singari muammolar ham mavjud. Shuning uchun ham etikaga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Yana bir sabab – tabiiy muhitga insonning aralashishi natijasida global halokatlar xavfining kuchayishi. Mazkur muammo noan'naviy yechimlar topishni talab qiladi. Yangi muammolar, muammolarning yangi ko'lami yangicha yechimlarni taqozo etadi.

Etika oldida qator global muammolarni ham qilishidek o'ta muhim vazifalar ham bor. Ulardan biri va birinchisi ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan texnikaviy bosimni bartaraf etish. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng yangi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, SUV osti va SUV ustilari, eng yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalari va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'1 bilan-biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. Shuningdek, biologik axloq, ekologik axloq, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

Axloqiy muhit. Amaliy etikaning hozirgi kunda umumjahoniylar global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog'liq.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX

asrda u o‘z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o‘z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - yeymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poyezd, teploxd, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko‘rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo‘lsak, necha kunlab yo‘l bosishimiz kerakligi haqida o‘ylab o‘tirmaymiz, to‘g‘rirog‘i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o‘zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta’sir ko‘rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta’limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta’siri ostida biosfera yangi holat bo‘lmish noosferaga o‘tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o‘z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o‘zgarishga kirishganini ta’kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o‘zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig‘ini, uning barcha tabiiy suvlarini o‘zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyusion o‘zgarishlarni boshdan kechiriyapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz». ¹⁹

Ana shu nuqtadan tafakkur o‘zi nima degan muammo paydo bo‘ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o‘zgartira oladi? Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan yechilishi topgan emas»²⁰.

Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o‘sha–o‘sha, hol etilmagan.

Xo‘sh, tafakkur o‘zi nima? U biologik hodisa bo‘lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug‘iladi, lekin tug‘ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o‘xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo‘ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo‘lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Nega? Bizningcha, noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o‘z intellektimiz narsalarga

¹⁹ Вернадский В.И. Начало и вечность жизни Москва. Сов. Россия, 1989. С. 186 – 187.

²⁰ Ўша манба; С.185.

aylanib, bizni o‘rab oladi. Insonning ichki tabiat muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta’sir ko‘rsata boshlaydi va ko‘p hollarda bundan eng avvalo insonning o‘zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo‘limgani uchun biologik muhitning o‘rnini egallahsga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma’lum nuqtadan o‘tganidan so‘ng esa o‘z ijobiy xususiyatini yo‘qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarning yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo‘lishi atmosferani, olamiy okeanni, yer osti va yer usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o‘simliklarning, hayvonlarning ko‘pgina turlari jisman yo‘q bo‘lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo‘ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz guzal orollarga ko‘mib tashlanishi, kislota yomg‘irlarining ko‘payib borishi singari hodisalar bag‘oyat xatarli. Afsuski, inson ko‘ra-bila turib, o‘zi o‘tirgan shoxga bolta urishni to‘xtatmayotir.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma’noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig‘lantirishni taqozo etadi. YA’ni ular insoni-yat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma’nodagi axloqiy muammolar sifatida ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to‘poslik aybdordir», - degan so‘zları shu nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir.²¹

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o‘zini va o‘z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o‘tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda Amaliy etika fanining o‘rni nihoyatda beqiyos.

Zamonamizning global jarayonlari insoniyat oldiga uning mavjudligi va kelajagini dovom ettirishi uchun yangidan-yangi ma’naviy, axloqiy talab va ma’suliyatlar qo‘ymoqda. Shaxs axloqiy kamolotiga katta ta’sir qilmoqda. Bioterrorizm - bu biomeditsina texnologiyalarini yovuzlik niyyatida qo‘llanishining mumkinligi ekan, ushbu jarayonlar insoniyatga jiddiy xavf solmoqda. Zamonaviy biomeditsina texnologiyalarining insoniyat uchun zararli oqibatlarini oldini olishining asosiy omillaridan biri bu ma’naviy, axloqiy

²¹ Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

ma'suliyatli olimlar, texnologlarni tarbiyalash, axloq ilmini fanda qo'llash, tibbiy amaliyatda va ilmiy izlanishlarda insoniylikka yo'naltirilgan madaniyatni shakllantirish bo'lib qolmoqda. Inson doimo hayot va o'lim, tug'ilmoq va ma'naviy ruhiy va jismoniy azob kabi murakkab savollarga javob izlaydi va ularga nafaqat mantiqiy javob, balki aniq qarorlarlarni talab qiladi. Ma'naviy, ruhiy va jismoniy azob – bu shunday favqulotta holatki, inson o'z tabiatini haqida fikrlay olmaydi. Ushbu holatni yengillatish uchun azobning jismoniy mexanizmi emas, uning sabablari ravshan bo'lishi, azobning ma'naviy tushunchalar asosidagi talqini, va uning yuqori darajadagi ma'nosini ayon bo'lishi lozim. Ko'pchilik insonlar insoniyatning va dunyoning ilmiy jihatdan kelib chiqishi haqidagi fikrlarga qo'shilsalarda, azob va kasallikning diniy -ma'naviy jihatdan talqin qilish bilan qoniqadilar. Ushbu talqin quyidagicha.

Azobning sababi dushmanlarning ishi emas, insonning o'zi, uning xulqidir. Dunyo azoblarga to'la va ular muqarrardir. Azoblar –yovuzlikning namoyon bo'lishidir, uning timsolidir. Azoblar insonga o'z-o'zidan berilmaydi, nima uchundir beriladi.

Demak insonning ijtimoiy muhofazasi –axloqiy zaruriyatga aylanib bormog'i lozim ekan, Bioetika fanining maqsadi insoniyatni biotexnologik fojealardan himoya qilish va ushbu jarayonlardagi jinoiy shoshqaloqliklarning oldini olish hisoblanadi. Biomeditsina etikasi – bu amaliy etikaning yo'nalishi bo'lib, uning bosh maqsadi tug'ilmoq, hayot va o'lim, insoniyatning kelajagini davom ettirish kabi masalalarga fanning aralashuvini tahlil qilish, oqibatlarini baholash va ushbu jarayonlarning axloqiy qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Bioetika hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yo'nalinlaridan biri-inson hayotining eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hozirgi zomon fanida Bioetika etika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy reguliyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzluksiz aloqasini ma'naviy tahlil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik Bioetika etikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika, sotsial masalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri –shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetik muammoning dolzarblashuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez

o‘zgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyusion jarayonlari uchun ilgari millionlab yillar kerak bo‘lsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin bo‘ldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini ko‘tarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta o‘qish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday ma’naviy mezonlarga ko‘ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari Bioetika etikaning tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Globallashuv sur’atlari ortayotgan, xalqaro raqobat kuchayayotgan, axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir paytda shaxs axloqiga salbiy ta’sirining asosiy yo‘nalishlarini belgilash «begonalashuv» tushunchasining mazmuniga aniqlik kiritishni taqozo etadi, albatta. Taassufki, bu borada xanuzga qadar bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, ushbu tushunchaning mazmuni zamonlarga mutanosib tarzda, kishilik jamiyatida to‘plangan ijtimoiy-gumanitar bilimlar hajmiga mos ravishda, mazkur muammolar xususida bosh qotirgan mutafakkir va mutaxassislarning dunyoqarashlariga uyg‘un holda o‘zgarib, boyib va to‘lishib bordi.

Begonalashuv to‘g‘risidagi ilk qarashlar, yondashuvar eng qadimgi davr faylasuflari bo‘lmish Suqrot, Aflatun, Arastu, Demokritning inson va jamiyat to‘g‘risidagi fikrlarida uchratish mumkin. Xususan, Aflatun ta’limotiga ko‘ra, kishilik jamiyatining va davlat tuzumiing buzilishiga sabab, moddiy manfaatdorlikning xukmronlik qilishi va uning kishilar axloqiga ta’sir etishidir, yana bir yunon mutafakkiri Arastu qarashlarida bu muammoga yondashuv o‘ziga xosdir. Arastu antik jamiyatning nazaryotchisi bo‘lganligi uchun boylikka ehtiyoj nuqtai nazaridan qaraydi. Boy bo‘lish uchun boylikka ega bo‘lish emas, balki undan foydalanish demakdir. Haqiqiy farovon hayot uchun cheksiz boylik zarur emas. To‘plangan boylik ma’lum maqsadga xizmat qilsa, buning oqibatida davlatga va oilaga foydali, inson hayotiga zarur narsalarni to‘plashni nazarda tutadi. Begonalashuv tushunchasining atama sifatida vujudga kelishi, XVII-XVIII asrlarda “ijtimoiy shartnoma” tarafdorlari Tomas Gobbs, Jon Lokk, Pyer Gassendi, Jan Jak Russo va boshqalar atroflicha o‘rganishdi.

Begonalashish sababi shaxsning ruhiy holatiga bog‘liq deb hisobladi. Feyerbaxning begonalashuv konsepsiysi asosida begonalashuv jarayonida din paydo bo‘lishi va insonning o‘zidan begonalashuvi bo‘ladi. Fayerbax tasdiqlashicha begonalashuvni yengish uchun inson o‘zi va xudo o‘rtasidagi haqiqiy munosabatni bilishi kerak va Xudo tabiatdan a’lo bo‘lib boshqacha emas, aynan inson jismi kabi bo‘ladi deb hisoblagan. Zamonaviy g‘arb falsafasi tarixida «Yevropaning

tanazzuli»asarining muallifi sifatida paydo bo‘ldi. Nemis faylasufi «G‘arbning halokati» to‘g‘risidagi asarida mazkur jarayonning haqiqatda ehtimoli borligini keltirib o‘tdi. Shpengler butun tarixiy jarayondan kelib chiqqan holda fikr bildirgan bo‘lib, u bosh maqsad sifatida burjuaziya jamiyati g‘oyasiga ishonishni qo‘ydi. Barcha paydo bo‘luvchi taqdirlar oldindan ma’lum bo‘ladi va bu taqdir faqatgina bizning davrga xos bo‘lmasdan, butun tarixiy zamonlarga tegishli bo‘lgan.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining ma’naviy-madaniy inqiroziga bag‘ishlangan konsepsiyalar ko‘paymoqda. Eng qizig‘i, XX asr davomida insoniyat sivilizatsiyasining inqirozga yuz tutayotgani asosan uchta e’tiborli konsepsiyada e’tirof etilgan bo‘lsa,² XX asrning oxirgi 10-15 yili va XXI asrning boshida shu fikrni yoqlovchi ko‘plab asarlar e’lon kilindi.³

Xo‘s, ilmiy tadqiqotlarini turli ilmiy, mafkuraviy pozitsiyalardan amalga oshirgan, dunyoqarashi ham turlicha bo‘lgan bu olimlarning bir-biriga yaqin bo‘lgan bunday xulosalarga kelishlariga sabab nima?

Bugungi kunda kishilik sivilizatsiyasini titratgan muammolar haqiqatan ham bag‘oyat jiddiy xarakterga ega. Bu muammolarni XX asrning keyingi 30 yili davomida kishilik sivilizatsiyasida sodir bo‘lgan asosiy o‘zgarishlarga mutanosib ravishda beshga bo‘lish mumkin.

Bizning davrimizga kelib, G‘arb olami butun dunyo bo‘ylab informatsion texnologiyalarni tarqatar, bu texnologiyalarni zamonaviy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismiga aylantirar ekan, shu mahsulot turlarining narxlarini ham belgilashga muvaffaq bo‘lyapti. Buning oqibatida esa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut yanada kattalashib bormoqda.

Inson begonalashuvi omillari orasida ma’naviy tahdid o‘zining murakkabligi, nihoyatda nozikligi bilan ajralib turadi. Chunki, u shaxsning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga, uni o‘zga, turmush tarzi, qadriyatlar sistemasi va g‘oyalar dunyosiga bo‘ysundirishga, erkinligini cheklashga qaratilgan bo‘ladi.

Shaxslararo muloqot tizimi bu holatda umuman olganda zaiflashadi va o‘zining faoliyatini to‘xtatadi. Egoist yolg‘izlik va ichki ziddiyatlar holatiga tushib qoladi. Bunda jamiyat individualistik xarakter kasb etadi va yemirilish sari yaqinlashadi.

Altruistik xulq-atvor holatida odam o‘z energiyasining bir qismini boshqa odamlarga beradi, shu bilan birgalikda undan minnatdor bo‘lgan boshqa odamlar ham unga xuddi shu tariqa javob qaytaradilar. Odam tomonidan sarflangan energiya boshqa odamlarning energiyasi hisobiga to‘ldiriladi. Natijada shaxslararo muloqot tizimi mustahkamlanadi va rivojlanadi. Minuslar pluslarga aylanadi. O‘zaro harakatlar va takomillashishning yuqori potensialiga ega bo‘lgan kollektivistik tip tizimi shakllanadi. Bularning barchasi shuning uchun ham sodir bo‘ladiki, egoist-

odam va altruist-odam faol tizimlar bo‘lib hisoblanish bilan tizimli bog‘lanishlarnig tipi bo‘yicha prinsipial farq qiladi. Begonalashish muammosini odamning ma’naviy-axloqiy xarakteristikalari bilan bog‘lanishda ko‘rib chiqishning yana bir qonuniyatini ko‘rsatamiz. Altruist va egoist shaxsining o‘zining mohiyati bo‘yicha ikkita qutbda joylashadigan fazilatlari bir qator o‘tuvchi xarakteristikalar orqali astasekin vujudga kelishini ko‘rsatamiz.

Bunda qarama-qarshi boshlanishlarning metafizik ajratilganligi emas, balki ular o‘rtasidagi dialektik o‘zaro o‘tishlar o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Bu fikrni bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan yaxshilik va yomonlik fazilatlari misolida ko‘rib chiqamiz. Birinchisi – ijobiy fazilat bo‘lib, ikkinchisi – unga qarama-qarshi bo‘lgan salbiy fazilatdir. Biroq ularning orasida dialektik o‘tish mavjud, uni befarqlik deb atash mumkin. Yaxshilikka qarab borishda shaxslarning o‘tuvchi ma’naviy his tuyg‘ulari – qiziquvchanlik, muloqotga kirishishning boshlanishi, bir-biriga yoqish istagi va so‘ngra bir-biriga yaxshilik qilish istagi kabi ijobiy o‘zaro harakatlari kuchayib boradi. Befarqlikdan yomonlikka qarab borishda ham bir qator ma’naviy his tuyg‘ular – biroq endi boshqa – salbiy xarakterdagi his-tuyg‘ular rivojlanadi. Bu yoqtirmaslik, qizg‘anish, achinmaslik, bir biriga yomonlik keltirish istagi va oxiroqibatda bir-biriga yomonlik qilishdir.

Boshqa ma’naviy-axloqiy xarakteristikalar – adolat va adolatsizlik, haqiqat va yolg‘on va hokazolar o‘rtasidagi dialektik o‘tishlarni ham xuddi shu tarzda kuzatish mumkin. Barcha hollarda tizimli-falsafiy yondashuv pozitsiyasidan altruizm qutbi tizimli bog‘lanishlarning mustahkamligini, egoizm qutbi esa – bog‘lanishlarning keskin zaiflashuvi va uzilishini, o‘tish holati esa odamlarning ma’naviy-axloqiy o‘zaro harakatlarining beqarorligi bilan taqdim qilinishini ifodalaydi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, insonning psixikasi va shaxslararo munosabatlar juda dinamik tizimli va tizim-muhit bog‘lanishlari va munosabatlarini o‘zida taqdim qiladi. Shaxsning qutbiy ma’naviy tiplarini absolyutlashtirmaslik lozim.

Shaxsning altruistik xulq-atvori, aksincha, mutlaqo qonuniyatli tarzda begonalashgan munosabatlarning yo‘qolishiga, hamjihatlik va kollektivizmning mustahkamlanishiga, jamiyat potensialining o‘sishiga olib keladi. Odamlar o‘rtasidagi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan munosabatlar dinamikdir, buning oqibatida hatto begonalashishning murakkab vaziyatlarida ham hayotning ijobiy asoslarini shakllantirish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. O‘ylashimizcha, yuqorida ko‘rsatilgan qonuniyatlar begonalashishning antropojitmoiy muammosida inson omilini tushunishning asosini tashkil qiladi.

Ma’naviy va axloqiy fazilatlar, shuningdek jamiyatda odamlarning o‘zaro munosabatlari odamning ma’naviy olamining rivojlanish darajasini uning odamlar va olamga qaratilgan ma’naviy his-tuyg‘ularining boyligi orqali xarakterlaydi. Bu

his-tuyg‘ularning zaiflashuvi yoki bo‘lmasligi, aksincha, shaxslararo munosabatlarning yo‘qolishiga, ijtimoiy munosabatlarning zaiflashuvi va yemirilishiga, odamning olamdan begonalashuviga olib keladi. Odamning ma’naviy va ma’naviyatga zid bo‘lgan begonalashgan mavjud bo‘lishining bu jarayonlari badiiy asarlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan rus madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi, u odamning ma’naviy kechikmalari va ezilishlarini, uning ichki olamining tashqi olam bilan munosabatlardagi rolini to‘laligicha aks ettiradi.

2.2. Axloqiy, ekologik axloq, etosfera.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o‘z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi shunda. Biz yuqorida noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalarimizda ekologik buhronlarning ba’zi ko‘rinishlariga to‘xtalib o‘tdik. Biroq, yana undan tashqari so‘nggi paytlarda jahon bo‘ylab sintetik jismlar ishlab chiqarishning keng yo‘lga qo‘yilganligi, hayvonot va ayniqsa o‘simliklarning gibrild usulida yangi turlarining vujudga keltirilishi singari hodisalar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo‘s, ular tabiat bilan singishib, uyg‘unlashib keta oladimi, tabiat ularni o‘ziniki qila biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlari, yuqorida aytib o‘tganimiz - muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo‘lar?

Inson tabiat xosili, unda yashaydi, taraqqiy etadi, surriyot qoldiradi, shu tufayli undan tabiat qonunlariga ongli munosabatda bo‘lishi taqazo etiladi. Aks xolda inson undan uzoqlashada va jazolanadi. Insonning tabiatga ta’sir etishi natijasida jamiyat bilan tabiat o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi buzildi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyat bilan tabiatning o‘zaro munosabati barchaning e’tiborini ko‘proq o‘ziga jalb qilmoqda.

Inson tabiatning bir qismi, demak odamlarning o‘zлари, ularning o‘zaro munosabatlari ham atrof-muhitning bir qismi hisoblanganligi uchun inson salomatligining ijtimoiy ekologik muammosi yuzaga keldi. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng yangi texnikaviy ko‘rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, SUV osti va SUV ustı kemalari, eng yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo‘q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalarini va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo‘l bilan-biz yashayotgan

texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. Shuningdek, biologik axloq, ekologik axloq, o‘lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

Ma’lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o‘z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o‘z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - yeymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, internet, poyezd, teploxdod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko‘rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo‘lsak, necha kunlab yo‘l bosishimiz kerakligi haqida o‘ylab o‘tirmaymiz, to‘g‘rirog‘i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o‘zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta’sir ko‘rsata boshladи. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta’limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta’siri ostida biosfera yangi holat bo‘lmish noosferaga o‘tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o‘z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o‘zgarishga kirishganini ta’kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o‘zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig‘ini, uning barcha tabiiy suvlarini o‘zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyusion o‘zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».²²

Ana shu nuqtadan tafakkur o‘zi nima degan muammo paydo bo‘ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o‘zgartira oladi?»²³ Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan yechilishi topgan emas». Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o‘sha-o‘sha, hol etilmagan.

²² В.И.Вернадский. «Химическое строение биосферы Земли и её окружения». <http://www.vernadsky.ru/vernadsky>

²³ В.И.Вернадский. «Химическое строение биосферы Земли и её окружения». <http://www.vernadsky.ru/vernadsky>

Xo'sh, tafakkur o'zi nima? Ma'naviyat lug'atida berilishicha tafakkur (arab. - fikrlash, aqliy bilish) — inson ma'naviy olamining tarkibiy qismi, olamdag'i narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi. Tafakkur iborasi arabcha "fikr" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi.²⁴ Tafakkur biologik hodisa bo'lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug'iladi, lekin tug'ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o'xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo'ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo'lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Bu savolga javobni xorijiy adabiyotlarda aks etgan iqtiboslarda ko'rishimiz mukin. A.N.Palenko «Ekologik inqiroz soxta muammo sifatida» degan maqolasida antik davrda insoniyat oldida ekologik muammo bo'limganligini ta'kidladi. Uningcha: «antik (qadimgi madaniyat) davrda inson ekologik muammolarga to'qnash kelmagan, chunki antik madaniyat ekologik sof bo'lgan». ²⁵ Akademik A.Pokrovskiyning fikriga ko'ra: «Hozirgi zamon kishisi hamma vaqt tabiatga nisbatan urush holatida bo'lib kelgan. Uning halokatli oqibatlari yildan-yilga kuchliroq sezilmoqda. Agar in-sonning tabiatga munosabat madaniyatini tarbiyalamasak, fojiali oqibat-larga olib kelishi mumkin». ²⁶ «Ma'lum ma'noda, ekologik inqiroz, nafaqat energoresurslar kamyobligi, atrof-muhit ifloslanishi emas, balki, eng avvalo, insonning uyg'onish davridan boshlab, ongli ravishda shakllangan, dunyoga va tabiatga munosabatlari tizimi inqirozidir». ²⁷

Bizningcha, noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rab oladi. Insonning ichki tabiat muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta'sir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'limgani uchun biologik muhitning o'rnini egallahsha, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma'lum nuqtadan o'tganidan so'ng esa o'z ijobjiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarning yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, olamiy okeanni, yer osti va yer usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy

²⁴ Маънавият изоҳли лугати.- Т. Ф.Фулом 2009й. 541Б

²⁵ Паленко А.Н.«Экологический кризис» как псевдопроблема. - М.: //Вопросы философии. 2002. № 7..72- 6

²⁶ Покровский А. Экологические проблемы Земли. - М.: Наука, 1975..117-б.

²⁷ Паленко А.Н. «Экологический кризис» как псевдопроблема.- М.: // Вопросы философии. 2002. №7. 71-6.

zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirk organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz guzal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Nemis olimi V. Derngols kishilarda umuman tabiatga, xususan, suvganisbatan ekologik va gigiyenik munosabat madaniyatni shakllantirishni hayotiy zaruriyat tarzida qarab: «Yerda suvning tozaligini saqlash - inson qonining sofligini ta'minlashning zaruriy shartidir...Inson suvni ifoslantirishi bilan o'z umrini qisqartiradi»,¹- degan edi.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. YA'ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir»²⁸ - degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.

Yuqorida aytiganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin.

2.3. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo'lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta'siri

Inson – aqlli xilqat, shuning uchun u ko'p xislat, fazilatlar sohibidir. Inson – inson nomiga xos odamiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Insoniyat paydo bo'libdiki hamisha odamlik qiyofasini, fe'l – atvorda o'ziga yarashadigan xatti – harakatlarni, u yoki bu fazilatlarni mujassamlashtirishga intilgan.

Arastu o'zining asarlaridan birida shunday deydi: "Fazilat nima, u nimalardan hosil qilinadi, shuni bilib olish zarur. Chunki, fazilat qanday hosil qilinishi tushunmay turib, fazilatni bilish befoydadir. Chindan ham hozir biz fazilat nima ekanligini bilish uchun emas, balki u qanday xosil qilinishini tushunish uchun uni o'rghanishga kirishamiz YA'ni, biz hozir fazilat nimaligini faqat bilish va tushunish

¹ Dernqolts v. Berlin. 1975. WWW. Neture. P. 213.

²⁸ Конрад Лоренц "Оборотная сторона зеркала", Электронная библиотека royallib.com.

bilan birga, fazilatli, ya’ni fozoil odam bo‘lishni hohlaganimiz uchun uni o‘rganishga kirishamiz”²⁹

Bugungi kun kishisidagi odob, xulq – atvor qoidalari asrlar davomida tarkib topib, takomillashgan. Bu fazilatlar har bir insonning ichki va tashqi xislatlarida, o‘zini tuta bilishida, xatti – harakatlarida, muomala munosabatida o‘z ifodasini topgan. Qadimgi Sharq va G‘arbdagi falsafiy, diniy ta’limotlarda axloqning asosiy tushunchalari orqali insonning mohiyati nima, u o‘ziga, boshqalarga bo‘lgan munosabatlarda qanday ma’naviy mezonlarga tayanadi, degan savolga javob topishga intilishgan.

Illat-muhit axloqiy va ma’naviy kamchilik bo‘lib, yaxshilikka qarama qarshi turadi. Bularning barchasi muhabbat va mexrga, sadoqatga ziddir, har qanday yomonliklar axloqiy buzuqliklar, illatlar, yomon xarakatlar, buzuq hayotga moyillikni o‘z ichiga oladi.

Illat har doim normaning buzilishi hisoblanadi. Buni anglash juda ham achinarli, ammo tabiatda komil insonlar yo‘q, har kimning o‘z kamchiliklari mavjud.

Xamma xar-xil tabiatga ega ekanligi - bu hech kimga sir emas. Bir kishida xarakterming ijobiy tomonlari ham, salbiy tomonlari ham o‘zaro kelishib olinishi mumkin. Birinchi navbatda yomon illatlarga duch kelmaslik uchun insonning asosiy harakati yomon niyatlarni qilmasligidir.

Umuman olganda, Inson tomonidan tan olingan yettita illatlar ajralib turadi - dangasalik, ochko‘zlik, mag‘rurlik, shahvat, ochko‘zlik, g‘azab va hasad. Albatta, bu ro‘yxatni cheksiz ravishda sanab o‘tish mumkin, ammo bu yettita yomon illatlar alohida ajratilgan, chunki ular boshqa illatlarning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shadilar.

Vaqti-vaqti bilan barcha odamlar hayotlari davomida tasvirlangan illatlarga duch kelishadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, illatlar semantik xususiyatlarida bir-biridan farq qiladi.

Birinchi navbatda insonda yomon niyatları bilan kurashishni va o‘zlarini yaxshilashni boshlashga chin dildan xohish bo‘lishi kerak.

Avvalo, tushunchalar to‘g‘risida qaror qabul qilishingiz kerak. Xo‘s, odamlarning yomonliklari va fazilatlari nima? Ularni birgalikda ko‘rib chiqish kerak, chunki ular bir-birining aksi, bir xil tangalarning turli tomonlari. Insonning ijobiy va salbiy tomonlari, uning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu belgi xususiyatlari nafaqat bir kishining hayotini shakllantiradi, balki boshqalarga ham ta’sir qiladi, shuning uchun ular yaqinlarning hayotini ijobiy tomonga - yaxshiliklarga nisbatan sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin.

²⁹ Арасту. Поэтика. Ахлоқи Каир. Т., “Янги авлод асри” Б 96

Insonning kamchiliklari - bu istalmagan deb hisoblanadigan, insonning shaxsiy, xulq-atvor va jismoniy ko‘rinishlarini aks ettira oladigan, uning xattiharakatlari va didini aks ettiradigan aqliy va jismoniy illatlaridir.

Shuningdek, turli xil vaziyatlarda, har xil semantik kontekstni joriy qilishda, xuddi shu harakatlar yetishmovchilik yoki afzallikning namoyon bo‘lishi sifatida boshqacha talqin qilinadi (masalan, eng kichik tafsilotlarni hisobga olmagan holda tezkor javob berish oilaviy hayotdagi noqulaylik hisoblanadi, ammo harbiy xavfli vaziyatlarda bu sifat ustuvor ahamiyat kasb etadi va fazilat deb hisoblanadi).

Yolg‘on – Insonning illatlaridan biridir. Bugungi kunda bu deyarli afzallik hisoblanadi. Axir, zamonaviy dunyoda, masalan, ko‘p pul topish faqat hiyla-nayrang bo‘lishi mumkin. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, yolg‘onchi hech qachon boshqalarning his-tuyg‘ulariga ahamiyat bermaydi, u beparvo. "Bir marta yolg‘on gapirib, ikkinchi marta aldayman" - bu so‘zlarni hamma yodda tutishi kerak.

Xiyonat - Bu tanib olish unchalik qiyin bo‘lmagan odamning mukammal niqoblangan vakili. Ko‘pincha bu hayotning maxsus holatlarida, himoya qilish va orqa tomondan ta’minalash kerak bo‘lganda o‘zini namoyon qiladi.

Ochko‘zlik - Insonning yana bir dahshatli illati ochko‘zlikdir. Bu shunchaki pulning kombinatsiyasi yoki boylik to‘plashga bo‘lgan chanqoqlik, iloji boricha ko‘proq qadriyatlar va moddiy boylikka egalik qilish istagi bo‘lishi mumkin. Bunday odamlar hech qachon hech narsa bilan bo‘lishmaydi va saxiylik tuyg‘usi ular uchun begona.

Ikkiyuzlamachilik - Ikkiyuzlamachilik - soxta axloq va aldamchilik, gipertrofiyaga asoslangan o‘z g‘iybatiga bahona izlash. Bunday illatli insonni tanib olish juda qiyin. Xar bir vaziyatda ular maksimal foyda olish uchun o‘zlar uchun qulay bo‘lgan pozitsiyani tanlaydilar. Bunday odamlar "to‘g‘ri" odamlarning nazarida ularnikiga qaraganda yaxshiroq ko‘rinishi uchun "niqob" kiyadilar.

Hasad - Insonning keyingi illati hasaddir. Ko‘pincha katta mansabga erishgan kishiga nisbatan dushmanlik va dushmanlik qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Birovning farovonligi hasadgo‘y odamning ongiga ta’sir qiladi va uni o‘ziga va uning boyligiga doimiy norozilik holatiga soladi. Hasad - bu odamning ko‘proq muvaffaqiyatli odamlarga ega bo‘lgan narsaga ega bo‘lish istagi. Hasad tufayli odam turli dahshatli ishlarni qilishi mumkin.

Shafqasizlik- Shafqasizlik - bu ibridoiy instinktlarga aldanish, to‘liq hurmasizlik va insonning qadr-qimmatini haqorat qilish. Zo‘ravonlar, qotillar va boshqa jinoiy shaxslarga xos bo‘lgan dahshatli illatlar. Bu barcha tirik mavjudotlarga (nafaqat odamlarga, balki hayvonlarga) zarar yetkazish istagi yoki ehtiyojida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat jismoniy tomondan, masalan, kaltaklashdan, balki ruhiy tomondan ham zarar yetkazishadi - ba’zan ruhiy bosimni

ko‘tarish ancha qiyin bo‘ladi ... Agar shafqasizlik obyekti yomon bo‘lsa, azob chekuvchi mamnunlik va qandaydir xursandchilik hissini tuya boshlaydi.

Jahl - Insonning illatlarini ko‘rib chiqayotganda, jaxldorlikni e’tiborsiz qoldirmaslik kerak. Ba’zi odamlar hammadan va hamma narsadan g‘azablanishadi, ular g‘azablanish jarayonida, ko‘pincha qasam ichishadi va qo‘pollik qilishadi.

Ayyor - Keyingi illat ayyorlikdir (bugungi kunda buni ba’zi odamlar ham ijobjiy ma’noda ko‘rib chiqishadi). Bu shuni anglatadiki, odam shunchaki xayol qilib, xayolga borishi va o‘zi uchun maksimal darajada foyda ko‘rishi, ko‘pincha boshqalarga zarar keltirishi mumkin.

Xudbinlik -O‘z kishining boshqalar bilan solishtirganda ahamiyatini aniq baholash. Buni boshqa odamlarga, ularning manfaatlariga nisbatan jirkanch munosabatda bo‘lish mumkin. Xudbinlik bu shaxsiy boylik, boyish va foyda olishga intilishdir. O‘zini o‘ylaydigan odam faqat o‘zining foydasi haqida o‘ylaydi va oqibatlari haqida o‘ylamaydi. Foyda olish uchun sotib olishga bo‘lgan ehtiros uni mablag‘lar bilan insonni noplil qilib qo‘yadi.

Bezbet- O‘ziga ortiqcha baxo berib, suhbatdoshga nisbatan nafrat bilan namoyon bo‘ladigan insonning yana bir vakili. Bunga qo‘pol imo-ishoralar, qasam ichish hamroh bo‘lishi mumkin. Bunday xatti-harakatlar o‘zlarining jazosizligini va ustunligini his qiladigan turlarga xosdir.

O‘zini ko‘rsatmoq - Bu insonning har qanday shaklda o‘ziga bo‘lgan e’tiborini jalb qilish istagi, hatto salbiy xatti-harakati bo‘lsa ham. Bunday qahramonlar ularga murojaat qilgan xushxabarlarni eshitishni yaxshi ko‘radilar, hayot davomida yuqoriga ko‘tarilishni istaydilar. Ko‘pincha maqtanchoqlar shunday yo‘l tutishadi.

G‘azab (hali ham g‘azab, g‘azab, tajovuz, qasos olish istagi shaklida o‘zini namoyon qiladi). G‘azab - bu adolasizlik tuyg‘usiga yo‘naltirilgan Shu bilan birga, inson bu adolasizlikni yo‘q qilish uchun kuchli istakni engadi.

Ochko‘zlik (ochko‘zlik va qaysarlik sifatida tanilgan) Ochko‘zlik, agar odam mutanosiblikni yo‘qosa, imkon qadar ko‘proq moddiy boylikka ega bo‘lish istagi.

Takabburlik o‘zini egoizm haddan tashqari mag‘rurlik shaklida namoyon qiladi. Agar inson mag‘rurlikka duchor bo‘lsa, u o‘zini boshqalar oldida maqtaydi va uning fikri eng to‘g‘ri ekanligiga qat’iy ishonadi.

Mansabga intilish. Mansab ko‘p ichadigan odamni vasvasaga soladi, ularni shafqasiz va mast qiladi, shu sababli u har qanday jinoyatlarga turki beradi. Ota, o‘g‘il, opa-singil, aka-uka, uning boshidagi toj uchun o‘ldirish hamma zamon va xalqlarning odatiy ishi.

Qo‘rkoqlik - noma’lum qo‘rquvga to‘liq bo‘ysunish.

Insonning illatlarining har biri ayyor va xoin. U insonning tabiiy moyilligidan o'sadi. Jimgina normani buzish, konsepsiyalarni buzish, almashtirishlar va firibgarliklar bilan u axloqni axloqsiz, odatiy holatga aylantiradi. Illatlar inson qalbida mustahkam o'rnashib, o'ziga xos xususiyat va fe'l-atvor bilan birga o'sib boradi. Agar gunoh afzalroq natija bo'lsa, u holda bu axloqsizlikka moyillikdir. Shu sababli, inson bunday "yaqin" va "tabiiy" illatlar bilan qanchalik tez kurashishni boshlasa, bu uziga yaxshi bo'ladi.

Shahvoniylit (zinokorlik, zinokorlik, beadablik ko'rinishida namoyon bo'ladi). Shahvoniylit - bu shahvoniylit istak, taqiqlangan ehtiros, yashirin istaklar. Umuman olganda, bunday nochorlik har qanday istakni o'z ichiga oladi, shu sababli odam biron bir noqulaylik yoki azob-uqubatlarga duch keladi.

Insonlarning illatlari millionlab odamlarni yo'q qiladi va achinarli tomoni shundaki, ularning aksariyati illatlarni yo'q qilib bo'lmaydi deb ishonishadi. Aslida, agar siz illatlarning tabiatini - ularning paydo bo'lish sabablarini tushunsangiz, unda siz ulardan har qanday narsadan xalos bo'lishingiz va har qanday yomon odatni yengishingiz mumkin. Ammo ko'p odamlar uchun qiyinchilik shundaki, siz o'zgartirishingiz kerak, o'zingiz ustida ishlashingiz kerak, lekin ular xohlamaydilar, ular dangasa! Shuning uchun ular illatning quliga aylanishadi va sekin yoki tez yo'q bo'lishadi.

Odamning yomon ishlari nima?

Insoniy yomonliklar insonda uning salbiy (yomon) istaklari va odatlari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

- Illatlar avvaliga asal, keyin zahar kabi narsa! Bu insonni ham ma'naviy, ham jismoniy tomondan barbod qiladi. U odamni, uning jonini va tanasini kuchli istaklari, ehtiyojlari, qo'shimchalari va muqarrar odatlari orqali qul qiladi. Hammasi sinovdan boshlanadi (barchasi qiziq), keyin ehtiyoj shakllanadi, ehtiyoj qo'shimchaga aylanadi (bu allaqachon qaramlik) va bu o'z navbatida odat tusiga kiradi. Ildizlangan odat faqat bir nechta bo'lishi mumkin.

Ko'pgina nuqsonlar haddan tashqari yoki "Moderatsiya" tamoyilining buzilishi tufayli tug'ilib o'sadi.

Masalan, savol - ovqatlanish yaxshimi, kerakmi? Albatta sizga kerak va yaxshi! Axir, ovqat hazm qilish organlari barcha odamlar uchun ta'minlanadi. Ammo ortiqcha ovqat juda yomon! Va ochko'zlik tanadagi kasalliklarga va ruhning yo'q qilinishiga olib keladi. Xuddi shu narsani jinsiy aloqa va boshqa istaklarning haddan tashqari oshishi haqida ham aytish mumkin.

Xuddi shu kabi, inson yaxshilik bilan yomonlikni farqlamaydigan va oqibatlari haqida o'ylamaydigan joyda gullab-yashnaydi.

Inson qachon illatlarni qabul qiladi?

U kuchli va munosib ichki yadroga ega bo‘lmaganda! Qachonki Shaxsning asosi abadiy va undan yuqori qadriyatlar emas (berilgan hayot, burch,adolat, muhabbat, qonun va boshqalar uchun javobgarlik), lekin insonning hayotida eng muhim narsaga aylangan xudbin istaklar va dunyoviy oniy qadriyatlardir.

Qorin g‘amidagi odam uchun hayotning ma’nosini burchni bajarish va hatto shaxsiy muvaffaqiyatga erishish emas, balki doimo ovqatlanish, ovqatlanish va ovqatlanish (oshqozonni to‘ldirish). U ovqatning quli va ovqatlanish uning istagi xisoblanadi

- qashshoqlikka, jinoyatchilikka va yolg‘izlikka olib keladigan halokatli noqulaylik

Mag‘rurlik - mojarolarni keltirib chiqaradi va o‘z vaqtida to‘g‘rlanmasa, insonning taqdiri bilan tushishiga olib keladi. Odamlar orasidagi ishonch, obro‘ va munosabatlarga putur yetkazadi.

Yomonlikka qarshi kurashni qayerdan boshlash kerak?

1. Yomonliklarning oqibatlarini tushunish bilan! Iloji boricha aniqroq va batafsilroq tasavvur qilishga urinib ko‘ring (bu boshqa odamlarning misolida), bu nimaga olib keladi. Agar o‘zingizni bu yomonlikdan ozod qilmasangiz, sizni qanday kelajak kutmoqda?

2. Har bir o‘ziga xos nochorlik, yetishmovchilik va yomon odatni o‘z ustida ishslash usullari va usullari bilan yo‘q qilish kerak.

Hamma odamlar nomukammal va vaqtı-vaqtı bilan ba’zi gunohlarga duch kelishadi. Albatta, siz o‘zingizni yaxshilashga va yaxshilashga harakat qilishingiz kerak, lekin o‘z kamchiliklariningizni qanday qilib yo‘q qilishni bilish uchun, avval ushbu maqolada keltirilgan insonning asosiy yomonliklari ro‘yxati bilan tanishishingiz kerak.

Kamchiliklar nima? Shaxsiy kamchiliklar ojizliklar nazarda tutiladi, ular o‘ziga qaramlik yoki cheksiz salbiy illatlarni kategoriya ko‘rinishidan oladi. Insonning fazilatlari va illatlari qutbli namoyon bo‘ladi, biri oldinga siljishga, muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi, biri hurmatni oshiradi, ikkinchisi insonning taqdirini buzadi.

2.4. Internetning axloqiy-estetik tafakkurni o‘zgarishiga ta’siri.

Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotga ta’siri haqida gap ketganda, uning kuchi jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqishida, mavjud muammolarga jamiyat a’zolari diqqatini jalb qilishida, davlat organlari faoliyatini nazorat qilib borishida ko‘rinadi. Shu ma’noda u xalqni hokimiyyat bilan bog‘lovchi vosita-mexanizm hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy texnik uskunalar, keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega bo‘lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda: ommaviy axborot vositalarining huquqiy poydevori barpo etildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, qonunga muvofiq ish yuritishi, senzuraga yo‘l qo‘ymasligi (67-modda) alohida belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, mamlakatimizda xususiy ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga ham keng sharoit yaratilib, dunyoning turli mamlakatlaridan mustaqil ravishda axborotlar olish imkoniyati yuzaga keldi.

1996 yilning may oyidan boshlab respublikamizda jahondagi yirik kompyuter tizimi «Internet» bilan aloqa o‘rnatib, undan eng muhim yangiliklarni qabul qilib olishning yo‘lga qo‘yilgani O‘zbekiston axborot vositalari tarixida ulkan yangilik bo‘ldi. «Internet»ning 50 million abonentni bo‘lib, jahondagi eng yirik axborot markazlari unga a’zo bo‘lishgan. U butun dunyo bo‘yicha turli sohalardagi yangiliklar qabul qilib oladi hamda ana shu yangiliklarni o‘z abonentlariga tez va aniq yetkazib beradi. 1996 yil 7 mayda esa «O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» farmon qabul qilindi. Unda O‘zbekiston Davlat televideniye va radioeshittirish Qo‘mitasi O‘zteleradiokompaniyaga aylantirildi. Bir so‘z bilan aytganda, ommaviy axborot vositalari (OAV) mustaqillikni mustahkamlash, xalqqa tezkor va obyektiv xarakterdagi axborotlarni yetkazib berish minbariga aylandi.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo yosh avlod ongiga singdirishda alohida o‘rin tutadi. Ular ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. «To‘rtinchi hokimiyat» hisoblangan OAVlari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo‘l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim.

Yirik siyosatchi, Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher: «Ommaviy axborot vositalari - terrorchilar uchun kislorod vazifasini o‘taydi», - degan edi. Bu gapning mag‘zini chaqqan odam «ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan», degan xulosaga keladi. Zero, ularning maqsadlari - o‘ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta’sir qilishdir. Taassufki, ba’zi ommaviy axborot vositalari o‘zlari bilmagan holda terrorizmning buzg‘unchilik, ko‘poruvchilik ta’sirini yanada oshirishga «xizmat» qilib qo‘yadilar. Ularning terror oqibatlari haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qo‘rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi

bugungi kunda targ‘ibotni kuchaytirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Globallashuv jarayonining barcha ijobiy va muqarrar fazilatlarini e’tirof etgan holda farzandlarimiz tarbiyasiga yanada hushyor bo‘lishimiz taqozo etiladi. Azaliy milliy qadriyatlarimiz, axloqiy qadriyatlar, sof o‘zbekona axloqiy fazilatlarini globallashuv to‘fonida yo‘qolib ketmasligi uchun matbuot mas’ul desak xato qilmaymiz. Axloqiy tarbiya jarayonida har bir vositadan oqilona foylanishi lozim. Televideniye esa tomoshabin bilan jonli muloqot, voqelikni axloqiy-estetik jihatdan keng qamrab olishi, barcha san’at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko‘rsatish imkoni bilan boshqa ommaviy axborot vositalarga nisbatan keng imkoniyatlarga egadir. Bugun OAV juda qudratli kuchga aylandi. Barkamol avlodni tarabiyalashda ayniqsa vatanparvarlik ruhidagi ko‘rsatuvlarning o‘rni muhim. Shu jihatdan olganda “Vatanparvar”, “Shijoat” kabi ko‘rsatuvlarni alohida ta’kidlash lozim. Ayniqsa televideniyeda ushbu mavzuga bag‘ishlangan bir qancha mazmunli reklama roliklarining paydo bo‘lganini ham ijobiy hodisa deyish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari xususan televideniye voqelikni bir butun qamrab oladi. Axloqning barcha soha va yo‘nalishlari axloqiy madaniyat, tabiatga axloqiy munosabat, etiket, axloqiy tarbiya muammolariga keng to‘xtalib o‘tadi. O‘zaro insoniy munosabat va insonda o‘simliklarga, hayvonlarga, yeri suvga muhabbat hissini tarbiyalash hozir ko‘proq axloqiy munosabat bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Tabiatdagi nafosatni anglash, insondan avvalgi qo‘pol munosabatning o‘zgarishiga ham axloqiy-estetik, ham ekologik madaniyatning yuksalishiga olib keladi.

Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Birinchi Prezident I.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Bugungi kunda yoshlارимиз nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahan axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi”³⁰. Shunday bo‘lsa-da, internet bir qator salbiy jihatlarni keltirib chiqarayotganini ham doimo yodda tutish lozim. Unda o‘z-o‘zini o‘ldirishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytning mavjudligi ham buning isboti bo‘la oladi. Mutaxassislar mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xarakterga egaligini, 42 foiz bolalar va o‘smirlar onlayn pornografiya ta’siriga tushishini qayd etishmoqda. Mavjud maxsus

³⁰ Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент, “Маънавият”, 2008.-114 6.

dasturlar internetdagи pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, ya’ni komyuterdan foydalanuvchining ixtiyoridan tashqarida ekranda paydo bo‘lishi yo‘liga to‘sinq qo‘ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin pornografik mazmunga ega saytlar internetdan foydalanuvchilarining xohish-istagidan qat’i nazar, ularning ixtiyorini torta oladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish uchun asos bo‘ladigan “axborot iste’moli madaniyati”ni³¹ tarbiyalash hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularda bunday madaniyatning kamol toptirilishi milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan har qanday hodisaga selektiv yondashish ko‘nikmasi shakllanishiga va dunyoqarashdagi sog‘lom barqarorlikka zamin yaratadi.

2.5.Tibbiyat estetikasi va bioetika.

Bioetika, klassik tibbiyat etikasidan farq qiluvchi yangi yo‘nalish sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi va jadal rivojlanana boshladi. **Bioetika** – tibbiyat va biologiyaning rivojlanishiga qarab yuzaga keladigan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni o‘rganuvchi bilim sohasi. Boshqacha qilib aytganda, bu borliqqa axloqiy munosabat mezonlari to‘g‘risidagi fan, jamiyat manfaatlarini ilm-fan tajovuzidan himoya qiluvchi institut, shuningdek tibbiyat sohasidagi axloqiy muammolarni hal qilish metodologiyasidir. Bioetikaning asosiy maqsadi – insonni uning hayoti va sog‘lig‘iga tibbiyat va biologiyaning salbiy ta’siridan himoya qilish. «Bioetika» atamasini amerikalik mashhur onkolog vrach, olim va insonparvar Van Ranseler Potter (1911-2001) ilmiy muomalaga kiritdi.

Bioetika bugungi kunda vrach va patsiyent munosabatlarining axloqiy jihatlariga, evtanaziya va o‘limni aniqlash, inson a’zolarini transplantatsiya qilish, homila tushirish (abort), klonlash, irsiy injeneriya masalalariga alohida e’tiborni qaratmoqda. Akademik doiralarda «bioetika» tushunchasi aynan shu ma’noda qo‘llaniladi. Bunda tibbiyat etikasi tushunchasi o‘rniga ko‘pincha deontologiya tushunchasi qo‘llaniladi. Deontologiya etikaning burch va majburiyat muammolarini o‘rganuvchi bo‘limidir (atamani ingliz faylasufi Bentam XIX asrda muomalaga kiritgan).

XX asrning ikkinchi yarmida transplantologiya, irsiy diagnostika, irsiy injeneriya va klonlash rivojlanana boshladi. Tibbiyat texnikasi o‘z rivojlanishida shunday daraja yetdiki, vrach ilgari o‘lishi muqarrar bo‘lgan bemorlarning hayotini endilikda sun’iy ravishda saqlab tura oladi. Texnika sohasidagi yutuqlar bemorlar,

³¹ Ушбу тушунча илмий муомалага У.Кўшаев томонидан киритилган.

o‘lim to‘sagida yotganlar va nogironlarning huquqlarini yuridik jihatdan asoslashning yangi-yangi shakllari va usullari paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Etikaning boshqa muammolardagi ishtiroki ham kengaydi – siyosatchilar o‘z faoliyatida etika qoidalariga tobora ko‘proq tayanmoqdalar, jamoatchilik biznes va reklama ustidan etik nazoratni o‘rnatishni talab etmoqda, ekologiya esa atrof muhit bilan munosabatlarni tartibga solishda etika qoidalariga rioya etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Axloq normalariga muvofiqlik mezoni bank faoliyatining nafaqat qonuniyligi, balki muvaffaqiyatliligining ham negizi sifatida ilgari surilmoqda.

Bioetika amaliy etikaning eng rivojlangan va ishlab chiqilgan qismiga aylandi. Boz ustiga, bioetika mustaqil fan maqomiga ham da’vogar bo‘lishi mumkin, degan fikr ham ilgari surilmoqda. Darhaqiqat, bioetika ilgari surayotgan muammolar juda muhim va rang-barang, ularni tahlildan o‘tkazish darajasi juda katta, bioetika ko‘rib chiqib hal qilayotgan masalalar juda muhim va dolzarbdir. Har qanday mamlakatda transplantatsiya, reanimatsiya, sun’iy urug‘lantirish, irsiy davolash zamonaviy vrach amaliyotining muayyan yo‘nalishlari hisoblanadi. Ilmiy bilim, shu jumladan tibbiy-biologik bilimlar ham universaldir.

Paternalizm – tibbiyot etikasining dastlabki modellaridan biri. Bu shunday bir munosabatlar modeliki, unda vrach bemorga nisbatan nafaqat mehribon ota, balki podsho va xudo sifatida ham ishtirok etadi, zero, insonning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi va baxti uning qo‘lida bo‘ladi. Professional tibbiyot etikasining mazmuni «foyda keltirish», «ziyon yetkazmaslik», «bemorning ishonchini qozonish» singari prinsiplar bilan belgilanadi, ya’ni vrach faoliyatini tartibga solishga yo‘naltirilgan va «tibbiy deontologiya» deb ataladi.

Tibbiyot – yuksak darajada professionalizmni talab etuvchi va etika prinsiplarining izchil tizimini nazarda tutuvchi soha. Shaxsiy darajada tibbiyot etikasi vrachning kasbiy erkinligini va muruvvatini o‘z ichiga oladi. Kasbiy erkinlik – davolash kursini boshqa shaxslarning aralashuvvisiz belgilash huquqi. U patsiyentning o‘z sog‘lig‘i haqida axborot olish huquqi bilan cheklanadi.

Totli o‘lim-**evtonaziya** ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Bedavo dardga chalingan bemorni azob-uqubatlardan qutqarish uchun uning o‘limini qasddan tezlashtirishga munosabat yuzasidan tibbiyotchilar, yuristlar, sotsiologlar va psixologlar orasida ko‘p sonli bahslar hanuz davom etmoqda. Ingliz faylasufi Frencis Bekon (1561-1626) yengil og‘riqsiz o‘limni belgilash uchun «evtanaziya» (yunoncha «euthanasia», «eu» – yaxshi, «thanatos» - o‘lim), ya’ni azob-uqubatlarsiz, yaxshi, oson va yengil o‘lim atamasini muomalaga kiritdi.

Xudoning ixtiyoridan tashqari o‘limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. Chunki sabrli, bardoshli bo‘lish, bu dunyo izardorlarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib

qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o‘z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o‘tishini biladi. Shu bois u o‘zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam - shifokordan azoblariga chek qo‘yishni so‘raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti - harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko‘rinishi sifatida qabul qilish to‘g‘rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o‘z yechimini kutmoqda.

Chunki tabobat borasidagi so‘nggi tadqiqotlar inson o‘limi bir lahzada ro‘y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to‘xtaganda ham, miya o‘lmasa insonni o‘ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig‘i, undan keyin miya tanasi halok bo‘ladi. Shundan keyingina insonni o‘lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o‘lmas ekan, ko‘pgina ichki a’zolarning yangi tabobat texnikasi vositasida ishslashda davom etishini ta’minalash va shu orqali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko‘chirib o‘tkazilishi hali o‘lмаган одамнинг минимал тириклика бо‘лган ҳуруқини поымол qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxiturg Pol Pirson o‘z tajribalariga asoslanib, yurak ko‘chirib o‘tkazilganda ruh ham ko‘chib o‘tadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o‘tkazilganida, yigitning fe'l-atvorida juda katta o‘zgarishlar ro‘y bergen. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o‘pkasi 36 yashar ayolga o‘tkazilganda ham shunga o‘xshash o‘zgarishlar yuzaga kelgan: ayolning kulishigacha o‘zgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Faol evtanaziya quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

1) «Rahmdillikka asoslangan odam o‘ldirish» – vrach umidsiz xasta odam chekayotgan azob-uqubatlarni ko‘rib, ularni bartaraf eta olmaganligidan, aytaylik, unga og‘riq qoldiruvchi preparatni meyordan ortiq miqdorda kiritadi va natijada bemor vafot etadi.

2) «Vrach yordamida o‘z joniga qasd qilish» – bunda vrach bedavo dardga yo‘liqqan bemorga o‘z joniga qasd qilishga ko‘maklashadi.

3) Shaxsiy faol evtanaziya – vrach yordamisiz ham sodir bo‘lishi mumkin. Bunda bemor uning tez va og‘riqsiz vafot etishiga olib keladigan uskunani o‘z qo‘li bilan ishga tushiradi, ya’ni o‘z joniga o‘zi qasd etadi.

Xullas, aktiv evtanaziya muammosining mohiyati vrachning bemorni unga rahmi kelganidan yoki o‘layotgan odamning yoki uning yaqinlarining iltimosiga ko‘ra hayotdan ayirishidan iborat. Bunday aktiv evtanaziya nafaqat bizning mamlakatimizda, balki boshqa davlatlarda ham qattiq qoralanadi. Chet elda vrachlar va yuristlarning aksariyati bunga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan, hatto

«rahmdillik»dan yoki o‘lishi tayin bo‘lgan bemorning iltimosi bilan qilingan taqdirda ham jinoiy javobgarlikka loyiq qilmish deb qaraydilar. Shunga qaramay, evtanaziyaga hatto yuridik huquqlar berilgan mamlakatlar ham bor. Xo‘sh, ular buni nima bilan izohlaganlar? Evtanaziyaga tibbiy va ma’naviy-axloqiy nuqtai nazardan ziddiyatli qarashlar mazkur hodisaga yuridik jihatdan ham har xil baho berilishiga sabab bo‘ldiki, bu bir qancha mamlakatlarning qonun hujjatlarida o‘z aksini topdi.

Klonlashtirish atamasi ingliz tilidagi “clone”, “cloning” so‘zlaridan kelib chiqqan va hozirgi kunga kelib o‘z yozilishi, o‘qilishini biroz o‘zgartirgan. Ingliz tilida bu so‘z biologik termin sifatida yuz yillar oldin qo‘llana boshlagan. Biroq shu qisqa vaqt ichida o‘z ma’nosini bir necha marta o‘zgartirishga ulgurgan. Dastlab klon so‘zi vegetativ yo‘l bilan, ya’ni bir o‘simlik urug‘idan olingen o‘simliklar guruhiga nisbatan qo‘llangan. Oradan bir muncha vaqt o‘tib, ushbu atama bakteriyalar turkumini yetishtirishga nisbatan ishlaatilgan. Biologik yutuqlar shuni ko‘rsatadiki, o‘simliklar va bakteriyalarning kelib chiqishi, avlodlarning organizmishlab chiqaruvchisi bilan klonning barcha genetik asoslari bir xil bo‘ladi. Keyinchalik shu yo‘l bilan olingen yoki shakllantirilgan organizmlar klonlashtirish deb ataladi. Klonlashtirishga oid ko‘plab baxs-mulohazalar mavjud. 1977 yili butun insoniyat klonlashtirish yo‘li bilan dunyoga keltirilgan shotland qo‘zichog‘i Dollini ko‘rib, xayratga tushdi. Bu paytda odamni klonlashtirish ustida olib borilayotgan tajribalarga bo‘lgan munosabat to‘g‘risida baxs ketayotgan va baxslar quyidagi savollar bilan bog‘liq edi. Keyinchalik klonlashtirish odamlarga genetik kasalliklarni davolashda ham katta yordam beradi. Agar xavfli genlar, ya’ni qandaydir kasallik alomatlari oti xromasomasida aniqlansa, unda otaning tuxumdoniga uning o‘z xujayrasi o‘tkaziladi. Shunda xavfli genlardan xoli farzand dunyoga keladi. Insonni klonlashtirish o‘z-o‘zidan insoniyat axloqi va ruhiyatini Buzish bilan barobar emasmi degan muammolardan iborat. Ma’lumki, inson faqat jismoniy tanadan iborat emas, unda yurak, qalb, hissiyot tafakkur, orzu umid va uning ro‘yobiga qaratilgan inson xatti xarakatlarining bir-biriga bog‘liq va yaxlit tizimi mavjud.

Transplantatsiya-odam va xayvonlarda potologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to‘qimalar va organlar o‘rniga sog‘lomini ko‘chirib o‘tkazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan ma’lum. Teri, muskul, nervlar, ko‘zning muguz pardasi, yog‘, va suyak to‘qimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar ko‘chirib o‘tkaziladi. Qon quyish-transplantatsiyaning alohida turidir. Ko‘chirib o‘tkaziladigan to‘qima yoki organ kimdan olingeniga qarab quyidagicha farqlanadi. autotransplantant-bemorning o‘zidan, allotransplantat-odamdan odamga, **ksenotransplantat**-boshqa individdan. Hozir buyrak transplantatsiyasi juda keng yo‘lga qshyilgan. Boshqa organlar, yurak, jigar, endokrin bezlar, o‘pka va

boshqa organlarni ko‘chirib o‘tkazish maxsus klinikalarda bajariladi. Transplantalogiya-deyarli chorak million og‘ir kasalliklarga duchor bo‘lgan insonlarga hayotlarini davom ettirish imkoniyatini berdi, lekin shuning bilan bir qatorda bir qator axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Ushbu muammolarning eng muhim bugungi kunda bu allotransplantatsiya (insondan insonga organlar va to‘qimalarni ko‘chirib o‘tishdir). Ushbu masalada muammo donorlik organlarining yetishmasligidadir. Transplantalogiya- yashashga umid qolmagan, dori darmonlar foyda bermagan insonlarning so‘ngi chorasi va yashash uchun so‘nggi umidi bo‘lib qolmoqda. Lekin ushbu muammo bugungi kunda ko‘pgina jinoiy holatlarga ya’ni, inson organlarini sotish jarayonlariga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechimining bugungi kundagi yangi yo‘llardan biri hioblangan, insonga xayvonning organi yoki to‘qimasini ko‘chirib o‘tish – ya’ni **ksenotransplantatsiyadir**. Lekin yaqin-yaqingaga u faqat nazariy jihatdan mavjud edi, chunki organlarning insondan –insonga ko‘chirib o‘tilganda bir qancha muammolar mavjudki, xayvondan insonga ko‘chirilganda ushbu muammolar bir necha marta ko‘payadi. Afsuski ushbu organlarning insonda qancha vaqt faoliyat ko‘rsatishi mumkinligini hali hech kim bilmaydi. Ta’kidlash kerakki, ushbu sohada ba’zi muvaffaqiyatli tajribalar o‘tkazilgan. 1963 yil K.Rimstma insonga shimponzening buyragini o‘tkazgan va u 9 oy mobaynida faoliyat ko‘rsatgan.

Donorlarning himmati tufayli xar yili millionlab insonlarning hayoti saqlab qolinadi. Ayniqa kamqonlik, oqqon,saraton kabi kasalliklarda tug‘ruq paytida va turli favqulotda holatlarda quyiladigan qonning ahamiyati kattadir. Donorlik inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, odamiylik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Donorlarning himmati tufayli xar yili millionlab insonlarning hayoti saqlab qolinadi. Ayniqa kamqonlik, oqqon,saraton kabi kasalliklarda tug‘ruq paytida va turli favqulotda holatlarda quyiladigan qonning ahamiyati kattadir. Donorlik inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, odamiylik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

G‘arb tibbiy Bioetikasida diniy va dunyoviy qarashlarida keskin farq mavjud, chunki dunyoviy qarashlarda diniy qarashlarning ayrim jihatlari keskin tanqid qilinadi. Islom falsafasida esa tibbiy amaliy etika alohida yo‘nalish sifatida shakllanmagan, ammo axloqiy qarashlarning tibbiyotdagi ahamiyati, ilmiy izlanishlarda va amaliyotda uning ijobiy tomonlari tahlil etiladi. Musulmon Sharqi mutafakkirlari insonning ruhiyati, qalbi va axloqiy –ma’naviy tomonlarini tibbiyotdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaganlar va axloqiylikni tibbiyot ilmining bir bo‘lagi sifatida qaraganlar. Al-G‘azzoli tabiblarni insonning tanasini va ruhiyatini davolovchi ikki guruhga ajratadi. Ikkinci toifadagi tabiblar insonning yuragini davolaydi, yurak bu yerda nafaqat inson organi shuning bilan bir qatorda insonning o‘zligini anglashi va vijdoni deb ham tushuniladi. Al-Roziy esa “tibbiyot” termini

inson organizmini davolash va profilaktikasini anglanishini ta'kidlaydi, "tibbi ruhoni" atamasi esa insonning ma'navyati, axloqi va xulqini takomillashtiruvchi tushuncha sifatida tahlil qilinadi.

Hozirgi zamон amaliy etikasining muhim yo'naliшlaridan biri-inson hayotining eng oliv axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hozirgi zomon fanida Bioetika etika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy reguliyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzlusiz aloqasini ma'naviy tahlil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik Bioetika etikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika, sotsial masalalar bilan birligida, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri -shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetik muammoning dolzarblashuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez o'zgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyusion jarayonlari uchun ilgari millionlab yillar kerak bo'lsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin bo'ldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini ko'tarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta o'qish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday ma'naviy mezonlarga ko'ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari Bioetika etikaning tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur hodisa so'nggi bir necha o'n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a'zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo'li bilan o'tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to'g'ri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yo'naliшdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o'zo'ziga va o'zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog'liq ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik etika» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, ya’ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o‘z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi shunda. Biz yuqorida noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalarimizda ekologik buhroilarning ba’zi ko‘rinishlariga to‘xtalib o‘tdik. Biroq, yana undan tashqari so‘nggi paytlarda jahon bo‘ylab sintetik jismlar ishlab chiqarishning keng yo‘lga qo‘yilganligi, hayvonot va ayniqsa o‘simliklarning gabrid usulida yangi turlarining vujudga keltirilishi singari hadislar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo‘sh, ular tabiat bilan silngishib, uyg‘unlashib keta oladimi, tabiat ularni o‘ziniki qila biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlari, yuqorida aytib o‘tganimiz - muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo‘lar?...

Abort. Amaliy etikaning anchadan buyon ko‘pchilikka ma’lum muammozi, bu – abort. Ma’lumki, to‘rtinchı haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo‘ladi. Sakkizinchı haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta’biri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo‘lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo‘sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo‘qmi? Yoki AQSH olimlari tomonidan «inson zotini yaxshilashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko‘raylik. Ularda «yaxshilangan» - sog‘lom, kuchli intellekt egasi bo‘lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasi o‘rniga ko‘chirib o‘tkazish tajribalarini olib borish mo‘ljallangan. Ular amalda tatbiq etilsa, asta-sekinlik bilan insoniyat irsiyat jamg‘armasining (genofondining) bir yoqlama o‘zgarishiga olib kelishi shubhasiz.

Homila tushirish (abort) – vrachlar, siyosatchilar, yuristlar, faylasuflar va olimlarning bunday muhim qarorlar qabul qilish mas’uliyati munosabati bilan ko‘riladigan masala. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, ayol barcha asrlarda ham o‘z farzandlarini o‘ldirgan. Bunday farzandkushlik qadimgi jamiyatga (ayniqsa, matriarxat davriga) ko‘proq xos bo‘lgan. Buning asosiy sababi – ayol o‘zi tug‘ishi mumkin bo‘lgan barcha bolalarni boqib katta qilishga jismonan qodir bo‘lmagan. Qadimda yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga ancha shafqatsiz munosabatda bo‘lingan, natijada faqat kuchlilar yashab qolgan.

Rumo papasi buni inson zotiga, insoniy tabiatga aralashuv, uni zo‘rlik yo‘li bilan o‘zgartirish, nafaqat katta gunoh, balki o‘ta axloqsizlik deb atadi. Xo‘sh, bunday tajribalarini qanday baholash kerak? Bu savollarga ham Amaliy etika javob topmog‘i lozim.

O‘lim jazosi. O‘lim, ma’lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o‘lim. Shunga ko‘ra, o‘lim jazosining huquqiy jihatdan qo‘llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o‘ldirmaslik ekanini ta’kidlaydilar. Buni imom G‘azzoliy «Mukoshafaat ul – qulub»da shunday keltiradi:

«Termiziy va boshqa hadischilar rivoyat qiladilar:

Rasulluloh buyurdilarki:

... Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili shular ustiga qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo‘ladi:

1 – Qonni (odam o‘ldirishni) halol hisoblasa;

2 – Ollohdan boshqa iloh yo‘qligiga guvohlik (shahodat) bermasa;

3 – Farz bo‘lgan namozni va ro‘zani inkor etsa».³²

Demak inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtai nazardan ham nafaqat tan olinadi, balki birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

O‘lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u - jinoyatchini jazolashdan ko‘ra, undan o‘ch olishga qaratilgan, qadim-qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», yangilangan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida esa insonning muayyan jinoyatni sodir etgan hatti-xarakatlari qoralanishi kerak, uning o‘zi emas, u qilgan yovuzlik o‘limga mahkum etilishi lozim - odamni emas, yovuzlikni o‘ldirish oqilona ish emasmi?! Yovuzlikni o‘ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?!

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o‘lim jazosi kamdan-kam hollarda adolatli hukm bo‘lib chiqadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki shu yaqin-yaqinlarda, sho‘rolar tuzumi davrida O‘zbekistonda o‘tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag‘on paytida otishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ana shu davrlarda o‘limga hukm qilinganlarning juda ko‘pchiligi ke-yinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo‘lingan: nohaq jazolangan - qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko‘rolmaydilar.

Uchinchidan, hatto demokratik jamiyatlarda sudsarning hamma vaqt ham yuz foiz to‘g‘ri va adolatli hukm chiqarishiga kim kafolat beradi - hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan

³² Фаззолий. Мукошаат ул-қулуб. Тошкент. 253-б.

odamga nima foyda?

Bu misollarning hammasida o‘lim - tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldangan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsning axloqsizligi sifatida baholanadi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko‘pgina demokratik mamlakatlarda o‘lim jazosining bekor qilinishini o‘sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog‘liq ijobiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dadil qadamlar qo‘yliganligi - avval yosh nuqtai nazaridan o‘lim jazosini qo‘llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha), keyinroq esa uni butunlay bekor qilishga qaratilgan insonparvarlik harakatlari quvonarli voqeа. Bu nafaqat bizga, balki Yer yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumjahoniy muammo. Amaliy etika oldida ana shunday, tobora globallashib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda yetakchilik qilish vazifasi turibdi. Zero mazkur global muammolarni bugungi kunda Amaliy etikaning ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Mamlakatimizning chinakam mustaqillikka erishishdan iborat o‘z yo‘li respublikani rivojlantirishning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanishini ta’kidlab Islom Karimov «Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an’nalari va urf-odatlaridan kelib chiqadi”, -degan fikrni aytgan edi³³. Darhaqiqat, chuqur ildizi o‘tmishdagi an’naviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoaviylik asoslari O‘zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Bu borada xalqimizdagи mehmondo‘stlik, sahovatpeshalik, millatidan qatiy nazar odamlarga hayrixohlik, mehr-muravvatlilik, o‘zgalar kulfatiga hamdard bo‘lish, o‘zaro yordam tuyg‘usi, kishilar o‘rtasidagi madaniy-axloqiy munosabatlarning asosiy meyorlaridan hisoblanadi. Respublikamizda amalga oshiralayotgan isloxotlarning asosida ham, shuningdek, odamlarning turmush tarzida, kundalik hayotida, ruxiyatida hamda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda anshunday ma’naviy omillar sezilarli ta’sirga ega. Zero, mamlakatimizda boshlanadigan har bir yil insonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan nom bilan atalayotganligi “Inson islohot uchun emas, isloxit inson uchun” tamoyiliing amaldagi ifodasi bo‘lab bormoqda.

Jamiyatimizdagи hozirgi yangilanish jarayonida axloqshunoslikning o‘z o‘rnini bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas’ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo‘lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo‘ladi.

³³ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. Ўзбекистон. 1993. 40-бет.

Yangicha yondashuvlardan biri-axloqshunoslikda milliy g‘oya va mustaqillik mafkurasiga e‘tiborni kuchaytirish bilan bog‘liq. Chunki zamonaviy komil inson an’anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan yangicha mafkuramizni o‘zida mujassam etgan, milliy g‘oyani o‘z ruhiy olamiga singdirgan yetuk shaxs bo‘lmog‘i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni o‘zida uyg‘unlashtirgan ma’naviy hodisalarga aylanmog‘i kerak. Chunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o‘ta siyosiylashtirilgan g‘oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma’naviy parvozlarga da’vat etuvchi botiniy kuchdir.

Ma’lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgani tufayli xalqimiz faqat yangi mustamlakachilik zanjiridangina ozod bo‘lib qolmadı, balki ijtimoiy tuzum o‘zgarishini boshdan kechirdi va kechirimoqda. Salkam bir asrlik totalitar tuzum xalqni «temir qo‘lqoplar» yordamida ushlab turdi: «yuqori»ning gapi-gap, shaxsning fikri mutlaqo inobatga olinmasdi, erkinlikning har qanday ko‘rinishi davlatga qarshi jinoyat sifatida baholanar, chizib qo‘yilgan chiziqdan chiqish mumkin emas edi. Jamiyat siniflarga bo‘lib tashlanib, uning a’zolari yagona kommunistik mafkura asosida tarbiyalanardi. Nimani gapirish yoki gapirmaslik, nimani o‘qish yoki o‘qimaslik, nimani yozish yoki yozmaslik v.h. siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma’naviy xatti-harakatlarning hammasi avvaldan belgilab qo‘yilar, fuqarolardan jonli robotlar tarzida yashash talab qilinar, aks holda har qanday shaxs qamoqqa yoki ruhiy kasalxonaga tashlanar yoki fuqarolikdan mahrum qilinib, bir umr muhojirlikka, hatto o‘limga mahkum etilar edi. Ana shunday «temir» siquv va qo‘rquv ostida yashagan xalqning birdan ozodlikka chiqishi, daf’atan hamma o‘zini erkin his qilishi silliq kechishi mumkin emasligi, hattoki ma’lum darajada xavfli ekani tabiiy.

Shuni ta’kidlash zarurki, so‘nggi yillar mobaynida kishilarning ijtimoiy ongida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Endilikda qadriyatlarni yangicha baxolash, ularni takomillashtirish, ilg‘or milliy an’alarni saqlagan xolda umuminsoniy qadriyatlarni hurmatlash tuyg‘usi shakllanmoqda. Respublikamizning yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo‘li ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’rifiy, ma’naviy-madaniy va boshqa sohalarini qamrab oladi. Bu yo‘l mustaqil O‘zbekiston ichki va tashqi siyosatining umumiyy strategiyasini belgilab beradi. Shu bois yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlaydi. Shu bois, mamlakatimizning ijtimoiy-ma’naviy sohalarida amalga oshirilayotgan isloxoatlarda ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, ma’naviy-madaniy merosga ijobiy munosabatda bo‘lish, xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi an’analarni rivojlantirish, uning guzalligini ro‘yobga chiqarish muhim

ahamiyatga ega.

Kishilarning turmush tarzi va madaniyatini, maishiy hayotini takomillashtirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamma vaqt jamiyatning muhim va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Axloqiy fazilatlar, ularni shakllantirishning milliy jihatlari har doim saqlanib qoladi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga moyil bo‘ladi. Xalqimizning milliy ma’naviyati, o‘ziga xos axloqiy fazilatlari, turmush tarzi madaniyati bugungi kundagi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridandir. Shuningdek, turmush tarzi madaniyatining milliylik xususiyatlari xalqning an’anolari va urf-odatlarida, kundalik hayoti va ma’naviy turmush sohalarida o‘z aksini topadi.

Nazorat savollari:

1. Ilmiy texnik taraqqiyot natijasida yuzaga keladigan axloqiy va estetik muammolar.
2. Internetning axloqiy-estetik tafakkurni o‘zgarishiga ta’siri xaqidagi fikringiz.
3. Illatning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta’siri xaqidagi fikringiz?
4. Illatlarning ko‘rinishi, turkumi, xususiyatlari xaqida nimalarni bilasiz?
5. Axloqiy muhit va ekologik axloq deganda nimalarni tushunasiz?
6. Bioetika masalari xususida nimalarni aytma olasiz?
7. Tibbiyot estetikasi va bioetika xaqida nimalarni bilasiz?

**З-мавзу: Ахлоқ психологияси. Руҳий таҳлил йўналиши ва
ғайризўравонлик. Гендер муаммолари. Аёл ва эркакларнинг оддий хулқ-
авори ва мотивациясининг ахлоқийлиги ва рационаллиги. (2-соат)**

РЕЖА:

- 3.1. Ахлоқ психологияси
- 3.2. Руҳий таҳлил йўналиши ва ғайризўравонлик.
- 3.3. Давлат хизматчилари этикаси ва имиджи.
- 3.4. Гендер муаммолари
- 3.5. Аёл ва эркакларнинг оддий хулқ-атвори ва мотивациясининг ахлоқийлиги ва рационаллиги

Tayanch iboralar: axloq, axloq psixologiyasi, ruhiy tahlil, g‘ayrizo‘ravonlik, Gender muammolari, xulq-atvor, motivatsiY.

3.1. Axloq psixologiyasi

Axloq psixologiyasi – shaxs ichki ruhiy dunyosining tashqi amaliy xattixarakatlarida namoyon bo‘lishi. Axloq psixologiyasi ikki faktor asosida shakllanadi: Ta’lim; Tarbiya

Har bir inson o‘ziga yarasha katta orzular bilan yashaydi. Ushbu orzular kimningdir faqat xayolida aylanib yuraversa, boshqa birov o‘z orzularini amalgamoshirishga qadam-baqadam harakatda bo‘ladi.

Aniq natijaga faqat mana shu o‘z orzulariga qadam-baqadam harakatda bo‘lgan kishi erishadi.

Insonlarga bo‘lgan muhabbatning yo‘qolishi har bir shaxs uchun eng og‘ir va eng qimmatbaho yo‘qotishdir.

Jamoada yaxshi kayfiyat, ish unumdorligining yuqori bo‘lishi uchun rahbarning bekamu ko‘st bo‘lishi uning tashqi qiyofasi, iliq istarasi, muomala madaniyati va boshqa shunga o‘xshash yuzlab omillar albatta katta rol o‘ynaydi.

Ushbu omillarning eng asosiylaridan biri rahbarning o‘z-o‘zini har qanday holatda to‘g‘ri boshqara olishi, axloq va odob normalaridan chetga chiqmasligidir.

Chunki bir marotaba biron hodimni boshqalar oldida haqorat qilgan rahbar boshqalarning nazarida u shunday harakatni takrorlashga qodir, degan fikrda qolaveradi.

Bu o‘rinda axloq normalarining tabiat qonunlari bilan mutanosibligi o‘ta yashovchan bo‘lib ayni shu holatni ko‘zda tutgan mashhur psixologlardan biri G. Selye axloqiy normalar insonning manfaatini ko‘zlashi, uning sog‘lik va imkoniyatlariga ijobjiy ta’sir qiluvchi bo‘lmog‘i kerak, degan edi.

Axloq normalari doimo shaxsning ongi, dunyoqarashi, tarbiyasi, ma'lumoti va boshqa shunga o'xhash shaxsiy ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lib uning hayotidagi ijtimoiy o'rniga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs qanchalik ma'naviy yuksak pog'onada bo'lsa, jamiyatning axloqiy normalaridan shunchalik keng foydalanadi va o'z hayot faoliyatida ko'llagan axloqiy normalar na tabiatga, na jamiyat va jamiyat a'zolariga salbiy ta'sir keltirmaydi.

G. Selye tili bilan aytganda, biologik zarar keltirib boshqa shaxsni stress holatga solmaydi, unga ma'naviy va moddiy zarar keltirmaydi.

Agar Yevropa olimlarining fikrini oladigan bo'lsak, ulardan I. Kant aynan axloq normalari inson o'z ustidan g'alaba qilish bosqichi, deb aytgan edi.

Qadim yunon faylasuflaridan Aristotel axloq normalarigina kishiga nima qilish mumkinu, nima qilish mumkin emasligini ko'rsatadi, deb aytgan edi (Aristotel «Etika» asari).

Har bir rahbar o'z ish faoliyatida nima qilishini va qanday qilishini axloq va odob normalari doirasida olib borar ekan, u albatta, o'z qo'l ostidagi hodimga salbiy ta'sir qilmaydi, G. Selye tili bilan aytganda biologik zarar keltirmaydi. Aristotel tili bilan aytadigan bo'lsak, u ilgaridan nima qilishini biladi.

Jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarni bajarish, ularni o'z shaxsiy xulqida his qilish o'z o'rnida shaxs ruhida ma'lum normativ xulq vujudga kelishiga olib keladi. Ayni mana shu axloqiy norma shaxsning ichki ma'naviy dunyosini tashkil qiladi.

Shaxs qanchalik ma'naviy jihatdan boy ma'lumotga ega bo'lsa, ularga rioya qilsa, uning shunchalik ma'naviy dunyosi, umumiylar dunyoqarashi keng va kamrovli bo'ladi.

Bu o'rinda ma'naviy dunyosi boy, axloqiy normalar pog'onasi yuqori shaxs jamiyatning ideali ravishda boshqalar unga intilishi, taqlid qilishi arzigulik shaxs bo'lib boraveradi.

Bunday shaxslar bilan boshqalarning muomalasi, muloqoti yengil kechib, boshqalar ularga intiladi, ular bilan tanishligidan, birga ishlashidan va umuman undaylar bilan aloqadorligidan odamlar mag'rurlanib yurishadi.

Jamoa rahbariyati tomonidan jamoaning ruhiy, axloqiy, ijtimoiy, tashkiliy, intizomiy va boshqa jamoani jipslashtiruvchi omillarga qaratilgan har qanday faoliyag alohida ahamiyatga egadir.

Jamoa ichki tizimlarining har qanday buginidagi ijobiy o'zgarishlar jamoaning ishlab chiqarish, ma'naviy yuksalish faoliyati sari kuyilgan yangi kadam bo'ladi.

Shuning uchun ham jahon mamlakatlarida faoliyat ko'rsatayotgan firma, konsern va boshqa ishlab chiqarish korxonalarida ijtimoiy-ruhiy muhitni yaxshilashga alohida e'tibor beriladi.

Mehnat jamoasidagi sog'lom ruhiy muhitning tarkibiy qismlarini aytib o'tadigan bo'lsak, ular asosan umumjahon, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga mos kelishi va jamoadagi har bir shaxsning ushbu kadriyatlarni qadri bilan belgilanadi.

Axloq psixologiyasi –shaxs ichki ruhiy dunyosining amaliy xatti-xarakatlarida namoyon bo'lishi. Axloq psixologiyasi ikki faktor asosida shakillanadi. Qadimdayoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istiklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiatini va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi. Ruhshunoslik hissiyotlar sifatida o'rganadigan insondagi ko'pgina ma'naviy hodisalar axloqshunoslik tomonidan falsafiy-axloqiy tushunchalar tarzida tadqiq etiladi.

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, axloqning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rmaslikning aslo iloji yo'q. Axloq inson ortirgan, egallagan bilimlari, malakalari, ko'nikmalari va shular asosida yuz beradigan insonning ruhiy – psixologik kechinmalari bilan bog'liq holda, uning uchun qadrli bo'lgan meroslarga va qadriyatlarga aylanib, inson va insoniyat hayoti, ehtiyojlarini qondirish uchun asos bo'lib boravergan. Insoniyat tomonidan yaratilgan va amaliy hayot davomida ko'plab sinalib, jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotgan ma'naviyat bu inson ruhiyati, psixologik kechinmalari, ya'ni ichki ruhiy holatlari bilan chambarchas bog'liq jarayondir.

Axloqni ichki psixologik jarayon ekanligini etnopsixologiyaning asoschilaridan bo'lgan M. Latsarus va G. Shteyntallar :Bir butun bo'lib yashayotgan va bir – biriga ma'lumot berib hayot kechirayotgan ko'pchilik insoniyatning ma'naviy qonuniyatlarini ochishni etnopsixologiyaning vazifasi deb bilishgan. Millatning, xalqning ma'naviyati va unga xos bo'lgan ruhiyat alohida individlarda yashasa – da, uning paydo bo'lishi, gullab yashnashi va tanazzulga uchrash qonuniyatlarini psixologik jihatlarini o'rganish bu etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya tarmoqlarining vazifasidir.

Shuni ta'kidlash kerakki ma'naviyatning jamiyat, millat, xalq va inson hayotidagi ahamiyati va zaruriy ehtiyoj ekanligi qadimdan ma'lum bo'lib, unga dunyoning buyuuk mutafakkirlari ham o'z diqqatlarini qaratganlar.Deylik rus

mutafakkirlaridan biri bo‘lgan V. I. Dal o‘zining “ Tolkoviy slovar” ida ma’naviyat tushunchasini – bir jon va ruhdan paydo bo‘lgan, avlodsiz, moddiy bo‘lmagan , insonning aql va irodasining mahsuli bo‘lgan, uning ruhiga, tegishli hamma aqliy va ahloqiy quvvatlardir, deb tariflagan. Bu yerda ma’naviyat ruhiy – psixologik holat sifatida inson va jamiyat hayoti uchun, jamiyatning kelajagi uchun zarur bo‘lgan muhim xodisa, aqliy, ahloqiy munosabatlar bilan bog‘liq psixologik kechinmalar va xudo tamonidan berilgan in’om sifatida tushuniladi.

Axloqni aynan insonning ichki kechinmalari, ruhiy ozuqasi sifatida ko‘rilishi, ma’naviyat inson ruhiyati bilan bog‘liq ijtimoiy xodisa ekanligidan dalolat beradi. Agarda Ma’naviyatni insonning ichki ruhiy kechinmasi sifatida olsak, u holda ruhiy tushunchasi, bu kishining ruhiga, psixik kayfiyatiga, ichki kechinmalariga oid xodisa ekanligini bunda insonning ruhiy xolati, ruhiy ko‘tarinkiligi, ruhiy ezilishi, bir so‘z bilan aytilganda xissiy – emotsiyonal psixologik kechinmalar bilan bog‘liq xodisa ekanligi anglanadi. Axloq aynan inson ruhiy o‘sishning ozuqasi sifatida ko‘zga tashlanadi. Haqiqatda ham ma’naviy boy insonning ruhiyati bilan ma’naviy qashshoq insonning ruhiyati o‘rtasida farq yaqqol ko‘rinadi. Ma’naviy boy insonda ruhiy kechinmalar, ya’ni millat, xalq, jamiyat manfaatlari, ehtiyojlari bilan uзвиy bog‘langan bo‘ladi. Ma’naviy boy inson o‘z millati ravnaqi uchun, boshqa qardosh millatlarning mafaatlarini xisobga olgan holda jon kuydiradi. Axloqi qashshoq inson esa har doim o‘z manfaatlari yo‘lida harakat qiladi. Ma’naviyati boy inson har doim jamiyat yutuqlaridan shodlanadi, ruhlanadi va o‘zi ham bu yutuqlarga suyangan holda ma’naviyatga xos bo‘lgan xarakatlarni bajaradi.

Ma’naviyat bu o‘zida millatga, jamiyatga xos bo‘lgan falsafiy, axloqiy, amaliy, nazariy ilm va bilimlarni, malaka, ko‘nikmalarni, inson ahloq va odobini, insonning ahloqiy, estetik, ilmiy yetukligining natijasi bo‘lgan iyomon, e’tiqod, vijdon, insof, ixlos, insonning shular asosida paydo bo‘lgan dunyoqarashining yig‘indisi va ichki ruhiy holati deb qarash mumkin. Lekin shu bilan ma’naviyatni tor ma’noda tushunb qolish mumkin emas. Balki ma’naviyat bu insonning butun faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan, insoniyat taraqqiyoti davomida ortirgan bilimlari, ilmlari, amaliy malakalari bilan bog‘liq bo‘lgan va inson ruhiyatiga kuch – qudrat berib turadigan murakkab jarayondir.

Axloq masalalarini o‘rgangan etnopsixologiyaning asoschilaridan bo‘lgan V. Vundt tilni, afsonalarni va an’analarni o‘rganish bu xalqning ma’naviyatini, ruhiyatini o‘rganishning o‘zi ekanligini ta’kidlagan. Axloqni o‘rganish xalqning aniq tarixiy sharoitdagi psixologiyasini, ruhiy emotsiyonal kechinmalarini o‘rganish ekanligini rus psixolog T.G. Stefanenko ham o‘z asarlarida ko‘rsatib o‘tadi. Xaqiqatda ham millat, xalq ma’naviyatida unga tegishli bo‘lgan ehtiyojlarni, manfaatlarni qondirish xissi, o‘z an’analardan, urf – odatlaridan shodlanish,

qoniqish, ruhan ko‘tarinkilik va kelajakka ishonch kabi xissiy kechinmalar o‘tadi. Bu ma’naviyatga xos bo‘lgan jarayonlar insonni va jamiyatni kelajakka bo‘lgan ishonchini ortiradi, uning ruhan o‘ziga va atrofidagi insonlarga bo‘lgan munosabatida ma’naviyatga xos munosabatlar bo‘lishiga umid yaratadi. Bu esa unga xar doim kuch va qudrat berib turadi. Insonni o‘z ichki ruhiyatiga suyanishga va undan ma’naviy qudrat olshga imkon yaratadi.

Millat va xalqning axloqini muhim bo‘lagi bu uning ona tilidir. Ona tili o‘zida millatga tegishli bo‘lgan barcha ma’naviy boyliklarni jamlaydi. Unda xalqning ruhiyati, madaniyati, ma’naviyati o‘z aksini topadi. Bu haqida Birinchi Prezidentimiz shunday deb yozadi: “Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy – ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir “.³⁴ Haqiqatda ona tilining taraqqiyoti bu millatning ijtimoiy psixologik jarayoni bo‘lgan o‘zligini anglashi, milliy ongning va tafakkurning ifodasidir.

Ma’naviyatni inson ruhiyati, jamiyat ijtimoiy psixologik jarayonlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ma’naviyat insonni yangi kechinmalar, his – tuyg‘ular bilan boyitadi. Ma’naviy boy inson ruhiyatidagi kechinmalarni hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Vatanga bo‘lgan muhabbat, millatparvarlik tuyg‘ulari, oila ma’naviyati, mahalla va ma’naviy tarbiya, urf - odat, an’analarga va qadriyatlarga bo‘lgan munosabat, yoshlarga berilib kelayotgan ta’lim – tarbiya, jamiyatda yuz beruvchi ijtimoiy munosabatlar va shu kabi ma’naviyatga xos masalalar Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida o‘z ifodasini topgan. Bu asr o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim xujjat bo‘lib xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ma’naviyat bu insonga kuch va qudrat bag‘ishlab turuvchi, uning ruhiyatini boyituvchi ijtimioiy jarayon. Inson bu ma’naviyatga har doim zaruriyatni o‘zida sezib turadi.

Mehr ma’naviy-axloqiy, falsafiy hamda psixologik tushuncha sifatida keng ma’noga ega. Mehr so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida (arabchadan olingan bo‘lib sevgi, muhabbat; moyillik) insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo‘lgan samimiyy muhabbati; yaxshi ko‘rish tuyg‘usi; shafqat, rahmdillik; iltifotlilik tarzida ta’riflangan. Uni psixologik kategoriyadan biri deb hisoblash mumkin. Psixologiyada mehr tushunchasi sevgi, muhabbat, g‘amxo‘rlik, e’tibor, empatiya-simpatiya ko‘rinishlarida uchraydi. Ushbu so‘zlar insonlarning kundalik turmushida foydalanadigan mehr tushunchasiga ma’nodosh.

³⁴ И.А.Каримов “ Юксак маънавият – енгилмас куч”. Т. 2008 й. 83-бет

Mehr shaxsning kamolotini belgilovchi omillardan biridir. O‘z navbatida mehr shaxsning “psixologik imkoniyat”ni yuzaga chiqarishda turtki beruvchi vazifani bajaradi. Psixologik imkoniyat vazifasiga ko‘ra insonning hayotga bo‘lgan qiziqishi, intilishi, hayotga va atrof-olamga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish xohishini jonlantirib turadi. Psixologik imkoniyatlar shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarishida faollashtiruvchi, favqulodda holatlarda to‘siqlarni yengib o‘tishida, qiyinchiliklarda dalda beruvchi va quvvatlovchi kuchdir. Shuningdek, insonda o‘ziga ishonch va dadillikni tiklovchi hamda uning muntazamligini ta’minlovchi omillar ham psixologik imkoniyatlardir.

Bugungi globallashuv, shiddatli taraqqiyot, axborotlashuv sharoitida tarbiya va axloq masalalari Abdulla Avloniy aytganidek “yo hayot, yo mamot, yo najod yoki sharofatli o‘lim” darajasidagi muhim masalaga aylanib bormoqda. Buni “ommaviy madaniyat” ning salbiy ta’siri natijasida yoshlardagi og‘ish holatlarining namoyon bo‘lishi (Yevropa va Amerikadagi bir jinsli nikoh, yoshlarning zargarli odatlarga berilish holatlari, insoniylik normalarining o‘rnini hayvoniylik, shaxvoniylilik yegallashi...) va o‘zligini anglamaganlik oqibatida “siyosiy o‘yinlar qurbaniga” aylanib qolish (Arabiston yarim oroli va Misrdagi “Arab bahori” nomi bilan atalgan tartibsizliklar) holatlarini misol sifatida keltirib o‘tish mumkin. Ushbu vaziyatda yoshlar asosiy nishonligi achinarlidir. Agar yoshlarda ma’naviy bo‘shliq bo‘lmasa hamda ularning psixologik imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmalari shakllantirilsa xulq-atvorida og‘ishlar yo‘qoladi, ma’naviy barkamollik, psixologik sog‘lomlik va immunitet shakllanadi. Bu esa o‘ziga xos xavfsizlik va himoyalanishni ta’minalashni mustahkamlaydi. Faylasuf va psixolog Erix From “Inson qalbi” nomli asarida mazkur muammo yuzasidan o‘zining bir qator fikrlarini bildirgan. Uning talqinicha, insonning hayotni sevishi, ezgulikka moyilligi, psixologik sog‘lomligi, o‘zining xaqiqiy qiziqishlari va intilishlariga tayanib ish tutishini “biofiliya” deb atagan. “Biofiliya” insonning bolalik davrida ko‘rsatiladigan mehr-muhabbatga bog‘liq shakllanar ekan. Bunda uni o‘rab turgan muhitning iliq munosabatlarga asoslanganligi, tahdidlarning yo‘qligi, ichki hotirjamlik va uyg‘unlikka olib boruvchi tamoyillar asosidagi tarbiya, insonlar bilan jonli muloqot kabi sabablar muhim ahamiyat kasb etadi. “Biofiliya” tushunchasiga qarama qarshi bo‘lgan tushuncha ham mavjud bo‘lib, u “nekrofiliya” deb ataladi hamda o‘limni sevish, yovuzlik, qonxo‘rlikka nisbatan moyillikni anglatadi. Uning shakllanishi esa, insonning qo‘rquv tahdidi, tashabbus yetishmasligi, zerikarlilik va qoloqlik ustiga qurilgan hayot tarzi hamda ratsionallik o‘rniga mexanik yashash tarzining o‘rnatalganligi va bu insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda bevosita namoyon bo‘lishi haqida ta’kidlab o‘tgan. Bunda natijasida u o‘zi bilan narsissizm (egoizmning yuqori ko‘rinishi), sadizm (o‘ta shavqatsizlik) va umumiy

tubanlashuvga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, Erix Frommning ta'kidlashicha, biofiliyaga moyil insonlardan tashkil topgan ijtimoiy muhitda o'sgan bola ham biofiliyaga moyil bo'ladi. Yana u nekrofiliya ham xuddi biofiliya singari "yuqumli" ekanligini aytib o'tgan.

Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan haqiqat. Shunday ekan, u tug'ilganidan boshlab hayotining ohirigacha e'tiborga, g'amxo'rlikka, qo'llab quvvatlashga, muhabbatga bir so'z bilan aytganda mehrga ehtiyoj sezadi. Shu o'rinda psixolog A.Maslouning ehtiyojlar nazariyasiga e'tibor qaratilsa, o'rtamiyona inson hayoti davomida muhabbatga (mehrga) bo'lgan ehtiyojining 50 foizini qondirishi taxmin qilinadi. Demak, bu miqdor pasaysa insonda salbiy tomonlama axloqiy, psixologik, patologik va biologik o'zgarishlar sodir bo'lish olib keladi.

Chikago universiteti tibbiyat markazi mutaxassislarining kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, shaxsga bolaligidan yetarlicha e'tibor qaratmaslik, u bilan emotsiyal muloqotga kirishmaslik, "mehr yetishmaganlik sindromi"ni paydo qiladi. Bu esa, bola ulg'aygach unda yurak-qon tomir kasallikkleri va insultni shakllantiradi. Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqod natijalari, yuqoridagi farazni isbotladi. Unda Yoshi 55 dan yuqori bo'lgan 1000 kishi orasida so'rov o'tkazilgan va so'rovnama o'z ichiga "sizning ota-onangiz bolaligingizda sizga e'tiborsizlik, qattiqqo'llik, rahmsizlik qilishgan?", "sizning ota-onangiz siz bilan yetarlicha muloqot qilmagan?", "Sizning ota-onangiz sizga mehr ko'rsatmagan?" kabi savollarni ham qamrab olgan. So'rovdan 3,5 yil o'tgach respondentlardan 257 tasi turli kasalliklar sababli vafot etgan, ulardan 89 tasida esa falajlanish alomatlari aniqlangan. Statistika shuni ko'rsatadiki, o'sha 89 kishi orasida har to'rttadan uchtasi so'rovlarda yoshligida ota-onalar mehridan mosuvo bo'lishganligini e'tirof etgan insonlar bo'lib chiqqan. Tadqiqod rahbari bo'lgan doktor Robert Uilsonning fikriga ko'ra: "o'tkazilgan tadqiqod maqsadi bolalarga mehr va e'tibor yetishmaslik sindromi keyinchalik ularda uchraydigan yurak qon-tomir muammolari bilan bog'liqligini isbotlashdir".

Shu o'rinda ma'naviy manba, Imom G'azzoliyning Riyozatun-nafs asaridan quyidagi fikrlarni ko'rib o'tish maqsadga muvofiq, "Qachonki bolada chiroyli xulq, maqtovga arzigelik bir fe'l sodir bo'lsa, uni hurmat bilan sharaflamoq, ko'nglini quvontiradigan narsa bilan taqdirlamoq, ko'pchilik orasida bu fe'lini izhor etmoq zarur" (Abu Homid G'azzoliy, 2006). Aksariyat psixologlar ham bolaning psixologik ehtiyojlari haqida so'z yuritganda, yuqoridagi ta'kidlanganlarga uyg'un nazariyalarni ilgari surishadi. Bolada psixologik harakterga ega, farzandlik ehtiyojlari mavjud bo'lib, ular: maqtovga bo'lgan, qo'llab-quvvatlashga, pozitiv

muloqotga, e'tiborga, hamkorlikka bo'lgan ehtiyoj (o'yin yoki xo'jalik yumushlarida...) va boshqalarni tinglashlariga bo'lgan ehtiyojlardir (YE.D.Titov).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir ota-onas o'z farzandini kamolotini ko'rishni istaydi va bu yo'lda harakat qiladi. Bugungi kunda ayrim insonlar "o'z farzandlarini moddiy jihatdan ta'minlab qo'yish bu – farzandiga mehr berishdir" degan "fikrni" qattiq ushlab olgan. Bunda ular bor shijoati bilan moddiy ta'minot ustida bosh qotiradi, tirishadi yoki moddiy ta'minlab qo'ygan bo'lsa "ota-onalik vazifasi bajarildi" qabilida ish tutadi. Lekin, o'z farzandlarida axloqiy, ma'naviy jihatdan og'ish (jumladan: zararli odatlarga berilish, aggressivlik, erta yosh davrlaridanoq qarama-qarshi jins vakillariga bo'lgan qiziqish, shaxvoniylilik, odamovilik, depressivlik, affektivlik, yurak va qon-tomir hastaliklari kabi turli psixologik va fiziologik salbiy o'zgarishlar) holatlari yuzaga kelgandagina, buning sababini qidira boshlaydilar. Bunda muammo, qondirilmagan ehtiyoj (mehrga bo'lgan ehtiyoj) sababli yuzaga kelgan bo'ladi. Chunki, psixolog olim Zigmunt Freydning fikriga va shunday nazariyasiga binoan "qondirilmagan ehtiyojlar insonda og'ish holatini yuzaga keltiradi". Bejizga donishmand ajdodlarimiz "mehribon bo'linglar, dunyo – mehr ustiga qurilgan, mehr guldir" demaganlar. "Mehr-e'tibor orqali nav-nihol bola, kelajakda har qanday tabiiy hodisotga chidamli, baquvvat, tekis va baland, mustahkam tomirlarga ega daraxtdek shaxs sifatida shakllanadi". Shunday ekan farzand tarbiyasida ularga o'z vaqtida mehr-e'tiborni taqdim etish joiz, zero "mehr ko'rgan – mehr ko'rsata oladi". Shuningdek, psixologlar ogohlantiradiki, "ehtiyojlarning haddan ziyod qondirilishi ko'ngilhushlik va bema'nigarchiliklarning omili bo'ladi". Demak, bu o'rinda "oltin" o'rtamyonalikni topish zaruriyati hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir talaffuz qilingan jumlada talaffuz qiluvchining ruhiy- aqliy olami aks etib turadi. Yani u so'zni qanday va qay tarizda qo'llay olishi bilan suhbatdoshiga o'zi mansub bo'lgan ichki olam, o'ni qonun qoidalari haqidagi xabar mazmunini ham yetkazadi.

Farzndlarga qilingan yumshoq yoki qo'pol muomala o'larning ruhiy dunyosida, albatda, ijobiy yoki salbiy taassurot qoldiradi. Ota- onalar va tarbiyachi o'qituvchilar bolalarning fe'l- atvorini, qiziqishini, ularning ruhiy dunyosini chuqr bilgandagina tarbiya samarali bo'ladi.

Muloqot - odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni - jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomonidan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. YA'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday

ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib yetmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir.

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir - birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterlik, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi. Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular el nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda anglash, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqliki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha

kun o‘tgach, u turgan yerda bir o‘rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g‘or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o‘rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg‘ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo‘lgan ehtiyojining to‘la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o‘zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko‘pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirkagan, ayniqsa, gaplashib o‘tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma - yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o‘z oldida turgan hamkasbiga qarab ko‘proq, tezroq ishlashga kuch va qo‘sishimcha iroda topadi. To‘g‘ri, bu hamkorlikda o‘sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o‘rtasida o‘zaro simpatiya hissi bo‘lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdoorlikka bevosita ta’sirini o‘rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya’ni so‘rovnama asosida bir - birini yoqtirgan va bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Muloqot jarayoni o‘ziga xos ravishda murakkab bo‘lib, bunda uch xil bosqich mavjud. Dastlabki bosqich – odamning o‘z-o‘zi bilan muloqotidir. T.Shibutani “Ijtimoiy psixologiya” darsligida: «Agar odam ozgina bo‘lsa ham o‘zini anglasa, demak, u o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi» – deb to‘g‘ri yozgan edi. Odamning o‘z-o‘zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o‘z- o‘zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o‘zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak boshqalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichidir. A. N. Leontyev o‘zining “Psixika taraqqiyotidan ocherklar” kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o‘rtasidagi muloqotning ahamiyati to‘g‘risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o‘lib ketganida, insoniyat turi yo‘q bo‘lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo‘qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o‘z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo‘ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg‘or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta’lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

3.2. Ruhiy tahlil yo‘nalishi va g‘ayrizzo‘ravonlik.

Insoniyat tarixi mobaynida qadimda ilgari surilgan g‘oyalar keyinchalik

mohiyatan yangilangan, o‘zgargan holda yana maydonga chiqishini kuzatish mumkin. Bu hodisa axloqshunoslik sohasiga ham tegishli. XX asrda yuzaga kelgan va amaliyotda muvaffaqiyatga erishgan yovuzlikka qarshi zo‘ravonlik ko‘rsatmasdan kurashish - g‘ayrizo‘ravonlik axloqshunosligi ana shunday «yangilangan eski g‘oya»lardan.

Ma’lumki, yovuzlikni yo‘qotish, to‘g‘rirog‘i, kamaytirish, zaiflashtirish barcha davrlarda ham asosiy axloqiy muammo bo‘lib kelgan. Qadimgi dunyodagi va O‘rtaschlardagi Sharq mutafakkirlari yovuzlikni kuchsizlashtirishning yo‘li - unga qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik, deb bilganlar. Bunday yondashuvni qadimgi hindlar va xitoylarda (yo‘ga, jaynchilik, buddhachilik, daochilik), nasroniylikdagi Iso alayhissalom da‘vatlarida, musulmonlikdagi tasavvuf namoyandalarida ko‘rish mumkin. Lekin bu davrlarda yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslikni faqat sabr-toqat, Xudoga tashlab qo‘yish orqali amalga oshirish mumkin deb bilganlar. Agar hazrati Iso o‘z ummatlariga «O‘ng yuzingga ursa, chap yuzingni tut», degan bo‘lsalar, buyuk mutasavvif va shoir, yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy o‘z hikmatlaridan birida shunday deb yozadilar:

*Zolim agar jafo qilsa, Alloh, degil,
Ilking ochib, duo aylab, bo ‘yun sungil.³⁵*

Lekin avvalgi davrlardagi bu qarashlarning mohiyati chidam va bardosh bilan cheklangan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan hamda hozirgi paytda muvaffaqiyatli davom etayotgan yovuzlikka qarshi zo‘ravonlik ko‘rsatmaslik ana shu sabr-bardosh, chidam orqali bo‘ysunishni emas, balki kurashishni taqozo etadi. Ana shu yangilangan, mohiyati o‘zgargan axloqiy yo‘nalishning ibtidosida XIX asr mutafakkiri amerikalik faylasuf-axloqshunos **Henri Deyvid Toro** (1817 - 1862) turadi. Bu yo‘nalish doirasida keyinchalik, XX asr boshlarida Lev Tolstoy (1828 - 1910), keyinroq buyuk hind mutafakkiri va jamoat arbobi Mohandis Karamchand Gandhi (1869 - 1948), amerikalik ruhoni, faylasuf, jamoat arbobi Martin Lyuter King (1929 - 1968) singari mutafakkirlar izlanish olib bordilar. Shuningdek, AQShdagi Albert Aynshtayn instituti direktori professor Jin Sharp, Polsha Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Anjey Gjegorchik, Rossiya Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Abdusalom Guseynov singari zamondosh olimlarimiz ham mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Mazkur yo‘nalish asoschisi Toro o‘zi yoqtirmagan amerikacha jamiyatdan bosh olib chiqib, 1845 yilning bahoridan 1847 yilning kuzigacha Uolden ko‘li

³⁵ Яссавий. Девони қикмат. Т., Ў.Ҷулом номидаги нашриёт – матбаа бирлашмаси, 1992, 35 – 6.

bo‘yida kulba qurib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Keyinchalik shu tajriba asosida «Uolden yoki o‘rmondagi hayot» asarini yozadi. Bundan tashqari u «Fuqaroviylar itoatsizlik», «Massachussetdag‘i qulchilik» singari maqola va esselarida ham g‘ayrizo‘ravonlik axloqshunosligi g‘oyalarini ilgari suradi. Toro hayotda ham ana shu g‘oyalarga amal qiladi: soliq to‘lashdan bosh tortadi. Kunlardan birida shaharga tushganida, uni soliq to‘lamagani uchun qamab qo‘yishadi. Kimdir uning o‘rniga soliq summasini to‘lab yuborgandan keyingina Toroni qamoqdan chiqarishadi. U o‘zining bu xatti-harakatini quyidagicha tushuntiradi: «Menda, agar shunday imkoniyatim bo‘lgan taqdirda ham, dollarlarimga odam sotib olishlarini yoki odamni o‘ldirish uchun miltiq sotib olishlarini kuzatib turishga ishtiyoq yo‘q». ³⁶ Mutafakkir quldorlik hukm surayotgan Amerika Qo‘shma Shtatlari hukumati bilan har qanday aloqani uzishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi va boshqalarni ham shunga chaqiradi.

Toro g‘ayrizo‘ravonlik inqilobi g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. Uning fikricha, agar minglab odamlar soliq to‘lamasa, u zo‘ravonlik ham, qonli chora ham hisoblanmaydi; aksincha, soliq to‘lash davom etaversa, davlatga zo‘ravonlik qilish va begunohlarning qonini to‘kish uchun imkon berilgan bo‘ladi. Fuqaroviylar itoatsizlikning zarur shartini faylasuf, shunday qilib, hammaning soliqdan bosh tortishida ko‘radi. Keyingi bosqich, Toroning fikriga ko‘ra, ish tashlash, davlat xizmatchilarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishdan bosh tortishlaridir. Ana shunda tinchlik yo‘li bilan, qonsiz inqilob amalga oshadi. Lekin mazkur bosqichlardan avval har bir inson o‘zini axloqiy jihatdan tayyorlash bosqichini boshdan kechirishi, ya’ni o‘z ongi va qalbida shaxsiy inqilob qilishi zarur. Faqat yuksak darajadagi axloqiy tayyorgarlikkina pirovard maqsadga ko‘ngildagidek yetkazishi mumkin.

Biz avvalgi bobda axloqiy qarashlarini ko‘rib o‘tganimiz buyuk rus yozuvchisi, mutafakkir Lev Tolstoyning g‘ayrizo‘ravonlik masalasiga yondashuvi mazkur yo‘nalishning asl mohiyatini ochib berishga ko‘maklashadi.

Gandi g‘ayrizo‘ravonlik g‘oyasini muhabbat bilan bog‘laydi va dushmanga ham mehrni darig‘ tutmaslikka chorlaydi. Gandi Xirosima va Nagasakiga atom bombasi tashlanganida, atom bombasini boshqa bomba bilan yo‘qotib bo‘lmagani kabi zo‘ravonlikni zo‘ravonlik qilib yo‘qotish mumkin emas, degan fikrni bildirib, shunday deydi: «Insoniyat zo‘ravonlikdan faqat g‘ayrizo‘ravonlik yo‘li orqali qutulishi mumkin. G‘azabni faqat mehr bilan yengsa bo‘ladi. o‘azabga g‘azab bilan javob berish g‘azabning yoyilishiga va kuchayishiga xizmat qiladi». ³⁷

Martin Lyuter King ham xuddi shunday g‘oyani ilgari surar ekan, AQShning mashhur Prezidenti Linkoln hayotidan misol keltiradi. Nima sababdandir Linkolnni

³⁶ Торо Г. Уолден или жизнь в песу. М., Наука, 1980. С. 416.

³⁷ Ганди М. Моя жизнь. М., Наука, 1969. С. 568.

ko‘rarga ko‘zi yo‘q Stenton degan kishi saylovoldi kampaniyasida qo‘lidan kelgan yomonlik bilan unga qarshi kurashadi. Linkolnni har qadamda yerga radi, ming xil gunohda ayb-laydi, masxaralaydi, hatto uning tashqi ko‘rinishi us-tidan kuladi. Linkoln Prezident bo‘lib saylangach, harbiy vazirlik lavozimiga aynan ana shu Stentonni ko‘rsatadi. Atrofidagilar unga: «Janob Prezident, Siz xato qilyapsiz, u Sizning dushmaningiz, uning Siz haqingizda nimalarni gapirganini bilasizmi?!» deb qarshi turadilar. Shunda Linkoln bunday deb javob beradi: «Ha, janob Stentonni bilaman. Uning men haqimda nimalar deganini ham eshitganman. Lekin harbiy vazirlikka undan boshqa biror-bir loyiq amerikalik yo‘q». Oradan bir necha yil o‘tgach, Linkoln o‘ldiriladi. O‘sanda qabr ustida so‘zlangan barcha nutqlardan Stentonning nutqi alohida ajralib turadi. U Linkolnni eng buyuk insonlardan biri deb ta‘riflaydi va: «Endi u mangulikka daxldordir», deb o‘z nutqini tugatadi. Agar Linkoln Stentonga g‘azab bilan qaraganda, ikkisi ham o‘lguncha bir-birining dushmani bo‘lib qolar edi. Linkoln mehr-muhabbat vositasida dushmanni do‘stga aylantirdi. U bir paytlar o‘ziga savol bergen ayolga savol bilan shunday deb javob bergen ekan: «Xonim, axir men o‘z dushmanlarimni do‘stlarimga aylantirish yo‘li bilan halok etmayapmanmi?!».³⁸

G‘ayrizo‘ravonlik axloqshunosligiga qisqacha to‘xtalib o‘tishimizning o‘zidayoq, biz bu yo‘nalishning kelajakdagi asosiy axloqiy ta’limotlardan biri bo‘lib qolishini ilg‘ashimiz mumkin. Shaxs, guruh, millat, xalqlar o‘z istaklarini, mavjud mustabid tuzum va hukumatdan noroziliklarini tinch yo‘l bilan bildirishlari hamda o‘z maqsadlariga zo‘ravonliksiz, qon to‘kmasdan erishishlari mumkinligi - insoniyatning ulkan yutug‘i. Chunki qonli kurashlar, inqiloblar, terror, qurolli qo‘zg‘olon singari hodisalar muayyan millat va mamlakat erishgan yutuqlarni yo‘qqa chiqaradi, o‘lim, vayronagarchilik, ma’naviy qadriyatlarning oyoqosti bo‘lishi singari ulkan fojialarga olib keladi.

3.3. Davlat xizmatchilari etikasi va imidji.

Davlat xizmatidagi xodim deganda, davlat organlarining huquqlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi, fuqarolar uchun huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni amalga oshiruvchi va xizmat majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun og‘ir javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxslar nazarda tutiladi.

Davlat xizmatidagi xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati bir-biriga mutanosib bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan mansabdor shaxslarda siyosiy

³⁸ Кинч М.Л. Любите врагов ваших. Журнал «Вопросы философии», 1992, № 3. С. 69–70.

hislatlar bilan bir qatorda, axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida: “Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – o‘zimiz mas’ul bo‘lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas’uliyat bilan bajarishni ta’minalashdan iborat. Shunday davr keldi,³⁹ – bejizga ta’kidlamagan.

Jamiyatda mutlaq, abadiy va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan *kasb axloqida* ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo‘lishi mehnatning bir turi bilan band bo‘lgan kishilar guruhining kasb - hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassislikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu esa har bir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyan turdagи harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o‘ziga xos ko‘nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi.

Davlat xizmatchilari xulq-atvori bilan jamoada boshqa davlat xizmatchilari bilan o‘zaro ishchanlik va amaliy hamkorlik qaror topishiga da’vat etilgan.

Davlat xizmatchilari xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni hurmat qilishi shart. Davlat xizmatchilari o‘ziga bo‘ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan qo‘pollik qilmasligi, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida ish sharoitlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog‘liq holda davlat xizmatchilarining tashqi ko‘rinishi fuqarolarning davlat organiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga yordam berishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo‘lishi, ular rasmiyligi, vazminligi va

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иктисодий дастурнинг энг муҳим устивор йўналишлари” га бағишлиланган Вазирлар Махкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. www.gov.uz

tartibliliqi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

Davlat xizmatchilar xizmatdan tashqari vaqtida umumiyligini qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.”⁴⁰

«Imij » so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib, “*obraz, timsol*” degan ma’noni anglatadi. Tanishuvning dastlabki daqiqalaridayoq sizning imij iningiz to‘g‘risidagi taassurot paydo bo‘ladi. Kimki o‘zining tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutish, ravon va ma’noli nutqi, xushmuomala fe’li, mehribonligi bilan o‘zi haqida yaxshi imij yarata olsa, shubhasiz, omad eshiklarini osongina ocha oladi.

Ko‘pincha iste’dodli va mehnatsevar, katta imkoniyatga ega odamlar kerakli, zaruriy imijlari yo‘qligi bois mansab pillapoyalaridan yuqoriga ko‘tarila olishmaydi. Bunday omadsizlik asosan, o‘z imkoniyati, kuch-qudratiga yetarli baho bera olmaslikdan, o‘ziga ishonmaslikdan kelib chiqadi.

O‘z shaxsiy imijini yaratishda o‘z imkoniyatini yaxshi bilish, unga kerakli baho bera olish, muayyan vaziyatlarda o‘zini tuta olish eng muhim narsa.

Imijeologiya – odamlar uchun yoqimli bo‘lish san’ati va ilmi. Imij iologiya ilmiy-amaliy fan bo‘lib, o‘zida psihologiya, menejment, notiqlik, axloq, ishchan etiket kabi bir qator sohalardagi bilimlarni sintez qilgan holda mujassam etadi.

Imijeologiya fani inson, xodim, rahbar, tashkilot, jamoa, firma, shahar, millat, davlat kabilarning mazmun-mohiyati asosida vujudga kelgan tashqi ko‘rinish, uning qiyofasi, salobati va ularning obro‘yi, shuhratga erishishining tarixiy tajribalari, ilmiy asoslari, shakllarini o‘rganadi. Imijmeykerlik faoliyati yordamida ularning shuhratini va nufuzini oshirish imkoniyatlari ochib berildi. U, eng avvalo, shaxs, rahbar, ijodkor va ishbilarmon odamning qiyofasi, nufuzi, obro‘yi, fikri, so‘zi, harakatlari va ish faoliyatlari yordamida obro‘ orttirish, hurmatga sazovor bo‘lish, shuhrat qozonish, insonning eng yaxshi tomonlarini ochish va targ‘ib qilishga va o‘z darajasiga yarasha mavqega ega bo‘lish kabilarni tadqiq etadi.

Imijeologiya inson, xodim, rahbardagi yomon illatlarni yo‘qotish, soxta obro‘ orttirayotganlarni fosh qilish, insondagi eng ajoyib ijobiy hislatlarni umumlashtirgan holda go‘zal va barkamol, jozibali, ko‘rkam, istarali, yoqimtoy, sevikli odam bo‘lishni o‘rgatadi. Imijeologiya oljanoblik, farosatlilik, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik kabi insoniy fazilatlar, maqsadga muvofiqlik, mantiqiylik, go‘zallik, axloqiylik, inson madaniyati, o‘git va ibrat, ustoz va shogird an‘analariga tayangan holda insonning nufuzini ko‘tarish, obro‘ini oshirish, hurmatga sazovor qilish yo‘llarini ochib beradi.

⁴⁰ Давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ходимларининг одоб-ахлоқ намунавий қоидалари. Вазирлар Махкамасининг 2016 йил 2 мартағи 62-сон [Карори](#). www.lex.uz

Avvalo, nimaga erishmoqchisiz shuni oydinlashtirib olishingiz lozim, chunki har bir jamoa doirasining o‘z imiji bo‘ladi.

Tanishuvning birinchi daqiqalarida bizning imijimiz o‘zgalarda biz haqimizdagi dastlabki taassurotni paydo qiladi.

Unutmangki, palapartish kiyingan kishini hech qayerda xush kayfiyat bilan kutib olmaydilar.

Imijingiz sizning qiziqishlaringiz, insonlarga bo‘lgan munosabatingiz, madaniyatingizni anglatadi. Chunki o‘zini va o‘zgalarni unchalik nazarga ilmaydigan kishilargina bachkana, palapartish kiyinib, insonlar ko‘ziga ko‘rinishdan andisha qilmaydi.

Tashqi ko‘rinish nafaqt ayollar uchun, balki erkaklar uchun ham juda ahamiyatlidir. Yana bir bor ta’kidlash joizki, kiyinish insonning didi, dunyoqarashini, qay darajada tartibli ekanligini ochib beradi.

Sizning tashqi ko‘rinishiningiz - muvaffaqiyatga erishishingizdagi muhim omillardan biri.

3.4. Gender muammolari

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o‘rinli deb bilaman:

“Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”.

Jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo‘lgan sog‘lom avlodni tarbiyalash oila va unda ayolning tutgan o‘rni bilan chambarchas bog‘liqdir. Huquqiy madaniyatni shakllantirish eng avvalo oiladan boshlanadi. Huquq va majburiyatlar borasida ilk tushunchalar shakllanadigan, dunyoqarash teranlashadigan oila muhitiga e’tibor fuqarolik jamiyatni qurishning dastlabki omillaridandir.

Mamlakat tarixida ilk bor Senat raisligiga ayol kishi – Tanzila Norboyeva saylandi. Ma’lumki, Norboyeva O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘ribbosari, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi bo‘lib ishlagan.

Mazkur sohadagi qonunchilik choralariga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minalash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019 yil sentabr oyida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar

qabul qilindi. BMTning deyarli barcha agentliklari, jumladan BMT Taraqqiyot Dasturi, BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (YUNFPA), BMT Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF), BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi, BMTning Narkotik moddalar va jinoyat boshqarmasi, Xalqaro migratsiya tashkiloti ushbu ikki qonun bo‘yicha o‘z izoh va takliflarini berishdi.

Gender tenglik bo‘yicha institusional choralarga kelsak, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta’minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo‘yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish bilan shug‘ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirdorligi markazi, Hukumat huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi.

Mazkur yangi tashkil etilgan barcha institusional mexanizmlar O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda BMT Konvensiyasiga muvofiq ayollar huquqlari, gender tengligi va xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berishning yagona yaxlit mexanizmiga aylanishi masalaning muhim tomonidir.

Ta’kidlash joiz, qabul qilingan normativ-meyoriy hujjatlar va amaliy choratadbirlar O‘zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro meyor va standartlariga to‘liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan.

Ayniqsa, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun ko‘p yillik muhokamalardan so‘ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish, ularga boshpanalar ajratish, ishonch telefonlari va nafaqat jismoniy zo‘ravonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilish uchun asosdir. Bunday choralar, xususan, BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tomonidan uzoq vaqt davomida tavsiya qilib kelingan.

Gender siyosatining monitoringi va samaradorligini baholash sohasida www.gender.stat.uz saytida qo‘srimcha 54 ta gender ko‘rsatkichlarini kiritish orqali muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda davomiy izchil ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu yerda nafaqat qabul qilingan ko‘rsatmalar, balki ularning xalqaro

majburiyat va standartlarga muvofiqligi, joylarda o‘z vaqtida va aniq bajarilishi ham muhim axamiyatga ega.

Shu ma’noda, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Shu bois ham olib borilgan tadqiqot oila muhitida qonunlarga hurmat hissini tarbiyalovchi ijtemoiy mexanizmlarni o‘rganish, uning nazariy-metodologik asoslarini yaratish, so‘ngra uni aholi o‘rtasida, har bir oilada yoshlar ongiga singdirishning amaliy yo‘riqlarini aniqlab, ushbu yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish uchun yangi dasturlar ishlab chiqishni taqazo etadi.

Tarixdan ma’lumki Bizgacha ayollarni har tomonlama ximoya qilishga qaratilgan xarakatlar qilingan. 1899-yil 14-apreldagi London konferensiyasida ayollardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun ularni yollashga qarshi kurash to‘g‘risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. Bir qancha davlatlarda foxishabozlikka qarshi kurash maqsadida milliy qo‘mitalar tashkil etilishiga kelishildi. Shunga asosan faoliyatining yo‘nalishi qizlarning axloqiy-ma’naviy buzilishining oldini olish, tartibsiz jinsiy hayot kechiruvchi foxisha ayollarni sog‘lom turmush tarziga qaytarish hamda axloqiy -manaviy buzuqlikning zararlarini targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan ayollarni himoya qiluvchi milliy qo‘mitalar tashkil etila boshlandi. Bunday qo‘mitalar 1990-yil Rossiyada, 1901-yil Italiyada, 1902-yil Ispaniyada va boshqa qator davlatlarda tashkil topdi. Ular bir-birlari bilan kuchli aloqa qilgan holda xalqaro uyushmani tashkil qilishdi va Londonda Markaziy idora – Xalqaro byuroga asos solindi. Xalqaro Byuro har uch yilda Xalqaro Kongress chaqiradigan bo‘ldi. Bu qo‘mitalarning faoliyati axloqqa qarshi huquqbazarliklarga, xususan foxishalikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

XXI asr bo‘sag‘asida axloqqa qarshi huquqbazarliklar bilan bog‘liq muommolar dolzarb tus olib, jamiyat turli sohalarining normal rivojlanishiga jiddiy xavf sola boshladi. Bu davrda axloqqa qarshi huquqbazarliklar, xususan foxishalik va pornografik mahsulotlar tarqatilishiga qarshi kurash muommolariga doir xalqaro-huquqy normalar har tomonlama chuqurroq tahlil qilinib, yanada takomillashtirildi. 1996-yil avgustda Stokgolmda bo‘lib o‘tgan Bolalarni tijorat maqsadida seksual eksplutatsiya qilishga qarshi Butunjahon kongressida qabul qilingan Deklaratsiya bolalarni foxishabozlik maqsadida foydalanishidan himoya qilish uchun davlatlardan barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

1999-yil Venada Internet jahon axborot tarmog‘ida bola pornografiyasining tarqalishiga qarshi kurash bo‘yicha Xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Bu

konferensiya xulosasiga ko‘ra bola pornografiyasi mahsulotlarini ishlab chiqish, tarqatish, eksport qilish, uzatish, import qilish, qasddan saqlash va reklama qilishni butun jahon bo‘yicha jinoyat deb e’lon qilish taklif etildi.

Bola mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risidagi 1999-yilgi 182-konvensiya Xalqaro Mehnat Tashkiloti har bir azosining zimmasiga bola mehnatining eng yomon shakllari uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish va qo‘llash, bola mehnatining eng yomon shakllariga barham berilishiga erishish uchun boshqa zarur choralarini ko‘rish majburiyatini yukladi.

Konvensiyada ilk bor bolalar mehnatining eng yomon turlari tushunchasiga mukammal xalqaro-huquqiy ta’rif berildi. Unga muvofiq, mazkur tushuncha o‘z ichiga foxishabozlik bilan shug‘ullanish, pornografiya mahsulotlari tayyorlash yoki pornografik tomoshalarda ishtirok etish uchun boladan foydalanish, uni yollash yoki taklif qilishni ham qamrab oladi.

Ijtimoiy - siyosiy munosabatlar boshqaruvining ma’naviy axloqiy asoslari globallashuvi va universallashuvi, ularning milliy xususiyatlari rivojlanishini istisno qilmaydi. Bundan tashqari jamiyatning rivojlanish xususiyatlari va ularning mezonlari doimiy ravishda dinamik o‘zgarib turishi bilan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar boshqaruvining hazariy tahlil doirasini kengaytirib borishni taqozo qilmoqda.

Jismonan sog‘lom, ma’nan kuchli va aqlan yetuk avlodni yaratish - oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois mustaqil davlatimizda oilaning mustahkam bo‘lishiga, uning tarbiyaviy imkoniyatini oshirishga tobora katta ahamiyat berilmoqda, bu masala hukumatimizning rasmiy hujjalarda qonun bilan himoyalangan va kafolatlab qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida: «Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘unidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega», - deb ko‘rsatib berilgan.⁴¹

3.5.Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi va ratsionalligi

Bugungi kunda ayollar uchun qator imtiyozlarni o‘z ichiga qamrab olgan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, farmonlari va Oliy Majlis qonunlari e’lon qilindi va amalga oshirilmoqda. Birinchi Prezident I.A. Karimovning «Xotin-qizlarga munosabat jamiyatimizning ma’naviy, axloqiy yetukligining o‘lchovi bo‘lib xizmat qilishi kerak», - degan so‘zлari mag‘zida behad katta ma’no, qolaversa, ulkan vazifa yotibdi.⁴² Ana shulardan kelib chiqqan holda,

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон. 2001 .-17 6.

⁴² Каримов И.А. Ўзбекистон – буюк келажак сари. –Тошкент: Ўзбекистон. 2001. -25 6.

biz xotin-qizlarimizning huquqiy bilimlarini oshirish uchun kuchlarimizni birlashtirishimiz lozim. Shundagina qad rostlayotgan huquqiy davlatchiligidan o‘zbek ayolining boy intellektual ijodiy quvvatidan ham to‘la foydalanish imkoniga ega bo‘lamiz.

Barchaga ma’lum, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minalash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Beshinchchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minalash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minalash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institusional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minalash uchun mas’ul mansabdar shaxslarni tegishli huquqiy meyorlar asosida o‘qitish.

O‘zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta’minalash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Gender tengligini joriy qilish nuqtai nazaridan ta’limdagi ijobiy siljishlarni alohida ta’kidlash kerak. YA’ni, 2017 yildan boshlab aksariyat oliy o‘quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo‘yicha sirtqi bo‘limlar faoliyati tiklandi. Ta’limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

Xotin-qizlarimizga ilm-fanda, ma'rifat va ta'lim-tarbiyada o'z faolliklarini namoyon qilishlariga ko'maklashish, ijodiy izlanishlari uchun moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratib berish, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishga da'vat etish ijtimoiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

Oilada, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish maqsadida hamda 1999 yilni "Ayollar yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishida ko'rsatib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan xolda⁴³ "Xotin-qizlarni oiladagi, davlat va jamiyat qurilishidagi rolini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha 1999 yilga mo'ljallangan tadbirlarning davlat dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida⁴⁴ ayollar manfaatlarini, onalik va bolalakni muhofaza qilish, davlat, jamiyat qurilishi va madaniy qurilishda, jamiyatni ma'naviy va demokratik yangilashda ularning rolini oishirishning huquqiy asolarini takomillashtirish, oilada, qulay ma'naviy-axloqiy oilaviy muhitni, bolalarni tartiyalash shart-sharoitlarini, moddiy-maishiy turmush sharoitlarini shakllantirishda ayollarning maqomi va rolini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan edi.⁴⁵

Ma'lumki, ijtimoiy huquqlar insonga davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordam bilan belgilanadi. Ushbu guruhga shaxsning kasalligi tufayli, keksaligi yoki boquvchisini yo'qotganligi sababli, bolalar tarbiyasi bilan, shuningdek umumiyl mehnat qobiliyatini qisman, vaqtincha yoki butunlay yo'qotgan paytda davlat tomonidan yetarli mablag' bilan ta'minlash kabi vakolatlar kiradi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 9-12 moddalarida esa mehnat qilish va mash-g'ulotni erkin tanlab olish,adolatli ish haqi olish; kasaba uyushmalari tuzish va ularga a'zo bo'lish, ijtimoiy ta'mi-not, yetarli turmush darajasi huquqi, ochlikdan holi bo'lish, sihat-salomat bo'lish va bilim olish huquqi belgilangan. Mazkur huquqlarning ta'minlanishi, albatta boshqa huquqlarning, ayniqsa ayollar masalalari bilan bog'liq qonuniy hujjatlarning axloqiy asoslarining ta'minlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Zero, bu bog'liqlik bevosita ayollar huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

⁴³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши. "Халқ сўзи" газетаси. 1998 йил, 10-декабр.

⁴⁴ "Хотин-қизларни оиласидаги, давлат ва жамият қурилишидаги ролини кучайтириш, уларнинг хукукий, ижтимоий, иқтисодий ва маънавий манбаатларини химоя қилиш тизимини такомиллаштириш бўйича 1999 йилга мўлжалланган тадбирларнинг давлат дастури тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг қарори. "Халқ сўзи" газетаси. 1999 qbk? 19 февраль.

⁴⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши. "Халқ сўзи" газетаси. 1998 йил, 10-декабр.

Biroq, bugungi kunda ayrim ayollarimiz huquqiy saviyasi pastligi, qonunlarni mensimasligi tufayli huquqbazarlik xolatlarini sodir etmoqdalar. Ular tomonidan an'anaviy jinoyat turlari bilan birga o'g'rilik, xaridirlarni aldash, kamomadlik kabi iqtisodiy jinoyatlar, shuningdek tan jarohati yetkazish, qasddan odam o'ldirish, bezorilik, giyohvandlik moddalari bilan shug'ullanish, hujjatlarni qalbakilashtirish kabi ijtimoiy xavfli jinoyatlar ham sodir etilmoqda. Eng achinarlisi shundaki, ham milliy ham diniy axloqqa zid bo'lgan g'ayriaxloqiy xolatlar hisoblangan qo'shmachilik va buzuqchilik bilan shug'ullanib jinoiy javobgarlikka tortilganlarning soni ortib bormoqda.

Xalqaro hamjamiyatda keng foydalaniladigan "gender tenglik" tushunchasi – erkaklar hamda ayollar davlat va jamiyat hayotning barcha sohalari, jumladan, boshqaruv, qarorlar qabul qilish va xavfsizlik sektorida tenglik asosida ishtirok eta olishini nazarda tutadi.

To'g'ri, mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar tengligi mustahkam huquqiy asosga ega. Konstitusiyamizda ularning teng huquqli ekanliklari kafolatlangan. Mehnat qonunchiligidagi ham gender tengligi belgilangan.

Biroq shunga qaramasdan mehnat bozorida munosib o'rin egallash uchun xotin-qizlarning imkoniyatlari amalda ayrim sohalarda chegaralangan.

2019 yil 2 sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun mamlakatimiz ravnaq yo'lida sobitqadam bo'lish, aniq natijaga yo'naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqish hamda qonunda belgilangan tamoyillar asosida muhim natijalarga yerishishga zamin yaratdi.

32 ta moddadan iborat ushbu qonunda "gender", "gender statistikasi", "gender-huquqiy ekspertiza", "jinsiy kamsitish" tushunchalari va turlari; mazkur yo'nalishda vakolatli organlarning vazifalari va funksiyalari; davlat boshqaruvida ishtirok etishda, ishga qabul qilish yoki yollashda, kreditlar olishda va tadbirdorlik bilan shug'ullanishda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha normalar; gender tenglik buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda javobgarlik masalalari aks ettirilgan.

Qonunda erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlashning asosiy prinsiplari belgilangan.

Qonunda alohida modda bilan jinsi bo'yicha kamsitish hisoblanmaydigan holatlar ham batafsil ochib berilgan.

E'tiborli jihat, qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihibalarining gender-huquqiy ekspertizasini o'tkazishga oid alohida norma belgilangan. Bu esa, bugungi kunda qonun hujjatlari va ularning loyihibalari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazib kelinayotgani kabi gender tenglik nuqtai nazaridan ham huquqiy ekspertizadan o'tkazilishiga asos bo'ladi.

Qonunning yana bir muhim jihat, unda gender statistikasini shakllantirish mexanizmi ochib berilgan. Davlat statistika organlari mazkur statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish, ularni doimiy yangilab borish uchun vakolatli organ etib belgilangan.

Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi Vazirlar Mahkamasi va Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha komissiyasining, shuningdek, davlat organlarining vakolatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtiroki belgilangan.

Qonunda xotin-qizlar va erkaklarni ishga qabul qilishga oid normalar belgilangan bo'lib, ularga ko'ra davlat xizmatidagi bo'sh lavozimlarni, shu jumladan, rahbar lavozimlarini egallash uchun tanlov e'lon qilinadi. Buning uchun davlat organlarida maxsus komissiyasi tuzilib, nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

Mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha ish beruvchining majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgani ham qonunning muhim jihatlaridan biridir.

Qonun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo'yicha konvensiyasi talablariga mos keladi.

Milliy qonunchiligidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni kafolatlashga qaratilgan yaxlit qonunning mavjud emasligi uzoq yillardan beri xalqaro hamjamiyat, xususan, BMT tegishli tuzilmalarining keskin muhokamalariga, ta'bir joiz bo'lsa, ye'tirozlariga sabab bo'lib kelgan.

Shu bois ham qonunning qabul qilinishi O'zbekistonning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoida va tamoyillariga sodiqligini yana bir karra namoyon yetib, dunyo hamjamiatidagi o'rni va nufuzi yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu qonun erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlashni tartibga solishda muhim qadam bo'ldi.

Gender – inglizcha "gender" – "zot" so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi. Jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi universal biologik farq bo'lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, ya'ni individning biologik jinsga – erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo'ladigan biologik belgilar birligidir. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi jiddiy bo'limgan farqlar ularning biologik xususiyatlariga taalluqlidir. Biroq erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlardan tashqari, o'z tabiatiga ko'ra biologik sabablarga asoslanuvchi ko'plab farqlar bor, ya'ni ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflarida ko'plab farqlar mavjud. Ta'kidlanganidek, erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollar xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun

gender atamasi qabul qilingan. Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy ma'noda ikki tushuncha – biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Kundalik hayotimizda jins bilan bog'lanmagan ko'plab tushunchalar "erkaklarga xos" yoki "ayollarga xos" deb hisoblanadi. "Erkaklarga xos" yoki "ayollarga" xos tushunchalarni aniqroq farqlash uchun "feminlik" (ayollik) va "maskulinlik" (erkaklik) tushunchalari qabul qilingan. Yangi tushunchalarning kiritilishi erkaklarga xoslik va ayollarga xoslikning biologik ziddiyatini bartaraf etish va e'tiborni turli madaniyatlar shakllanishining ichki mexanizmlarini gender nuqtai nazaridan ochishga qaratish imkonini berdi. Antropologlar, psixologlar va sotsiologlar genderning biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilanishi, madaniy va tarixiy jihatdan esa nisbiy ekanligini ta'kidlaydilar.

Ijtimoiy jins ijtimoiy amaliyot yordamida tashkil qilinadi. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar meyoriy tizimi vujudga keladi; tegishli tarzda ushbu jamiyatda "erkaklarga oid" va "ayollarga oid" bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo'ladi. Gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato yetgan xususiyatlar yig'indisidir. Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga jins, faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsn tashkil yetgan narsadir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyat va tilga ega. Gender ayollar va erkaklarga ta'sir ko'rsatuvchi barcha ijtimoiy jarayonlarda mavjud, tashkil topadi va qayta tiklanadi. Genderning ijtimoiy tashkil topishi nazariyasida uchta asosiy tushuncha farqlanadi: jins, jinsiy mansublik va gender.

Mustaqil respublikamizda esa, xotin-qizlarining ijimoiy-siyosiy sohalarda teng huquqlilik tendensiyasiga bugungi kunda to'laqonli mos kelishini misollar asosida ham ko'rish mumkin.

Jumladan, hukumat tarkibidagi rahbarlik vazifalarida ishlovchi ayollar ayni damda 16 foizni, Konstitusiyaviy sudda 20 foizni, Oliy sudda 14,6 foizi, Oliy xo'jalik sudida 15,8 foizni tashkil etadi. Shuningdek, boshqa jabhalarda, ya'ni sanoatda 42,8 foiz, qishloq xo'jaligida 42,4 foiz, maorif, madaniyat va fanda 2,9 foiz, sog'liqni saqlashda 75,9 foizni xotin-qizlar tashkil etadi.

O'zbekiston boshlang'ich va o'rta maktabda gender notenglikka barham bergani tahsinga sazovor. O'zbekistondagi xotin-qizlar ta'lim olishda tengdirlar. 2017 yili qizlar boshlang'ich ta'lim sohasida 50%ni, o'rta maktabda esa 54%ni tashkil etgan. O'tgan yilgi statistik ma'lumotga ko'ra, oliy ta'lim sohasida xam xotin-qizlar soni ortgan va talabalarning 40% xotin-qizlar bo'lgan, bu 2011 yildagi ko'rsatkichdan 36% ko'p demakdir. Xotin-qizlarning savodxonlik darajasi esa 99,98%ni, ya'ni dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichardan birini tashkil etadi.

O‘zbekiston bunday yutuqlardan faxrlansa arziydi.

Ish joylarida O‘zbekistonda hanuz gender notenglik kuzatilmoqda, bu masalaga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. O‘zbekiston statistika qo‘mitasiga ko‘ra, 2017 yili iqtisod sohasida erkaklarning 61,5%, ayollarning esa 38,5% mehnat bilan band bo‘lgan. BMTning xabar berishicha, o‘rta ta’lim olgan xotin-qizlarning faqat 35% ishlaydi, oliy mu’lumotli xotin-qizlarning 68% ish bilan ta’minlangan. Mehnat qilayotgan xotin-qizlar qancha ko‘p bo‘lsa, oila tushumi va mamlakat iqtisodiy o‘sishi uchun shuncha yaxshidir.

Albatta, hukumatimiz tomonidan ayollarga doimiy alohida e’tibor qaratilib, ularga keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligining boisi bor. U ham bo‘lsa kelajak bunyodkori bo‘lmish yoshlarni tarbiyasiga ko‘proq javob berguvchi inson, ayollar bo‘lganliklaridir.

Ammo, yuqorida zikr etilgan fikrimizni o‘rni kelgansa qayta-qayta e’tirof etish joizki, ayrim ayollarning bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganliklari keng jamoatchilikni doimiy e’tiborida bo‘lib turgan muammolardandir. Ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy-ma’naviy e’tibordan chetda qoldirish jinoyatchilikning kelib chiqish sabablaridan biridir. Ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar nisbatan ijtimoiy xususiyatga egaligi bilan tashvishlidir.

Ayollar jinoyatchiligi avvalo oila tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayol jinoyat sodir qilsa oilada ahloqiy-ma’naviy muhit izidan chiqadi, unda o‘sib kelayotgan avlod ongi va qalbida vayronkorlik tuyg‘ulari tarkib topadi.

Voyaga yetmaganlar va xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilikning sodir etilishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri - oila ajrimlaridir. Ajrimlar va notinch oilalar bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo‘lib turibdi. To‘g‘ri, mustaqillik yillarida ajrimlar ko‘rsatkichi 1,5 barobar kamaygan bo‘lsa-da, uning asorati doimo xavf solib turadi. So‘nggi yillardagi statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, yiliga o‘rtacha 14,5 - 15 ming nikoh bekor qilinadi. Misol uchun 2003 yilda jami 161747 ta nikoh qayd etilgan bo‘lsa, shu yilning o‘zida FXDYO idoralari orqali 5614 ta nikoh bekor qilingan. Bu raqamga sud idoralari orqali bekor qilingan nikohlar soni qo‘silsa, u respublikada istiqomat qilayotgan har ming aholiga 0,6 ko‘rsatkichni tashkil etadi. Agar ajrimlarni, ya’ni ajrashib ketayotgan erkak va ayollarni yoshiga ko‘ra tahlil qilsak, eng ko‘p ajrim 20-34 yoshni beradi. Bu asosan oilaviy turmushning birinchi 4 yili 35,5%) va 5-9 yillari demakdir. Ajrim tufayli o‘rtacha har bir noto‘liq oilada 2,5 nafar bola qoladi. To‘g‘ri, ayrim ayollar ikkinchi nikohga kiradi, ma’lum ma’noda kimningdir yordamida shu bolaga to‘laqonli tarbiya berishga intiladi. Lekin bu ko‘rsatkich jami ayollarning 3,3 foizini tashkil etadi, shaharda bu ko‘rsatkich 6,3 foizni tashkil etadi, xolos. Demak, turmush o‘rtog‘idan ayrilgach ona o‘z bo‘yniga bolalar tarbiyasi, ro‘zg‘orni yuritish kabi katta mas’uliyatni olishga majbur.

Shuningdek, Xususan, ayollarning shaxsiy turmushidagi zo‘ravonlik muammosi jamiyat va davlat tomonidan e’tiborni talab etmoqda. Bu muammo faqat bizning davlatimizda emas balki mustaqil hamdo‘stlik davlatlari va boshqa rivojlangan davlatlarda ham o‘z yechimini topmagan va uni hal qilish yo‘llari ko‘rsatilmagan. Amerika va Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida mazkur muammolarni hal qilishga kirishildi. Ular 10-15 yil muqaddam masalaning muhimligini anglab, ayollarni turli zo‘ra-vonlikdan muhofaza qilish to‘g‘risida tegishli qonuniy hujjatlar qabul qildilar va jabrdiyda ayollarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus ijtimoiy xizmat sohalarini tash-kil etdilar. Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonliklarning sodir etilishi inson huquqlarini jiddiy buzilishiga olib keladi.

Bugungi kunda oila a’zolari ongiga yetkazilishi lozim bo‘lgan eng muhim qonuniy hujjatdan biri - Nikoh shartnomasi bo‘lib, unda er-xotin o‘rtasidagi axloqiy, ma’naviy, mulkiy munosabatlarga oid ko‘rsatmalar berib o‘tilgan. Respublikamiz aholisining 40 foizini voyaga yetmaganlar tashkil qilishi hamda har bir oilada o‘rtacha 5-6 nafar farzandlar borligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ayollar huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligining monitoringi tizimini yaratish dolzarb ekanligi yana bir bor namoyon bo‘ladi. Chunki onasi jinoyat sodir etgan, qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalarning jinoyat sodir qilishi hech gap emas.

Ayollarga nisbatan uchraydigan zo‘ravonliklarning eng ko‘p shakllariga ularni birga yashashga, fohishalik qilishga majburlash, nomusiga tegish, zo‘ravonlik qilish va spirtli ichimlik, giyohvandlik moddalar iste’mol qildirish, muntazam xo‘rlash va ruhiy ta’sir ko‘rsatish hamda boshqa yo‘llar bilan o‘limga olib borish kabilar kiradi. Tajriba ko‘rsatadiki, bunga oilada bo‘lib turadigan uzoq davomli jan-jallar ham sabab bo‘ladi.

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishiga, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik jahondagi barcha mamlakatlarga, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidan qat’i nazar, mavjud holat hisoblanadi. Hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham shunday holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Yaponiyada 59 foiz ayol jismoniy zo‘ravonlik qurboni bo‘ladilar. AQShda 40 foiz, Kanadada 25 foiz va hakozo. Sotsiologlar xulosasiga ko‘ra, 60 mln. ayol turli shakldagi kamsitilish, tahqirlash va zo‘ravonlik qurboni bo‘ladilar. Afrika mamlakatlarida (Tanzaniya 60%), Janubiy Osiyo (60%), Lotin Amerikasida (57%) ayollarga nisbatan zo‘ravonlik kuchayib borayotganligini ko‘rish mumkin. Zo‘ravonlik nati-jasida juda katta iqtisodiy zarar ko‘riladi, ayollarning ish joyida mehnat unumдорлиги kamayadi, oilaning ma’naviy-axloqiy tomoniga, uning normal rivojlanishiga tiklab bo‘lmas darajasida zarar yetadi.⁴⁶

⁴⁶ Карапг.:Холиков Д.Р. Хукукий маданият олила мустаҳкамлиги асоси. /Масъул мухаррир В.Каримова: Республика “Оила” илмий-амалий маркази. –Тошкент: Фан. 2007. -138 б.

Ayollarning haq-huquqlari davlat hududining barcha qismlarida, xoh qishloqda bo'lsin, xoh shaharda bo'lsin birday ta'minlanishni talab etadi. Zero, qonunchilik aktlarining mukammallashuvi ham har bir jamiyatning inson huquqlariga va ayniqsa ayol huquqlarini ta'minlashga bo'lgan xohish va intilishlariga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, oiladagi turli nosog'lom munosabatlar, janjal-to'palon, ichkilikbozlik, qimorbozlik kabilar shaxsning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu munosabatlar ota-onalar o'rtasidagi nizolar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu munosabatlarning oldi olinmasa, ular ortib boradi. Xulk-atvor normalaridan chetga chikuvchi o'smirlar ayniqsa, yolg'iz, ota-onalardan biri o'gay bo'lgan oilalarga ko'proq to'g'ri keladi.

Demak, shaxsning rivojlanishidaga eng muhim omil - tarbiya masalasi. Yosh avlodni tarbiyalash deganda, biz farzandlarni axloqan pok, odobli, estetik boy, jismonan baquvvat qilib kamol toptirishni tushunamiz. Shu bilan birga, ijtimoiy tarbiya huquqiy va, umuman, madaniy tarbiyani ham o'z ichiga oladi. Asosiy maksad chukur ma'lumotli, har jixatdan yuksak madaniyatli va ongli, jamiyatimizning aktiv fuqarolarini tayyorlashdir.

Nazorat savollari

1. Axloq psixologiyasining mavzusi va tushunchasi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Axloqiy munosabatlarning inson xarakteriga ta'siri xaqidagi fikringiz?
3. Axloqni ichki psixologik jarayon ekanligi haqida nimalarni bilasiz?
4. Davlat hizmatchisi etikasi va imiji deganda niman tushunasiz?
5. Gender muammolarining umuminsoniy va milliy xususiyatlari xaqida nimalarni bilasiz?
6. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori xaqidagi fikringiz?
7. O'zbekistondagi gender munosabatlariga e'tibor xaqida nimalarni bilasiz?

4-мавзу:

Касбий одобнинг ахлоқий маданият билан уйғунлиги; касбий эркинлик ва касбий бурчнинг ахлоқий моҳияти. Этикет замонавий ахлоқнинг назарий ва амалий асоси. Эстетик англаш тушунчаси ва унинг индивидуал характеристи. Модернизация жараёнларида эстетик фаолиятнинг кўринишлари. (2-соат)

РЕЖА:

- 4.1. Касбий одобнинг ахлоқий маданият билан уйғунлиги
- 4.2. касбий эркинлик ва касбий бурчнинг ахлоқий моҳияти.
- 4.3. Этикет замонавий ахлоқнинг назарий ва амалий асоси.
- 4.4. Эстетик англаш тушунчаси ва унинг индивидуал характеристери.
- 4.5. Модернизация жараёнларида эстетик фаолиятнинг кўринишлари.

Tayanch iboralar: kasb etikasi, axloqiy madaniyat, kasbiy burch, kasbiy erkinlik, etiket, estetik anglash, estetik anglash turlari.

4.1. Kasbiy odobnning axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi

Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarida foydalanishi, o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. U shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o‘z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Insonning xatti – harakati, xulq – atvori va yurish – turishi va ularni doimo nazorat qila bilish darajasi, kishilar o‘rtasidagi muomala munosabatidir. Axloqiy madaniyat shuningdek, insonning o‘z xatti – harakatlarini meyorini anglashdir.

Jamiyatda mutloq, abadiy va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy xodisadir. Uning bu hususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan kasb axloqida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mexnat taqsimotining paydo bo‘lishi mehnatning bir turi bilan band bo‘lgan kishilar guruhlarining kasb – hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxasisliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu esa har–bir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyaan turdagи harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o‘ziga xos ko‘nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat bir tomonidan hamkasabalar davrasida ro‘y bersa, ikkinchi jihatdan u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan

biri, uning jamiyat axloqiy hayotidagi o‘rni yuksak. Har bir jamiyatda muayyan guruuhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko‘pchilik jamiyat a’zolarining hayot-mamotlari, sog‘ligi, ma’naviy sog‘lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo‘lishi kabi omillar o‘shanday imtiyozli kasb egalarining o‘z kasbiy burch mas’uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko‘rishlariga bog‘liqligi hammaga ma’lum. Axloqiy baho omillariga ko‘ra, kasb odobini bir necha turga ajratish mumkin: muallimlik odobi, huquq-tartibot hodimlari odobi, muhandis odobi, shifokorlar odobi, singari birqancha kasbiy odob turlarini sanab o‘tish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta’sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba’zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi.

Har qanday inson ishni halollik bilan sifatli bajarganda, u kim va qaysi sohaning egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, odamlar hurmatiga sazovor bo‘ladi. Inson mehnat qilib, kamolotga erishib borishi mumkin deymiz. Uning barkamolligi esa o‘zining ichki imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq. Har tomonlama rivojlangan shaxs - barkamol inson hayotidagi jamiki insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlantiradi.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi.

Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro‘y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o‘rni yuksak.

Kasbiy etika - har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o‘rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi -axloqning jamiyat talabi, ehtiyoji va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni hayotga tatbiq etishning vosita va uslublarini o‘rganadi va o‘rgatadi.

Jamiyatda mutlaq, abadiy va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir.

Yillar o‘tishi bilan ishlab-chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashadi. Bu jarayonning uzlusiz davom etishi esa o‘z navbatida, har biri muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan-yangi faoliyat sohalari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ularning sohiblari esa shunga ko‘ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o‘z aksini topdi. Shunday qilib,

kasb axloqining paydo bo‘lish uzluksiz mehnat taqsimotining mahsuli, uning axloqiy dasturi, axloqiy bahosi sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi.

Ana shu axloqiy baho omillariga ko‘ra, kasb axloqini har bir kasb-xunarning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin:

o‘qituvchilik ixtisosiga qarab - pedagog axloqi;

tibbiyot ixtisosiga qarab - shifokor axloqi;

huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab - yurist axloqi;

xizmat ko‘rsatish ixtisosliga qarab - xizmat ko‘rsatish etikasi va hakazo.

Jamiyat rivojiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shuvchi barcha kasb egalarini shartli ravishda davlat hizmatidagi xodim deb yuritdik.

Davlat xizmatidagi xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati bir-biriga mutanosib bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan mansabdor shaxslarda siyosiy hislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy xoldir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi.

Davlat xizmatidagi xodimlarning ishi – og‘ir yumush. Uni sharaf bilan ado etmoq uchun, kishi o‘zi rahbarlik qiladigan sohani bilishigina emas, balki yana bir qator sifat va fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak. Ular ichida avvalo til va nutq imkoniyatlarini ishga sola bilishni ajratib ko‘rsatish darkor.

Nutqiy muloqotga kirishgan kishining maqsadlari doirasini umumlashgan holda quyidagilar bilan belgilish mumkin:

1) o‘zga(lar)ga, muayyan jamoaga o‘z g‘oya va fikrlarini yetkazish orqali hamfikrlar doirasini kengaytirish;

2) ma’naviy (ruhiy) hayotini uzaytirish orqali hayotda iz qoldirish;

3) hukmronlikka bo‘lgan intilishni amalga oshirish;

4) shartnomaga asosan o‘z hizmat doirasida muayyan (siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy) masalani hal etish;

5) e’tibor qozonish;

6) jamiyatda tutgan baland mavqeini saqlab qolish va sh.k.

Davlat xizmatidagi xodimlarning axloqiy sifatlarini quyidagi jihatlarini tavsiflash mumkin:

- xulqiy nuqtai nazardan xodimning axloqiy tutgan yo‘li, uning did-farosati va yashashdan maqsadi yo‘nalishi;

-adolat, vijdon va burch davlat xizmatchisi faoliyatidagi yuksak axloqiy fazilat sifatida:

- axloqiy meyorlarga bo‘ysinish;

- etiket qoidalariga rioya qilish.

Shuningdek, davlat xizmatidagi xodimlarga qo‘yiladigan axloqiy talablar huquqiy asosga ega bo‘lib, ular qonunlar, nizomlar va yo‘riqnomalar tarzida rasmiylashtiriladi: ularni buzgan hodimlar intizomiy jazoga, qonunga zid ish ko‘rganlar esa jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shuning uchun davlat xizmatidagi xodimlarning kasb axloqi, jasurlik, shijoat,adolat va sadoqatlilik kabi axloqiy meyorlarga tayangan xolda har bir ishga beg‘araz va xolis yondashishni taqozo etadi.

Davlat xizmatchisi kasb odobining normalari insonni qadr – qimmatini hurmat qilish va qonunni buzganlarga nisbatan qonunda belgilingan talablar asosida ish ko‘rishga asoslanadi. Ular hokimiyat va qonun vakili sifatida ish ko‘rar ekan, uning axloqi tarbiyaviylik hususiyatga ega bo‘lishi lozim. Ularning axloqi qanchalik yuqori bo‘lsa, xalqning davlatga, qonun kuchiga ishonchi ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Jamiyatda mutloq, abadiy va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu hususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan *kasb odobida* ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mexnat taqsimotining paydo bo‘lishi mehnatning bir turi bilan band bo‘lgan kishilar guruhlarining kasb – hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxasisliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu esa har–bir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyaan turdagи harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o‘ziga xos ko‘nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi.

Har bir jamiyatning ma’naviyati inson kamolotining u yoki bu bosqichiga xos bo‘lgan iymon va e’tiqodi, axloq-odobi, tajriba va malakasini o‘z ichiga oladi va insonlarning faoliyati, iste’dodi, qobiliyati, yurish-turishida namoyon bo‘ladi. Ma’naviyat insonning qon-qoniga yillar davomida tarbiya orqali singib boradi. Shu ma’noda insoniyat tarixi ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch – qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma’naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr – oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

Davlat xizmatidagi xodimlar ham halol-pok, vijdonli, iymonli, diyonatli, mehr-shafqatli bo‘lishi kerak. Davlat xizmatidagi xodim lavozimiga egri yo‘l, egri qo‘l, egri maqsad bilan erishib bo‘lmaydi. Fe’l-atvorida egrilik bor kishi davlat hizmatida uzoq faoliyat yuritolmaydi.

Davlat xizmatidagi xodim ish faoliyatida tajriba, ko‘nikma, mahorat, bilim, aql va anglashning ham roli katta.

Davlat xizmatidagi xodim faoliyatining samaradorligi uning tafakkuri, aql-anglashiga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi. Tafakkur unga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu - hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar Davlat xizmatidagi xodimda ana shunday fazilatlar shakllangan bo‘lsa, unday xodim ishning sir-asrorlarini qiyalmasdan egallab oladi, o‘z jamoasi o‘rtasida obro‘ va ishonch qozonadi. Demak, har qanday mansabdor shaxs keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, bilimli va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo‘lishi ham kerak.

Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyati - individ tomonidan axloqiy ong orkali jamiyat madaniyatini anglash etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta’siri ostida qay darajada chuqur va uyg‘un ekanligi ko‘rsatkichidir. Turli omillar ta’siri ostida: davlat xizmatidagi xodim axloqiy madaniyati hayotiy tajriba va tarbiya; bilim va san’at shaxs jamiyatning axloqiy madaniyati yutuqlarini turli darajada o‘z ongi va xatti-harakatlarida jamlaydigan murakkab dastur bo‘lib, o‘z ichiga insoniyatning shunday tajribasini oladiki, unga ko‘ra inson an’anaviy vaziyatlarda axloqan ish yuritadi, hamda ongning ijodiy elementlarini – axloqiy aql, intuitsiyani ham o‘z ichiga oladi va ular yordamida muammoli vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qila oladi.

Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyatini shakllantirishdan maqsad - an’anaviy va ijodiy elementlarning optimal uyg‘unligiga erishish, shaxsning aniq bir tajribasini jamoatchilik axloqining barcha boyliklari bilan birlashtirishdir.

Muallimlik odobi, huquq-tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari bir qancha kasbiy odob turlari borki, ular jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta’sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba’zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobidagi ba’zi nuqtalarga to‘xtalaylik. Rahbar quyi lavozimdagilarga mensimay, qo‘pol munosabatda bo‘lishi, o‘ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagI oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istiklariga to‘ralarcha qarashi odobsizlikka kirsma, uning shaxsiy boylik orttirishi yo‘lida korrupsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurban qilishi axloqsizlik, nafaqat rahbarlik kasbiga, balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. Ba’zan kasbiy odobning kasbiy axloq deb atalishi ham ana shundan.

Insonning hayot tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, xatti-harakati bilan o‘zining ma’naviy olamini boyitib boradi. Inson aqlan va axloqan boyigan sari o‘z oldiga ulug‘vor vazifalarni qo‘yadi va unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa ma’naviy poydevorni talab qiladi. Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o‘zidan boshlashi kerak. Eng asosiy narsa axloqiy qadriyatlarni bilish

emas, balki ularga amal qilishdir. Shaxsning faoliyatiga nisbatan axloqiy bahoni jamoatchilik beradi. Zero, axloqlilik – shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan ma’naviy mezonlariga mos kelishidir. Barcha axloqiy xatti – harakatlarning ma’naviy asosi bo‘lgan iymon va vijdon tushunchalari inson hayotining ichki ruhiy qonunidir. Axloq muammolari tahlilida inson ko‘proq shu ichki qonunga tayanib ish ko‘radi.

Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyati - elementlarining yaxlit tizimi bo‘lib, axloqiy fikrlash madaniyati, axloqiy mulohaza yuritish qobiliyati, axloqiy bilimlardan foydalana olish, yaxshilik va yomonlikni ajratish, yuzaga kelgan vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlariga axloqiy meyorlarni qo‘llay bilish va xaqozalarni qamrab oladi. O‘z ichiga yana tuyg‘ular madaniyatini, axloqiy tajribada xis-tuyg‘u va o‘ylarning amalga oshirilish qiyofasini, ularning kundalik hayotda xatti-harakat meyoriga aylanib borish darajasini xarakterlovchi xulq-atvor madaniyati; shakllarni reglamentlovchi qoidalarga qay darajada amal qilish sifatidagi etiketni, muloqotda shaxsning o‘zini tuta bilishini oladi. Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyati - umumiy axloqiy tamoyillarni bilish, ularni chuqur his etilgan qarashlariga aylantirish, xatti-harakatlarning eng munosib shaklini qo‘llay bilishdir. Uning har bir elementini o‘zlashtirish Davlat xizmatidagi xodimning axloqiy madaniyati mustahkamligini shakllantirishga yordam beradi.

Axlok va axlokiy normalar kishilar faoliyatining muayyan sohasigagina taalluqli bo‘lmay, balki xalq hayotining hamma jahbalariga kirib boradi. Axlokiy xislatlar sohasi ko‘plab masalalarni, ya’ni fuqarolik jamiyatining axloqiy mezonlariga, bozor iqtisodiyoti sharoitining axloqiy karashlariga bo‘lgan munosabati va boshqalardan tortib to zamonaviy turmush qoidalari, shaxsiy xulq-atvorgacha bo‘lgan masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu esa ongni qayta qurishda axloqiy tarbiyaning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xizmat ko‘rsatish xodimlarning kasb odobi va estetik madaniyatining vazifalari. Xizmat ko‘rsatish xodimlarning kasb etikasi va estetik madaniyati_ umuminsoniy axloq qonunlari, prinsiplari va normalarini, estetik qadriyatlarini aholiga xizmat ko‘rsatish, muomala qilish hamda ularga axloqiy tarbiya berish, estetik madaniyatini shakllantirish usullari, yo‘llarini o‘rganadigan va o‘rgatadigan nazariy-falsafiy fandir.

Xizmat ko‘rsatish xodimlarning estetik didi deganda ularning guzallikni xunuklikdan, didlilikni-didsizlikdan, munosiblikni-nomunosiblikdan farq qilish qobiliyatları tushuniladi. Shunga ko‘ra kimda-kim guzallikdan zavqlansa, uning estetik didi yaxshi bo‘ladi va aksincha guzallikka beparvo bo‘lsa uning estetik didi yomon bo‘ladi.

Yaxshi munosabat qoidalariiga bag‘ishlangan ko‘p jildli asarida amerikalik yozuvchi Alisa Soun «O‘zingning obro‘yingni saqla, o‘zingdan past madaniyatli kishilarga o‘xshama. Esingda bo‘lsin, sen undan libosing, qaddi-qomating, hatti – harakating va odobing bilan ustun bo‘lishga harakat qil» deb yozgan. Aynan o‘z obro‘sini saqlashni his etish tuyg‘usi aholiga va sayyoohlarga xizmat ko‘rsatadigan korxonalar xodimlarining o‘z burchlarini sifatli ado etishga, iste’molchilarni aldamaslikka, ular bilan etiket talablariga ko‘ra xushmuomalalik qilishga, o‘zini yomon yo‘llardan qaytarishga va tashqi qiyofasini yaxshilashga hamda jamiyatning boshqa talablariga itoat qilishga majbur qiladi. Axloq normalari axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy ong shakllarida mavjud bo‘ladi. Axloq prinsiplari-umumlashgan axloqiy tushunchalar bo‘lsa, axloqiy normalar axloqiy prinsiplarga riosa qilish uchun qanday axloqiy xislatlar zarurligini ko‘rsatadi.

Muallim o‘z bilimlarini yoshlarga uzatib, ularning timsolida hayotini uzaytirgandek bo‘ladi, olim o‘z shogirdlari timsolida o‘z ruhini kelajakka ko‘chirsa, maslakdosh hamkasblari orqali o‘z makonini ken-gaytirishga harakat qiladi. Xuddi shunday, siyosiy arbob yoki rahbar o‘z g‘oya va fikrlarini hayotga tadbiq etish, o‘z ishlarini davom ettiradigan maslakdoshlarni shakllantirish orqali hayotda iz qoldirib, kelajakka oshno bo‘lishga intiladi. Demak, hamfikr, maslakdoshlarni shakllantirish xar bir insonga o‘z ma’naviy, intellektual hayotining muddatini uzaytirish uchun kerak.

Inson ma’naviy madaniyatining asosiy mezoni – axloqiy yetuklik xisoblanadi. Axloqiy yetuklik esa o‘zida – halollik, insoflilik, vijdoniylik, sahovatpeshalik, shafqatlilik, mehribonlik singari axloqiy fazilatlarni mujasaam etadi. Shunday ekan, muomala madaniyatining asosiy mezonini yaxshi xulq va guzal fazilat uyg‘unligi tashkil etadi.

Shuni qayd etish lozimki, insonni hayvondan farq qiladigan eng muhim xususiyatlaridan biri, uning o‘zini yashashi, turmush uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekanligidir. Bu malaka insonning insonlararo muomala madaniyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Muomala shaxslararo munosabatning shunday ko‘rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruxiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta’sir o‘tkazadilar va ta’sirlanadilar. Shu boisdan muomala ijtimoiy kategoriya sifatida turmushning barcha sohalarida qo‘llanish mohiyatiga ko‘ra bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Dastlab «muomala» va «aloqa-kommunikatsiya» tushunchalarining o‘xshash tomonlarini aniqlab olish lozim. Aloqa-kommunikatsiya - yalpi aloqaning bir turi bo‘lib, yo‘naltirilgan aloqa deb yuritiladi. U mohiyatan ma’lum bir hodisa haqidagi

ma'lumotni boshqalarga uzatadi. Masalan, ommaviy vositalarida ko'rsatuv uchun yo'naltirilgan ma'lumotlarda muomala aloqa-kommunikatsiya vositasi vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, bunday xolatda muomala eng avvalo subyekt-obyekt munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Muomala jarayoni ikki taraflama xarakterga ega: u o'z mohiyatiga ko'ra axborot yoki ma'lumotlarni shunchaki uzatish va qabul qilishga qaraganda kengqamrovli bo'lib, ikki yoki undan ortiq insonlarning o'zaro ta'sirini murakkab tizimi hisoblanadi. Shunga ko'ra muomala akti bir insonning boshqa inson(lar) bilan muomalaga kirishib, unda o'zinikiga o'xhash xususiyatlarni topa olishi, ularga munosib javob qaytarishi, ular bilan o'zaro muloqotda optimal darajaga erishsagina o'zining muomala jarayonidagi munosib o'rniga ega bo'ladi. Bunday xolatda muomala eng avvalo, subyekt-subyektga munosabati tarzida ko'zga tashlanadi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, ko'pgina ilmiy-ommabop adabiyotlarda mualliflar «muomala» va «kommunikatsiya» tushunchalarini sinonim tarzida ishlataladilar. Aytish mumkinki, muomala jarayon sifatida tugal natijani obyektiv ehtiyojlar, aniq manfaatlar, maqsadlar, tuzilmalar, vositalar, muomala texnikasi nuqtai-nazaridan ko'rib chiqadi. U paydo bo'lgandan boshlab ilmiy tavsiflanadigan qator daraja va bosqichlardan o'tib kelgan.

Shuningdek, muomala hamkorlik faoliyatining muhim omili ekanini alohida ta'kidlash lozim. Muomalaning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalardagi hamkorligi ikkala tomonning manfaatiga asoslanadi. Shunday bo'lgan taqdirdagina, muloqot samarali yakunlanishi mumkin. Bu borada mamlakat Prezidentlarining davlatlararo har tomonlama shartnomani imzolash uchun olib boradigan muloqotlari yuqoridagi fikrlarga misol bo'ladi

4.2. Kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati.

Bugungi davr boshqaruvchi yoki rahbardan ijtimoiy voqelikda ro'y berayotgan hodisalar, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida bilim va keng dunyoqarashga ega bo'lish hamda hodisa va faoliyatni chuqur tahlil qilish, undan xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadi. Bunday talab avvalo, mas'uliyat yoki mas'uliyatlilik tamoyiliga asoslangan holda reallikka aylanadi. Zero, hozirgi kunning eng muhim vazifasi ham boshqaruvda yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim adabiyotlarda mas'uliyat axloqshunoslik va huquqshunoslik fanining kategoriyasi sifatida talqin etiladi. Chunonchi, mas'uliyat – shaxs tomonidan o'z ma'naviy burchini to'laqonli bajarishi va huquqiy meyorlarga

amal qilishi bilan bog‘liq alohida ijtimoiy-axloqiy hodisa. Bundan tashqari, mas’uliyat - boshqaruv qarorlari qabul qilishda davlat hamda jamiyat manfaatlarini ustuvor tarzda anglash darjasи shaxs xulq-atvori ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshirish shakli sifatida talqin etiladi.

Burch va mas’uliyat bir jihatdan, boshqaruv faoliyatida tartib-intizom ustuvorligini ta’minalashga xizmat qilsa, ikkinchi jihatdan, axloqan mukammal boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois Sharq axloqiy tafakkuri mas’uliyatlilikni boshqaruv madaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishi hamda samaradorlik asosi deb biladi.

Aytish zarurki, mas’uliyat axloqiy munosabatlarda va axloqiy faoliyatda javobgarlik hissini taqazo etadi. Javobgarlik ham mas’uliyatdan ayri holda voqe bo‘lmaydi. Bundan tashqari, mas’uliyat va javobgarlik odamlarning ongi va dunyoqarashini tubdan o‘zgarishiga, ularda mavjud ma’naviy va moddiy resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish tuyg‘usini kuchaytiradi. Bu davlat va jamiyatning maqsadlarini to‘laqonli amalga oshirish uchun salohiyat, imkoniyat va kuchlarni to‘liq safarbar etish imkonini beradi. Zero, Asosiy qomusimiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining muqaddimasida “O‘zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatini anglagan holda, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minalashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlab, o‘zining muxtor vakillari siymosida O‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitusiyasini qabul qiladi” - degan qoida bejiz bayon etilmagan.

O‘zbekistonning chorak asrlik mustaqil taraqqiyoti davrida erishgan yutuqlarining asosiy omili – mamlakat taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan avlod shakllangan bilan bevosita bog‘liq. Chunki, Sobiq ittifoq davrida shakllangan ayrim “qadriyat”lar kishilar ongida ijtimoiy tenglik tushunchasi haqida noto‘g‘ri tasavvurni paydo qildi. YA’ni, yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqadi, degan mafkura odamlardagi tashabbusni bo‘g‘ib qo‘ydi. Hamma narsa - davlat mulki, degan aqida odamlarning miyasiga singdirilib, kishilar mulkdorlik, egalik tuyg‘usidan begona bo‘lib qoldi. Bunday holat rahbar, hodim, ishchining mehnatga intilishiga, shaxsiy rag‘batiga, ish natijasi uchun mas’uliyatini oshirishga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu holat ayniqsa, mustaqillika erishgandan so‘ng bozor munosabatlariga o‘tish bilan bog‘liq mas’uliyatli davr sharoitida rahbardan fuqarolarning kayfiyatini hisobga olishni, o‘tgan davrning ijobiy tajribalaridan samarali foydalanishni, zaiflik qilmaslikni (chunki bitta rahbarning ziifligi ko‘plab hodimlarning zararlanishiga olib keladi)

asosiy mezonga aylantirdi. Natijada davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi Prezidentlik boshqaruv usuli, viloyatlar, rayonlar va shaharlarda hokimlik lavozimi ta'sis etildi. Bundan tashqari, sud hokimiyatining isloh qilinishi davlatda qonun ustuvorligini ta'minlanishiga hamda barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlanishini asos soldi. Fuqarolik jamiyatining turmush tarzi tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi mana shu omillarning barchasi mas'uliyat, javobgarlik, intizom, ichki uyushqoqlikning negizi bo'lib xizmat qildi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillarda davlatimizning rahbari Islom Karimov «Trud» gazetasi muhbirlarining (1996 yil 26 mayda muhbirlar Aleksandr Potapov va Valeriy Biryukov ishitirokida amalga oshirilgan ushbu suhbat matbuotda «Har qanday muxolif bilan bahslashishga tayyorman» sarlavhasi bilan chop etilgan edi) «Prezidentning bo'sh vaqt, o'zingizni oddiy inson, baxtli inson sifatida his etadigan fursatingiz bormi?» - degan savoliga « - Bilasizmi, o'zimni bemalol tutishga, ustimdagi yukni - har kuni zimmamda bo'ladigan ulkan mas'uliyatni olib tashlashga hamisha katta ehtiyoj bor. Menden boshqa hech kim hal qilmaydigan muammolar orom bermaydi. O'z imkoniyatlarimni men sira bo'rttirayotganim yo'q, lekin men mavqeimga ko'ra, hamma ish uchun javob beradigan odamman. Binobarin, hammadan oldin eng muhim masalalarni hal etish uchun javobgarlikni o'z zimmamga olishim mumkin.» - degan oqil javobni bergen edi. Ushbu javobdan xalq farovonligi uchun tinim bilmay ishslashdek sharaflı mas'uliyatni anglash va xis etish, javobgarlikni zimmasiga olib bildirilgan ishonchni oqlash jamoada natijadorlikni ta'minlashga xizmat qilishini anglash qiyin emas.

Bugungi kunda har bir rahbar kadrning mas'uliyat bilan ishlashi hamda sof vijdonliligiga ko'p narsa bog'liq bo'lib, ishni tashkil qila bilish qobiliyati rahbar faoliyatini baholovchi bosh mezonga aylanib bormoqda. Avvallari rahbarlarning obro'si uning lavozimi, xizmat sohasining hashamadorligi, rahbarni nufuzli kishilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va qabulida odamlarning turnaqator bo'lib kutishi bilan bog'liq talab bilan belgilangan. Bunday boshqaruv usuli nafqat rahbar faoliyatiga balki davlat va jamiyat rivojiga jiddiy to'siq bo'ldi.

O'zbekistonda 2017 yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" davlat dasturini amalga oshirishda "Xalq davlat idoralariiga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan talab ustuvor ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa, mamlakatimiz hayotidagi dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyeyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilab berildi. Jumladan, “I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”da ko‘zda tutilgan muhim masalalar qatorida davlat xizmatchilar mehnatiga haq to‘lash va ularning munosib ijtimoiy ta’milot tizimini yaratish, ayni vaqtda mansabdor shaxslar javobgarligini oshirish, avvalo, boshqaruv sohasida birinchi navbatda ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etish, bundan tashqari, ijro hokimiyati organlari zimmasidagi vazifalarni amalga oshirish tartibini, ularning mas’uliyat doirasini aniq belgilash masalalari ko‘rsatib o‘tildi.

Shuni ta’kidlash zarurki, barcha zamonalarda ham siyosiy, ham iqtisodiy va ham ma’naviy sohalarda olib borayotgan siyosatning taqdiri boshqaruvchi yoki rahbarning mas’uliyatiga, o‘z ishini bilib bajarishiga qarab belgilangan. Mavjud ijtimoiy muammolarning yechimi esa xalq ishonch bildirgan kishilarni o‘z vazifasini puxta va halol bajarishiga, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashishiga bog‘liq bo‘lgan. Shu bois rahbarlik mas’uliyatining mezoni deganda rahbarning el-yurt taqdiri uchun javobgarligini tushunish maqsadga muvofiq.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, zimmasiga yuklatilgan mas’uliyatni to‘laqonli bajarishiga qarab, boshqaruvchining burchga sadoqati ham baxolanadi. Bu boshqaruvchidagi fidoyilik, vatanparvarlik, insoflilik kabi sifatlardir. Biroq, mazkur sifatlarning yetishmasligi natijasida mas’uliyatsizlik shakllanadi va buning oqibatida boshqaruvga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi qator illatlar yuzaga keladi. Shu ma’noda mas’uliyatsizlik ijtimoiy-ma’naviy illat bo‘lib, uning natijasida boshqaruv etikasiga zid keluvchi quyidagi illatlar kelib chiqadi:

- byurokratiya;
- sansalorlik;
- safsatabozlik;
- rasmiyatchilik;
- ko‘zbo‘yamachilik;
- o‘zibo‘larchilik;
- loqaydlik;
- insofsizlik;

Rahbarlarining mas’uliyatsizligi oqibatida ma’lumotlarni sohtalashtirish, xo‘jasizlik, davlat mulkini talon-taroj qilish, qo‘sib yozishdek xunuk ishlarga yo‘l qo‘ygan agrosanoat uyushmasining faoliyati o‘rganilganda asosiy muammo rahbar va mutaxassis xodimlarning qo‘nimsizligi, rahbarni bir yilga ham yetmay almashtirilishi va uning o‘z vazifasiga mas’uliyatsizligi, bilim darajasining ixtisosи bo‘yicha pastligi va noto‘g‘ri tanlangani bo‘lib chiqqan. Natijada oddiy dehqonning

mashaqqatli mehnati natijasida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsuloti ayrim korxonalarning omborlarida tayyor mahsulot sifatida to‘lib-toshib yotibdi. Ikkinchи korxonada esa aylanma mablag‘larining harakatsizligi oqibatida shu mahsulotni ishlab chiqaruvchilarga ish haqi berish imkonи yo‘q. Odamlarga ishlab topgan haqini vaqtida bermaslik esa - adolatsizlikdir. Bunday holni o‘zgartirish uchun, avvalambor, rahbarlarning mas’uliyatini va javobgarligini qat’iy kuchaytirish zarur hisoblanadi. Yoki bo‘lmasam, huquq organlari faoliyatining qonuniy negizini mustahkamlash ishiga mas’uliyatsizlik turli ko‘rinishdagi jinoyatchilikni ko‘payishi va kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shu bois har kim va har bir narsa qonunga bo‘ysunishi, jamiyatda qonun boshqaruvning asosiy va ko‘p qirrali vositasiga aylanishi uchun huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Bu, o‘z navbatida ularning kasb mahorati va axloqiy sifatlariga bo‘lgan talabni keskin oshirish zarurligini taqazo etadi. Bu bilan mazkur organlarga qo‘li egri, poraxo‘r, vijdonsiz kimsalar kirib qolishini oldini olish bo‘yicha kafolatlangan qonuniy tizimni shakllantirishga erishiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, mas’uliyat – rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo‘lib, uning ma’lum sohaga javobgarligini ifoda etadi. U alohida shaxs, hodim mas’uliyatidan farq qilib, ko‘لامi kengligi bilan ajralib turadi. Shu bois rahbar mas’uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas’uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas’uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg‘usidir.

Mamlakatimizda 2018 yil - “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturida davlat idoralarining mansabdor shaxslari, turli lavozimdagи hodimlarning har biri uchun muqaddas qoidaga aylanishi lozim bo‘lgan vazifa qo‘yildi: “Har bir davlat xizmatchisi har kuni o‘zining mehnati bilan ishlab turgan lavozimiga loyiqligini isbotlashi shart”. Bu barcha rahbarlarning o‘z vazifasiga bo‘lgan mas’uliyatini oshirishning eng zarur qoidasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi - o‘zimiz mas’ul bo‘lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas’uliyat bilan bajarishni ta’minalashdan iborat” – ekanligi uqtiradi. Shu boisdan, rahbar mas’uliyatini oshirish - jamiyat barqarorligini mustahkamlash omili bo‘lib, mas’uliyatli rahbar, eng avvalo, o‘ziga, o‘zgalarga nisbatan talabchan bo‘ladi. Boshqaruv tizimining har bir unsuri o‘rtasida qat’iy belgilangan o‘zaro aloqalar va ta’sirlar mavjud bo‘lib, “mas’uliyat”ning mazmuni mazkur o‘zaro aloqalar va ta’sirlar o‘rtasida muvozanat o‘rnatishdan

iborat bo‘lib, u pirovard natijada kuch va yo‘nalishlar jihatidan turli harakatlarni yaxlit tuzilma manfaatlariga bo‘ysundirgan holda muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shu ma’noda mas’uliyat – bu boshqaruv tizimining tashkil topish va amal qilish jarayonini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi omil, erkinlik va zarurat kategoriyalarining o‘zaro nisbati, shaxs erkinligi, xulq-atvori va faoliyatining muhim jihatidir.

4.3. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.

Etiket tushunchasining kelib chiqishi eramizdan avvalgi 2,5 - 3 ming yillikda Qadimgi Misrda paydo bo‘lgan. Etiket (étiquette) atamasi esa XVII asrning oxirida vujudga kelgan. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalari ta’b, rasm-rusm hamda odatlar shaklida azaldan ibtidoiy davrdayoq, qabilalarda mavjud bo‘lganligini asoslaydi. Bunday qoidalarni to‘liq bajarmaslik o‘zi yashayotgan jamoat yoki qabilaga xiyonat qilish bilan barobar bo‘lgan. Avvalida bunday qoidalalar nafaqat axloqiy, balki huquqiy, iqtisodiy, diniy hamda qon-qarindoshlik munosabatlarni ham qamrab olgan edi. Jamoatning har bir a’zosi unga so‘zsiz bo‘ysunar edi. Shu tariqa etiket bu davrda mustaqil qoidalari ega bo‘lmagan, asosan jamoatning ijtimoiy muammollariga bog‘liq holda tatbiq etilgan. YA’ni bu qoidalalar tabiiy jamoatning talabi bilan vujudga kelgan. Bunday talablarning bajarilishi qabila yoki jamoatning kattalari tomonidan nazorat qilinar edi.

Keyinchalik esa bu qoidalalar mustaqil ravishda ajralib chiqib, faqatgina axloqiy meyorlar darajasida ko‘rla boshlandi. Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson hatti harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarida – giltaxtalarda o‘z aksini topgan. Kadimgi Misrda esa bu tartib qoidalari qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo‘lgan. Bunday qoidalari, ayniqsa Somirda ilohiylik bilan yo‘g‘rilgan. Ularni bajarmaslik Xudoning qahri bilan qaytarilishi ta’kidlangan. Qadimgi skandinaviya adabiy yodgorligi “Edda” eposida nafaqat dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari, balki hatto mezbon sharafiga tilak aytish meyorlarini o‘zida mujassam etganini asoslaydi.

Bu kabi xatti-harakatlar meyorlari jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishini belgilab berar edi – yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalarni farqlardi. Bu esa keyinchalik turmush etiketi, balki siyosiy etiketni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. U butun bir jamiyat bilan birga o‘zaro davlatlarning tashqi munosabatlarini ham belgilar edi.

Siyosiy etiketning vujudga kelishiga 1278 yilda Kadimgi Misr fir’avni hamda Xett qiroli Xattush III bilan kumushga bitilgan yozma kelishuv asos bo‘la oladi. Garchi Misr bunda mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsada, qirol uchun Misr kabi davlat bilan hamkorlik qo‘l kelar edi. Shu tarzda kelishuvning imzolanishi diplomatik

etiketning (siyosiy etiket) boshqa etiket turlaridan ancha avvalroq paydo bo‘ldi, desak, adashmagan bo‘lamiz. ZOTAN, davlatlararo munosabatlardagi qabullar qadimgi Misr uchun katta ahamiyat kasb etgan. Zero bunday qablullar juda katta dabdaba va va haddan ziyod qoidalar va rusmlar bilan amalga oshirilar edi. Keyinchalik bunday qabullar boshqa davlatlarda ham amalga oshirila boshlandi.

Qadimgi Yunonistonda esa elchilar maxsus “Germes nishonlari” deb nomlangan vakillik nishonlarini o‘zлari bilan olib yurganlar. Elchilar xalqaro etiketning bilimdonlari sifatida, ushu yurtda qabul qilingan siyosiy qonun-qoidalarni qay darajada bilishlari kelishuv bitimining taqdirini hal qilgan. Qadimgi Rimda esa siyosiy etiket yanada ustunlikka ega bo‘lgan. Misol uchun, elchilar qabulining avvali ziyoftlar bilan boshlanib, tashrifni tugallanishida esa ikki tomonlama sovg‘a hadya qilish bilan yakunlangan.

Shu tarzda oqsuyaklarni oddiy fuqaro va ulardan pastroq darajada bo‘lgan insonlarni farqlay bilish uchun alohida odamlarni o‘zini a’lo jamoatda tutishning tartib qoidalari paydo bo‘ldi. 1207 yilda ispaniyalik Petrous Alfonsi muallifligida ilk bor “O‘zini tutish qoidalari” deb nomlangan kitob paydo bo‘ldi. Albatta, bu izlanishlar qadimgi Turon hamda Eronzaminda bunday yodgorliklar bo‘lamagan, degan fikrni bildirmaydi. ZOTAN bunda pandnomalarning o‘rni beqiyos. Ammo shuni aniqlash zarurki, milliy o‘zligimizni anglash bilan bog‘liq bu ilmiy atamalar juda ko‘p chalkashtirilib tushunilishi yoki targ‘ib qilinishi natijasida ko‘pgina noaniqliklarni vujudga keltiradi. Aytaylik, axloq bilan xulq va odobni, odob bilan etiketni bir ma’noda tushunish xollari uchraydi. Aslida bu tushunchalar bir-biridan ham nazariy, ham amaliy, ham qo‘llanish jihatidan farqlanadi.

Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson hatti harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarida – giltaxtalarda o‘z aksini topgan. Kadimgi Misrda esa bu tartib qoidalari qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo‘lgan. Bunday qoidalari, ayniqsa Somirda ilohiylik bilan yo‘g‘rilgan. Ularni bajarmaslik Xudoning qahri bilan qaytarilishi ta’kidlangan. Qadimgi skandinaviya adabiy yodgorligi “Edda” eposida nafaqat dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari, balki hatto mezbon sharafiga tilak aytish meyorlarini o‘zida mujassam etganini asoslaydi.

Bu kabi xatti-harakatlar meyorlari jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishini belgilab berar edi – yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalarni farqlardi. Bu esa keyinchalik turmush etiketi, balki siyosiy etiketni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. U butun bir jamiyat bilan birga o‘zaro davlatlarning tashqi munosabatlarini ham belgilar edi.

Biznes iqtisodiy axloqiy asosga tayanadi. Kommersiyadagi tadbir biznesida etiket nihoyatda muhim ahamiyatga ega, modomiki, u kompaniyalar o‘rtasidagi

hamkorlikning davomiyligini va tuzilgan bitimning omadlilagini belgilab beradi. Hamkorlikning umumqabul qilingan qoidalarni buzish mumkin emas. Ishdagi qaltislik qonunni hatlab o'tishdagi qaltislik bilan hech qanday aloqasi yo'q. Muvaffaqiyatli tadbirkorlikning asosiy muruvvati – tajriba natijalaridir: olingan daromadlar, kasbiy qoniqish, jamiyatda, sheriklar oldida ijobiy nufuzga ega bo'lish, firma yoki tashkilotning mustahkamlash uchun pul jamg'armasini yaratish. Tadbirkorlardagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka ega emaslik, tezda pul topish ilinjida savodsiz intilishlar, pullarga noto'g'ri munosabat, firmaning raqobatbardoshligini oshirish va mustahkamlash uchun firmaning daromadidan foydalanishning muhimligini anglamaslikda namoyon bo'lishi mumkin. Bular marketing ma'lumoti hajmining juda kamligi; firmalar to'g'risidagi ma'lumotlarning, sheriklarni topishdagi informatsion mexanizmlarning yo'qligi; muvaffaqiyatsiz reklama; iste'molchi va haridor talablari borasidagi ma'lumotlar to'plamiga ega bo'lmaslik; rivojlanmagan ish munosabatlarining texnologiyasi; ish bayonnomasi, savdo muomalasi odobiga rioya qilmaslik; sheriklarning milliy va hududiy ruhiyatining xususiyati borasida mo'rt nishonga ega bo'lish; atamalar va til masalasida qiyinchiliklar; chet tillarini bilmaslik; biznes, menedjment, marketing, kommersiya, bank ishlari doirasida aniq tushunchalar asosiga ega bo'lmaslik; hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar; mutaxassislar va tadbirkorlar qo'llaydigan ilmiy - texnik atamalarning eskirganligidir. Hayot fazosi bo'l mish bozor taraqqiyotini o'zlashtirar ekanlar, tadbirkorlar bir narsani bilishlari lozim: bozor tuzilmasiga kirishga intiq bo'lgan tadbirkorlardan faqat 10-15 foizigina muvaffaqiyatga erishadilar. Muvaqqiyatga faqat o'zining ijodiy jihatdan iste'dodini ifodalash hissi kuchli bo'lgan, doimo odamlarni, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini o'rghanadigan, odamlarning ishonchini qozonishga intiladigan, vijdonli va axloqli, tinimsiz ma'naviy hamda kasbiy komillikni o'zida namuna sifatida ko'rsatadigan, va oxir-oqibat, boshqaruv mahoratining yuqori ko'rsatkichi bo'l mish – odamlardagi intellektual faoliyatni ocha biladigan odamlargina erishadilar. Bu haqiqiy tadbirkorning xususiyatlaridir.

Oxirgi yillarda ko'pgina tashkilot va muassasalar to'g'ridan-to'g'ri tashqi bozorga chiqish huquqiga ega bo'ldilar, savdo, iqtisodiy va ishlab chiqarishda turli mamlakatlarning firma va tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilishga yangi imkoniyatlar ochildi, shu bilan birga ilmiy izlanishlar doirasida, tadqiqotlar va texnologiya almashinushi, professional kadrlarni tayyorlashda keng aloqalar yaratildi. Mamlakatlarning ba'zi miliy va ruhiy xususiyatlarini bilish tadbirkorlarga har bir yerda uning qonunlariga mos tarzda o'zini tutishiga yordam beradi va eng asosiysi – nazarda tutilgan tashkilotda muvaffaqiyat qozonadi.

80-yillarda biznes etiketi 3 ta asosiy yo'naliishga ajralgan:

- Filantropiya etiketi - yaxshi o'tadigan va biznesni xayrli xarakatlarni amalga oshirishga turtki beradigan yaxshi natijalarga erishishini ta'minlaydi.
- Adolatlilik etiketi- firma hamkorlari o'rtasida ishonchlilik va tenglikni ta'minlaydi.
- Shaxsiy avtanomiya etiketi- boshqa subyektlar - biznes bo'yicha hamkorlar, kliyent va konkurentlar huquqlarini hisobga oladigan asosiy ahloqiy qoidalarga yo'naltirilgan

Biznes – jiddiy hatti-harakatlar sferasi va u jiddiy va asoslangan bilimlarga shuningdek, biznes-etiketga tayanadi. Biznes-etiket hamkorlarning suxbat chog'ida yomon va noqulay vaziyatlardan asraydi.

“U yoki bu insonning uning iqtisod bilan bog'liq ishlarining 15 foizi uning professional bilimlariga, 85 foizi esa odamlar bilan muloqot qila olish qobiliyatiga bog'liq”, – deb hisoblaydi Deyl Kornegi.

Piter Koostenbaum “Biznes falsafasi” kitobida “Biznesning yuragi – etiket, xokimiyat va falsafa” deb yozgan edi. Va quyidagilar firmaning uzoq muddatli yutuqlarga erishishiga turtki bo'ladi deb hisoblaydi.

- Foyda
- Odamlar (moral)
- Tovar va xizmatlar
- Pristij

Ish kunimiz qachon boshlanmasin, uning boshlang'ich asosi uy sharoitidan: kayfiyatimiz, o'zimizni qanday his qilishimiz, ko'proq qanday hordiq chiqarib, oiladagi munosabatlarga va h.k. bog'liqdir. Chiroyli tabassum va ertalabki salom-alik er-xotininng yaxshi kayfiyatda bo'lishida kuchli ta'sirga ega. Ammo kayfiyat keyinroq ham buzilishi mumkin – yo'lida, shahar transportida. Avtobus, vaq tig'iz bo'lgan paytda tramvay va trolleybuslardagi tinqilinch – asabga tegishga, va o'z yo'lida kayfiyatni buzilishga sabab bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda kayfiyatni buzmaslik mumkinmi? Ha, mumkin. Har qanday cho'g' olishi mumkin bo'lgan janjalni mutoyiba, tabassum bilan o'chirish mumkin. Har qanday sharoitda o'z hatti - harakatni boshqarishga intilish lozim. Xushmuomalali, tavoze'li bo'lish, odamlarga tabassum qilish ham insonning o'zida, ham boshqalarda yaxshi kayfiyatni ushlab turishga sabab bo'ladi.

Muassasa xonasiga kirayotgan kishi eshikni taqillatmasligi kerak – bu faqat ish bilan band bo'lgan odamlarning asabiga tegib, diqqatini bo'ladi. Odatda rasmiy muassasaning eshigi taqillatilganda raddiya hech qachon bildirilmaydi. Rahbar xonasining eshigini agar kotiba bo'lmasa, taqillatish lozim. Agar rahbar eshikni taqillatmay kirishni shama qilsa, bu qoidaga bo'ysungan ma'qul.

Majlislar, yig‘ilishlar – agar uning ishtirokchilari behuda chiqishlar bilan boshqalarning vaqtini olmasa, foydalidir. Tor doiradagi majlisda, agar begonalar bo‘lmasa bir – biriga erkinroq munosabatda bo‘lish mumkin. Majlis paytida o‘g‘rincha konfet so‘rish yoki esnash mumkin emas. Erkaklar faqat rais ustki kostyumini yechgandagina, o‘zlarining kostyumlarini yechishlari mumkin. Yon verida o‘tirgan kishi bilan bir og‘iz gap bilan so‘zlashib olish mumkin, ammo suhbat olib borish yaramaydi.

Sizning kasbdoshingiz ko‘p chekadi. Unda u xonaning tez-tez shamollatilishiga norozilik bildirmasligi kerak. Yoki uning o‘zi buni nazoratga olishi lozim. Chekuvchilar yashash huqiqa ega, ammo chekmaydiganlar bu huqudan mahrum degani emas. Xodimlardan biri davo uchun ko‘p sarimsoq piyoz iste’mol qiladi. Ammo, boshqalar bunga chiday olmaydilar. Agar davolash uslublarini xush ko‘radigan bunday shaxs «dori» ning hidini ketkazadigan narsalardan foydalanmas ekan, unda bunday davolash uslubidan voz kechishiga to‘g‘ri keladi.

Xodimlar ichida ozodalikning «kasallari» bo‘ladi. Ular hamisha bir nimani tozalash, artish bilan shug‘ullanadilar. Ozodalikning ortiqcha mazamati uning aksi bo‘lmish yuvinishga ko‘p vaqt ajratmaydiganlar kabi yoqimsiz his uyg‘otishi mumkin. Agar bu ayol yosh bo‘lsa, suv mo‘jizalar yaratish qudratiga ega ekanligiga ishora qilish mumkin. Yoshi kattaroq odamga bunday deyish noqulay.

Diplomatik etiket – bu diplomatlar va boshqa rasmiy shaxslarning bir-biri bilan diplomatik tadbirlarda bo‘ladigan muloqotlari chog‘ida amal qiladigan yaxshi xulkdarining qoidalari.

Diplomatik etiket shakllanish jarayonida umumiyligi qoidalariga tayanadi, shu bilan birga diplomatik normalar va qoidalari biznes etiketi amaliyotida va umumiyligi qoidalarida o‘z aksini topadi. Ushbu qoidalarni buzilishiga yo‘l qo‘yish mumkin emas, oddiy takallufning munosabatlarda qo‘llanmasligi diplomatik etiketda hurmatsizlikka tenglashtiriladi va xalqaro va millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarishga qodir.

Etiket qoidalari ayniqsa, diplomatlar tomonidan rioya qilinishiga katta e’tibor qaratiladi, chunki bu qoidalarning buzilishi yoki bajarilmasligi mamlakat yeki uning rasmiy vakillari nufuziga putur yetkazishi va buning natijasida mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Diplomatik etiket turli-tumandir. U o‘z ichiga uchrashuvlar, o‘zaro salom almashish, tabrik yo‘llash, qabul marosimlarini o‘tkazish, tashriflarni amalga oshirish, suhbat va muzokaralar olib borish etiketi va diplomatik seremonialni qamrab oladi.

Diplomiya — bu o‘zaro kelishuvlar, bitim va konvensiyalar tuzish san’atidir. Ushbu natijalarga uchrashuvlarning muvaffaqiyatli yakunida erishiladi.

Diplomatik uchrashuvlar o‘zining belgilangan reglamenti, etiketi va ko‘pincha o‘z protokoli bilan ajralib turadi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, diplomatik uchrashuvlarning qatnashchilari diplomatiya kabi nozik faoliyatning asosini tashkil etuvchi subordinatsiya qoidalari va professional cheklanishlarga qat’iy rioya qiladilar.

Uchrashuvlar o‘zaro salom almashish bilan boshlanadi. Salomlashish turlari har xil bo‘ladi. Horijiy mamlakatlarda uzoq safarda bo‘lgan kishi bu mamlakatning milliy udum va qonun-qoidalalarini o‘z mamlakati urf-odatlari bilan taqqoslaydi. Misol uchun, shuni ta’kidlash lozimki, musulmonlar uchun Shariat qonunlariga binoan ayol va erkak kishining qo‘llari, agar ular qarindosh bo‘lmasa, hatto bir-biriga tegib ketishi ham qat’iyan man etiladi.

Biror-bir kishi sharafiga qabul marosimini tashkil etayotgan paytda yoki uni mehmonga taklif etayotgan hollarda, mehmon qaysi dinga e’tiqod qilishini bilish zarurdir. Islom dini qoidalari ko‘ra spirtli ichimliklarni iste’mol qilish qat’iyan man etiladi. Hindulik dini qoidalari asosan esa taomlar vegetarian turida bo‘lib, zinhor mol go‘shtidan tayyorlanmagan bo‘lishi lozim.

Diplomatik salom almashish qoidalari umumqabul qilingan salom almashish qoidalardan deyarli farq qilmaydi.

Avval tanishtirilishi kerak bo‘lgan kishining ismi-sharifi aytildi, so‘ngra kimga tanishtirilayotgan bo‘lsa, uning ismi-sharifi. Kichik yoshli kishini katta yoshli kishiga, erkak kishini ayol kishiga, lavozim jihatidan past kishini lavozimi jihatidan baland kishiga tanishtiriladi.

Tanishtirilayotgan kishi, agar erkak kishi bo‘lsa, boshini biroz egib ta’zim qiladi, ayol kishi esa boshini biroz egib qo‘yish bilan kifoyalanadi.

Agar ayol kishi uni qiziqtirayotgan kishi bilan tanishish niyatida bo‘lsa, u ikkalasiga tanish bo‘lgan kishini tanishtirish haqida iltimos qilishi mumkin. Ikkalasiga tanish bo‘lgan kishi, ularning qiziqish doirasidan kelib chiqqan holda, suhbat qurishga yordam beradi.

O‘tirgan holda boshni egib ta’zim qilish deyarli noqulay bo‘lgani uchun erkak kishi tanishayotgan paytda o‘rnidan turishi lozim. Ayol kishi esa aksincha, o‘z o‘rnidan turmasligi lozim. Ayol kishiga yoshi undan katta ayol tanishtirilayotgan bo‘lsa yoki u tanishtirilayotgan kishi haqida o‘zining alohida fikrini izhor qilmoqchi bo‘lgan hollar istisnoni tashkil etadi. Ushbu hollarda u o‘rnidan turib salomlashish uchun qo‘l uzatishi mumkin.

Erkak kishi bilan tanishayotgan hollarda ayol kishi agar o‘zi uchun bu narsani o‘rinli deb topsa, salomlashish uchun qo‘l uzatadi, aks hollarda boshini biroz egib salomlashish bilan kifoyalanadi. Qolgan hollarda yoshi kattaroq bo‘lgan kishi salomlashish uchun qo‘lini birinchi uzatadi.

Xonaga kirib kelayotgan kishi birinchi bo‘lib yig‘ilganlar bilan salomlashadi. Birinchi bo‘lib ketayotgan kishi yig‘ilganlar bilan hayrlashadi.

Biror-bir kishini boshqalarga tanishtirayotgan paytda nafaqat uning to‘liq ismi-sharifini aytish bilan cheklanish kerak, balki bu shaxsga xos fazilatlar haqida qisqacha gapirib o‘tilsa, suhbat davom etishi uchun zamin ham yaratiladi va yangi tanishganlarning fikr almashishi biroz osonlashadi.

Agar diplomatik qabul marosimida yoshi va lavozimi teng bo‘lgan ikki kishini tanishtirish kerak bo‘lsa, yaqinroq turgan yoki nisbatan tanish bo‘lgan kishini birinchi tanishtirish lozim. Agar tanishtirilayotganlar ichida biri mashhur kishi bo‘lsa, unga ikkinchisini tanishtirish bilan chegaralanib qolish mumkin.

Amaliy yoki protokol uchrashuvlari (ehtirom yuzasidan tanishuv yoki hayrlashuv uchrashuvlari) davomida suhbat olib boriladi. Suhbat ko‘p vaziyatlardan kelib chiqib, reglamentga buysunmaydi. Ammo uchrashuvga tashrif buyuruvchilar ham, ularni qabul qiluvchilar ham o‘zлari uchun taalluqli bo‘lgan ba’zi bir qoidalarni e’tiborga olishlari darkor. Chunonchi, ehtirom yoki protokol tashrifi uncha uzoq emas, ya’ni 20, ko‘pi bilan 30 daqiqadan oshmasligi zarur.

Diplomatik seremonial (tantana marosimlari) xilma-xil, murakkab, nozik tomonlari mayjud bo‘lgan seremonial hisoblanadi.

Diplomatik irotokol talablarining rivojlanishi urf-odatlar, davlatchilik va umumqabul qilingan xulq-atvor qoidalalarini o‘zida aks ettiradi.

4.4. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.

Estetik anglash mazmunan kengqamrovli tushuncha bo‘lib, mavjud barcha sohalarga dahldor sanaladi. U narsalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tafakkur orqali talqin etishda hamda turli xil munosabatlarni o‘rganishda insonga ko‘mak beradi. Shuningdek, anglash jarayonining to‘g‘ri shakllanishi aqliy taraqqiyotning asosiy omili hamdir. Bir so‘z bilan aytganda, anglash narsa—hodisalarining yaxlit qiyofasini aks ettiradi, vogelikni inson sezgi a’zolarining ta’siri orqali belgilovchilik va boshqaruvchilik imkoniyatlarini namoyon qiladi.

Moddiy buyumlarni anglashdan farqli o‘laroq, badiiy anglash jarayonlari o‘ta talabchanligi bilan ajralib turadi. Negaki, yuqorida ta’kidlanganidek, badiiy anglash ijodiy jarayon bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘lib boradi. Mabodo ijod jarayoni to‘xtasa, badiiy anglash ham shu onda yakun topadi. Yohud sodda qilib aytganda, kitobxon badiiy asarni o‘qib tugallagandan so‘ng uning ushbu mavzuni anglash etishga bo‘lgan keyingi xolati ham tugallanadi.

Badiiy ijodni anglash moddiy narsalarni anglash etishdan farqlanadi. Holbuki, moddiy predmet aksariyat xollarda o‘zgarmas va ayni paytda kishida doimo bir xil

taassurot qoldiradi. Badiiy asarni anglash etish natijasida inson voqelikka teran ko‘z bilan nazar tashlashga, mavjud muammolarni nozik tuyg‘ular yordamida hal etishga harakat qiladi. Shuningdek, badiiy anglash favqulodda o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, u hech qachon bir joyda to‘xtab qolmaydi. Bunday xolatni badiiy asarni qayta o‘qish jarayonida kuzatish mumkin.

Estetik anglash ham badiiy anglash singari nazariy va amaliy ahamiyatga molik tushunchadir. Negaki, estetik anglashni tadqiq etmay turib, badiiy ijod nazariyasini to‘laqonli tarzda anglab yetish hamda san’atning ijtimoiy tabiatini ochib berish mumkin emas. Estetik anglash masalasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson estetik tarbiyasiga dahldorligi bois inson va jamiyat, inson va davlat, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar rivojida sezilarli ta’sirga ega. Chunki, estetik anglashning o‘ziga xos xususiyati avvalo, badiiy ijodning tabiatiga hamda san’atning ijtimoiylik mohiyatiga ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, estetik anglash qonuniyatlarini tadqiq qilish san’at va badiiy ijod mazmuni va mohiyatini to‘laqonli tarzda namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Bir so‘z bilan aytganda, estetik anglash mohiyatan insonning voqelikni badiiy obrazlar orqali o‘zlashtirishi bilan namoyon bo‘la boradi.

Estetik anglash jarayonlarida estetik masofa va shu singari boshqa omillarning ham sezilarli o‘rni mavjud. Ma’lumki, san’at turlarining barchasi ijodkor va tomoshabin nigohidan o‘tgandagina qadriyatga aylanadi.

San’at asarlarida rangni anglash etish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu esa insondan san’at asariga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishni, hattoki, rangning milliylik xususiyatlariga ham e’tibor berishni talab etadi. Zotan, rangni anglash qila bilish tomoshabin tasavvurining asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida san’at asarini to‘laligicha anglash etishning muhim tarkibi sanaladi. Bu boradagi fikrlarimizni bir oz kengroq tarzda bayon qilish maqsadida haykaltaroshlik san’atiga murojaat etishni lozim deb topdik.

4.5.Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko‘rinishlari.

Estetik faoliyat - inson tomonidan borliqni hissiy – emotsional o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyatning maqsadini, mazmunini, shaklini va ko‘rinishlarini ifodalaydigan tushuncha. Estetik faoliyat hissiy obrazli holatda borliqni umumlashtirish, oldindan ko‘ra bilish va muayyan maqsadga yo‘naltirishdir. Estetik faoliyat mehnat, maishiy, ijtimoiy va san’at sohalarida namoyon bo‘ladi. Estetik faoliyatning paydo bo‘lishi va takomillashib borishida inson mehnat faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Inson moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mehnat

jarayonining rivojlanishi va samaradorligini oshishi muayyan darajaga yetgandan so'ng inson faoliyatining o'ziga xos nisbiy mustaqil sohasiga aylanadi.

Estetik faoliyatda mehnat faoliyati singari mehnat obyekti, subyekti, vositalari va natijalari faol ishtirok etadi. Estetik faoliyatning tarixiy rivojlanish jarayonida uning asosiy turlari yuzaga keladi. Birinchi navbatda bu jamoaviy estetik faoliyatdir. Bu faoliyat xunarmandchilik, xalq me'morchiligi, urf-odatlar, o'yin va og'zaki ijod namunalarida, shuningdek san'atda namoyon bo'ladi. Individual estetik faoliyat esa har bir shaxsning ijodiy faoliyati, borliqni go'zallik qonunlari asosida qayta qurish, takomillashtirish va ideallashtirishga qaratilgan xatti-harakatlarida shakllanadi. Jamoaviy estetik faoliyatdan farqli ravishda individual estetik faoliyat tarixiy tar-yotning keyingi bosqichlarida, mehnat qurollarini tobora takomillashib borishi va uning samaradorligini oshishi, mehnat taqsimotini vujudga kelishi natijasida yuzaga keladi.

Estetik faoliyatning an'anaviy shakllari va san'atni tarixiy rivojlanishida ikki bosqichga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, ijtimoiy amaliyotning talablaridan kelib chiqqan estetik faoliyat dastavval ma'naviy, amaliy faoliyatning jamoaviy shakli sifatida yuzaga kelib o'ziga xos ifodaviy vositalar kashf qilgan bo'lsa, keyinchalik estetik faoliyatning ikkinchi bosqichida, asosan san'atda, badiiy ijodning turi sifatidagi belgilarini shakllantira boradi.

Estetik faoliyat asta-sekin ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos shakliga aylanib, tevarak-atrofni, tabiatni, ijtimoiyhayotning turli-tuman narsa va xodisalarini, maishiy turmushni, mehnatni estetik o'zlashtirish, o'zgartirish va qayta qurish quroliga aylana boradi. Bu faoliyat jarayonida inson tashqi olamni, tevarak-atrofni qayta qurishni o'rganar ekan, o'zini ham asta-sekin qayta qurishga o'ta boshlaydi. Natijada uning estetik didi paydo bo'ladi, takomillashadi, nafislashib boradi. Kishida estetik faoliyatpaydo bo'lishi bilan asta-sekin qadr-qiyomat, halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, oliyjanoblik kabi ijobiy fazilatlar, ikkinchi tomondan esa shafqatsizlik, sotqinlik, zaiflik, qo'rkoqlik kabi salbiy xislatlar ham yuzaga keladi, uning ma'n-y – estetik olami rang-baranglashadi.

Estetik faoliyat mehnat va ijtimoiyfaoliyat bilan tobora uyg'unlashib boradi va boshqa insoniy faoliyatlar-axloqiy, diniy, mulkiy mun-tlar qatoridan joy egallaydi. Estetik faoliyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonini tushuntiruvchi ikki g'ayri ilmiy qarashlar mavjud: 1. Diniy qarash. Estetik faoliyat ilohiy qudratga ega bo'lib ayrim kishilargagina nasb etadigan taqdir in'omidi. Barcha insonlar ham birdek borliqni estetik xis etish, uni o'zlashtirish va go'zallik qonunlari asosida qayta qurish va undan rohatlanish imkoniyatiga ega emaslar. 2. Biologik nazaziY. Estetik faoliyat barcha tirik organizmlarga xos bo'lgan xusiyatdir. Bu qarashni asoslanishida ing. olimi CH.Darvin muhim rol o'ynagan. U 1853 yilda nashr etirgan

“Turlarni paydo bo‘lishi” asarida muayyan tovushlar, ranglar, turli hayvonlar va qushlar uchun yoqimli ekanligiga e’tibor qaratadi. Ba’zi xayvon va qushlar ko‘payish davrida o‘z terilari ranglarini, patlari shakllarini o‘zgartiradi, turlicha ovozlar chiqaradi. Bu qarash tarafдорлари tirk organizmlarda yuzaga keladigan xusyatni mazmuniga e’tibor bermaydilar. Instinkтив, ongsiz yuzaga keladigan bu xattixarakatlar hayvon va qushlarni tabiiy tanlanish, borliqqa moslashish, tur sifatida yashash va ko‘payishiga xizmat qiladi. Ularni estetik faoliyatsifatida talqin qilish mumkin emas. Estetik faoliyat faqat insonlarga xos va insonlashgan xattiharakatlar yig‘indisidir. U aniq maqsadga yo‘naltirilgan, g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lgan mun-tlardan tashkil topadi. Estetik faoliyat tufayli insonlar o‘z ma’n-y dunyolarini kengaytiradilar, boyitadilar, barkamol shaxs sifatida shakllanib boradilar.

Nazorat savollari

1. Kasbiy etikasi tushunchasining tarixan tarkib topganligi xaqidagi fikringiz?
2. Kasbiy faoliyat va kasbiy odob; kasbiy odobning axloqiy madaniyat tuzilmasidagi o‘rni xaqidagi fikringiz.
3. Mas’uliyatni axloqan mukammal boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qilishi xaqidagi fikringiz?
4. Mas’uliyat rahbar faoliyatining asosiy vazifasi sifatida.
5. Mas’uliyatni oshiruvchi omillar (fidoiylik, vijdonlilik, va’daga vafodorlik, ishchanlik, mehnatsevarlik). Xaqidagi fikringiz?
6. Estetik faoliyat to‘g‘risidagi fikringizni izoxlab bering.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot:

**“Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.
Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va
yo‘llari (2-soat)**

Ishdan maqsad: Etika va estetika fanlarini o‘rganishda xorijiy usullardan foydalanish

Masalaning qo‘yilishi: Etika va estetika fanlarini sifat ko‘rsatkichlarini yuqori darajaga ko‘tarish.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlarning axloqiy va estetik mohiyati.
2. Ta’lim tizimida “Etika” va “Estetika” fanlarini o‘qitishning zolzarbligi (umumi o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimi misolida).
3. Etika va estetika fani mashg‘ulotlarining didaktik tamoyillari.
4. Etika va estetika fani mavzulariga qo‘llaniladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Etika va estetika fanini o‘qitishning interfaol usullari.
5. Zamonaviy darsning an’anaviy darsdan farqli jihatlari.
6. Etika va estetikaning nazariy mavzularni o‘qitish samaradorligini oshirish omillari.
7. Etika va estetika kategoriyalarining dialektik bog‘liqligi.
8. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari

**2-Amaliy mashg‘ulot: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolarini
axloqiy, ekologik axloq, etosfera. Inson shaxsidagi illatlarning paydo
bo‘lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta’siri. (4-soat)**

Ishdan maqsad: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolarini o‘rganish.

Masalaning qo‘yilishi: axloqiy va estetik muammolarini bugungi kundagi ahamiyatini xis qilgan xolda etosferani yaxshilash yo‘llarini va usullarini tavsiya qilish.

Nazorat savollari:

1. Ilmiy texnik taraqqiyot va estetik bilimlar integratsiyasi.
2. Axborotlashgan jamiyatda axloqiy muammolarning yuzaga kelishi.
3. Ijtimoiy tarmoqlarning axloqiy tafakkurga ta'siri.
4. Tibbiyot estetikasining turmush tarziga ta'siri.
5. Bioetika: ijobiy va salbiy jihatlar.
6. "Ommaviy madaniyat"ning shaxs kamolotiga salbiy ta'siri.
7. Etosfera va ekologik axloq.

3-Amaliy mashg'ulot: Axloq psixologiyasi. Ruhiy tahlil yo'nalishi va g'ayrizo'ravonlik. Gender muammolari. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi va ratsionalligi. (2-soat)

Ishdan maqsad: Axloq psixologiyasi. Ruhiy tahlil yo'nalishi va g'ayrizo'ravonlikni taxlil qilish va undan foydalanishni o'rganish

Masalaning qo'yilishi: Gender muammolari. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi va ratsionalligini o'rganib chiqish va tarbiyaviy vositalari va yo'llari o'rganish va usullarini tavsiya qilish.

Nazorat savollari:

1. Axloq psixologiyasi
2. Ruhiy tahlil yo'nalishi va g'ayrizo'ravonlik.
3. Gender muammolari
4. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi va ratsionalligi

4-amaliy mashg'ulot: Kasbiy odobnung axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi; kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko'rinishlari. (2-soat)

Ishdan maqsad: Davlat hizmatchilarining axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishda etikaning asosiy tushunchalari va meyorlari orqali shakllantirishga o'rgatish.

Masalaning qo'yilishi: Davlat hizmatchilarining etikasi va imijini shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo'llari o'rganish va usullarini tavsiya qilish.

Nazorat savollari:

1. Kasb etikasi.
2. Axloqiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
3. Davlat hizmatchilari qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozim?
4. Davlat hizmatchilarining madaniyati haqidagi fikringiz.

5. Muloqotda nutqiy muomala qanday ahamiyatga ega?
6. Muloqot jarayonida chiroyli muomalaning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Etikaning o‘ziga xos fan sifatidagi o‘rni.
2. Muhabbat etikaning mezoniy tushunchasi sifatidagi mohiyati.
3. Etika fanining maqsadi va vazifalari.
4. Ixtiyor erkinligi.
5. Etika va estetikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqalari.
6. Axloqiy tanlov masalasi.
7. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar.
8. Kamtarlik va takabburlik mezoniy tushunchalari.
9. Axloqiy taraqqiyot muammolari.
10. Vijdon etikaning eng muhim mezoniy tushunchasi sifatida.
11. Axloq tuzilmasi.
12. Burch tushunchasining axloqiy mohiyati.
13. Axloqning umuminsoniy, mintaqaviy va milliy xususiyatlari.
14. Or-nomus, qadr-qimmat, sharm-hayo axloqiy meyorlari.
15. Ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalarining ijtimoiylik xususiyatlari.
16. Shaxs xayotida axloqiy meyorlar o‘rni.
17. Burch tushunchasining axloqiy mohiyati.
18. Axloq va siyosat o‘rtasidagi munosabat.
19. Axloq bilan san’at o‘rtasidagi aloqadorlik.
20. Axloq va mafkuraning o‘zaro aloqadorligi.
21. Davlatning axloqiy asoslari.
22. Muomala odobi.
23. Ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchasi.
24. Xushmuomalalik xulqiy go‘zallik sifatida .
25. Diniy axloq va milliy axloqning o‘zaro munosabati.
26. Xayotning ma’nosi tushunchasining mazmuni.
27. Axloqiy ideal tushunchasi.
28. Kasbiy odobning shaxs va jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati.
29. Ustoz va shogird odobi.
30. Milliy axloqiy qadriyatlar.
31. Axloqning global muammolari.
32. Yoshlarning axloqiy madaniyati.

33. Axloqning ma’naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik xususiyati.
34. Komil inson tushunchasining diniy va dunyoviy talqinlari.
35. Axloq va nafosatning o‘zaro aloqadorligi.
36. O‘zbek ziyolisining axloqiy prinsiplari.
37. Oila – ma’naviy-axloqiy muhit sifatida.
38. Axloq va demokratiY.
39. Eng yangi davr axloqshunosligida g‘ayrizo‘ravonlik oqimi.
40. Milliy tarbiY.
41. Matbuotning axloqiy tarbiyadagi roli.
42. Salomlashish odobi.
43. Muhabbat etikaning mezoniy tushunchasi sifatida.
44. Or nomus va benomuslik.
45. Xulq, odob – axloq ularning farqi.
46. Mezbon va mehmon odobi.
47. Etiketning zamonaviy ko‘rinishlari.
- 48.** Bioetika masalalari.
49. Estetika fanining maqsadi.
50. Estetikaning falsafiy fan sifatidagi mohiyati.
51. Estetikaning amaliy ahamiyati
52. Estetika fanining vazifalari.
53. «Avesto»ning estetik mohiyati.
54. O‘rta asrlar Musulmon Sharqi estetikasining o‘ziga xos xususiyatlari
55. Islom dinining san’at bilan o‘zaro hamkorligi.
56. Turkiston marifatchi-jadidlari estetikasi.
57. Go‘zallik tushunchasining mohiyati..
58. Ulug‘vorlikning tabiatda namoyon bo‘lishi.
59. Fojealilik san’at asaridagi in’ikosi.
60. San’atning estetik mohiyati.
61. Badiiy asarning estetik mohiyati.
62. Axloqiy muammolarning san’atdagi in’ikosi.
63. San’at asarini estetik anglash etish.
64. Estetik tarbiya va axloqiy tarbiya bilan bog‘liqligi
65. Estetik tarbiyaning bugungi kundagi zaruriyat.
66. San’at-zamonaviy shaxsni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida.
67. Estetik tarbiyaning zamonaviy kqrinishlari.
68. Yuksak didlilik va va didsizlik.

69. Tabiatda go‘zallik va xunuklik dialektikasi.
70. San’atda go‘zallik va xunuklik dialektikasi.
71. Insoniy go‘zallik mezonlari.
72. Televideniyaning estetik tarbiyaga ta’siri.
73. Teatr san’atida estetik tamoyillar.
74. Kino san’atining estetik mohiyati.
75. Zamonaviy estradaning estetik xususiyatlari.
76. Xalh amaliy san’atining estetik mohiyati.
77. Rassomchilik san’atida obraz yaratishning estetik asoslari.
78. Zamonaviy fotografiya san’atida go‘zallik unsurlari.
79. Go‘zallik va manfaatdorlik munosabatlari.
80. Zamonaviy shaharsozlikning estetik xususiyatlari.
81. Musiqaning inson didini shakllantirishdagi ahamiyati.
82. San’atkor shaxsining estetik tarbiyadagi o‘rni.
83. Texnika estetikasida go‘zallikni namoyon bo‘lishi.
84. Estetika va bozor iqtisodiyoti.
85. Qo‘shiqchilik san’atining inson tarbiyasiga ta’siri.
86. Dizayn – texnika estetikasining mahsuli sifatida.

V. KEYSLAR BANKI

“KEYS-STADI” METODI

Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, study – ta’lim co‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir.

“KEYS-STADI” metodini amalga oshirish bosqichlari

- Keys bilan tanishuv (individual)
- Asosiy muammoni (o‘quv muammosini) ajratib olish va o‘rganish (individual va kichik guruhlarda)
- G‘oyalar yig‘ish va muammoning maqbul yechimini tanlash, modellashtirish (kichik guruhlarda)
- Keys yechimi uchun taklif etilgan g‘oyalarni taqdimoti, tahlil va baholash (o‘qituvchi va kichik guruhlar)
- Keys yechimi va tavsiyalar. (o‘qituvchi, kichik guruhlar va individual)

“Oila, fuqarolik jamiyatni va davlatning axloqiy asoslari. shaxs axloqiy tarbiyasi” mavzusiga «Keys stadi» metodining qo‘llanilishi.

Dars mavzusi: (amaliy mashg‘ulot) Oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta’siri, erkak va ayolning o‘rni. Oilaviy munosabatlarga noan’anaviy yondoshuvlar: bir jinsli nikohlar, nikohsiz oilalar va ularning oqibatlari.

Darsning ta’limiy maqsadi: Axloqning mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odat va an’analarning o‘rni, Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni. Davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida ma’lumotlar berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, etikaning mezoniylarini inson hayotida qo‘llay bilish ko‘nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirish, oilaning muqaddasligi ahamiyatini tushuntirishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, axloqning insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odat va an’analarning o‘rni, davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni, davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida ma’lumotlar berish.

Darsda foydalaniladigan metod: “Keys stadi”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

2. Talabalarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochiladi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda axloqning mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, oila tushunchasi: oilani shakllanishida urf odat va an’analarning o‘rni, Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni. Davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishining axloqiy ahamiyati haqida ma’lumotlar beradi.

3. “Keys stadi ” metodni o‘tkazish.

Bu metoddan maqsad: ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo‘lib, hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti shaxsga yo‘naltirilgandir. Bu tashkiliy institusional keys bo‘lib, ma’lumotlar, vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Auditoriyadagi talabalarning sonidan kelib chiqib, jurnaldagi tartib raqamlari yoki, o‘tirgan joydagni insonlarni qiziqishlari, yoki rangli qog‘ozlarini tarqatib bir xillilarni ajratib olish yo‘llari bilan gruhlarga ajratib olinadi. Xar bir guruhga “muammo” tarqatiladi.

1 – vaziyat:

Yosh oila qurayotgan kelin - kuyovga o‘z oilaviy shifoxonalariga tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yo‘llanma berildi. Kuyov tuy taraddudi bilan vaqtি yo‘qligini vaj qilib bo‘lim boshlig‘i bilan “gaplashib” ma’lumotnomani bir amallab oladi. Kelin esa barcha qoidaga ko‘ra ko‘rikdan o‘tadi. Bu yosh oila quruvchilar bir – birlariga sog‘lom ekanliklarini bildirishdi va ularni FXDYO bo‘limida qayd etildi. 4 – 5 oylardan so‘ng kelin oilaviy shifoxonaga qaynonasi bilan chiqib, xomiladorlik

bo‘yicha ro‘yxatga qo‘yiladi. Olingan birinchi taxlillar kelinda zaxm kasali mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan xabar topgan er va qaynona kelinni “yengil tabiat ayol bizning xonadonimizga mos kelmaydi” – deb sharmandalarcha uydan xaydar yuborishadi. Bu yosh oilani tiklab bo‘ladimi?

2 – vaziyat:

Oiladagi ayol raxbar. Oila yumushlarini bajarishga, bolalar o‘rtasidagi muammolarni hal qilishga, turmush o‘rtog‘ining ham ko‘ngliga yo‘l topa olishga ulgurmoqda. Oiladagi erkak ham raxbar. U faqat davlat ishlari bilan band. Ayol va siyosat sizning munosabatingiz.

3 – vaziyat:

Shunday vaziyatni tasavvur qiling: Siz bir oilaga kirdingiz. Shu oiladagi mavjud turmush tarzini nimalar orqali baholaysiz? “Sog‘lom turmush tarzi mustaxkam oilaning garovidir” degan fikrga qarashlariningiz.

4 – vaziyat:

Yangi ko‘chib kelgan qo‘shningizni qizi tashqi jixatdan o‘zining chiroyli odobi va axloqi bilan ajrab turadi, oilasi ham baobro‘, hurmatga sazovor insonlar. Mahallaga kelgan kuyov tomonning vakillari sizlardan shu oila haqida ma’lumot berishni so‘rab qoldi siz va boshqa qo‘shnilar ular haqida to‘liq tasavvurga ega emassizlar sizning bu oilaga beradigan bahogiz.

Shundan so‘ng guruxdagilarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Ular o‘zlarining oralaridan bitta taqdimotchini tanlab oladilar va barcha fikrlarni jamlashni o‘qituvchi so‘raydi. Bunda vatman qog‘oz va markerlardan foydalangan xolda alohida ishlanadi. Vaqt tugagach bittadan taqdimot uchun 5daqiqa beriladi shu vaqt ichida muammoni yechini topishga xarakatlar bo‘ladi.

Xulosa: “*Keys stadi*” ni o‘tkazish orqali talabalar o‘rtadagi munosabatlar iliqlashadi, faollashadi, oilaviy munosabatlarga amaliy yondashiladi. O‘qituvchi o‘z o‘rnida Davlatimizni oila institutiga bo‘lgan munosabatini ilmiy jixatdan asoslab berishga erishadi.

“CHARXPALAK” METODI

Metod talabalarda o‘rganilgan mavzularni yodga olish, ular yuzasidan mantiqiy fikrlash, savollarga mustaqil, to‘g‘ri javob berish, o‘z-o‘zini baholash malakalarini shakllantirish, o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqtda talaba larning bilimlarini baholash imkoniyatini yaratadi. Uning maqsadi talabalarda mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil, erkin bayon qilish, o‘z-o‘zini baholash, individual, juftlik, guruh va jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, mavjud fikrlar orasidan muhimini tanlab olish ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishdan iborat.

“CHARXPALAK” metodini qo‘llash tartibi:

- O‘qituvchi talabalarni metodni qo‘llash tartibi bilan tanishtirib, ularni guruhlarga ajratadi.
- Guruhlarga tarqatmali materallar va ular asosida topshiriqlar beriladi. Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10-15 daqiqa) belgilanadi. A’zolar guruh tarkibida individual ravishda tarqatmali materialda ko‘rsatilgan vazifani bajaradi.
- Bajarilgan ishning o‘ng burchagiga guruhning raqami, chap burchagiga esa o‘ziga tegishli bo‘lgan biror belgini qo‘yadi.
- Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatmali materiallar boshqa guruhlar bilan “Charxpak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi.
- Har bir guruh tomonidan yangi material mazmuni o‘rganiladi va o‘zgartiriladi.
- Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatmali materiallar yana bir bor boshqa guruhlar bilan “Charxpak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi. Guruhlar o‘rtasida materiallarning o‘zaro almashtirish ularning soniga ko‘ra takrorlanadi.
- Guruhlar ularning har bir a’zosi o‘z yechimlarini bitta qutiga yig‘adi. Materiallar so‘nggi bor almashtirilgandan keyin har bir guruh (har bir talaba) o‘zi bajargan yechimni guruh raqami va o‘ziga teshishli belgi asosida tanlab oladi.
- Har bir guruh va uning a’zolari o‘zlarining yechimlarini boshqa guruhlarning ishlari bilan taqqoslab, tahlil qiladi. O‘qituvchi jamoa yordamida to‘g‘ri javoblarni aniqlaydi. Tahlil asosida har bir guruh va talabalarning faoliyati baholanadi. Bir vaqtning o‘zida talabalar ham o‘z-o‘zini baholaydi.
- Metoddan barcha turdagи o‘quv mashg‘ulotlarida, mashg‘ulotning boshi yoki oxirida, muayyan bo‘lim (bob) yakunida, o‘tilgan mavzuni takrorlash chog‘ida foydalanish mumkin. Shu bilan birga metod talabalarning bilimlarini mustahkamlash, o‘rganilgan mavzularning talabalar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash va baholashda ham samarali sanaladi.

San’atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. San’at va uning turlari va ularning o‘zaro aloqadorligi mavzusiga “Charxpak” metodining qo‘llanilishi.

Dars mavzusi(seminar): San’atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. San’at va uning turlari va ularning o‘zaro aloqadorligi

Darsning ta’limiy maqsadi: San’at estetikaning obyekti sifatida o‘ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlар bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Shunga ko‘ra, uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San’at hayotni in’ikos ettirar ekan, insonning o‘zini o‘ziga ko‘rsatuvchi ulkan ko‘zgu vazifasini o‘taydi. U insonni o‘rgatadi, da’vat etadi, go‘zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san’atning ko‘makchisi, yetakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san’atning paydo bo‘lishidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san’at asarining ichki murvatlaridan tortib, san’atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘rganadi. Ikkinci tomondan, san’at uchun umumiylar qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tadbiq etadi. Uchinchi tomondan, esa san’at asarini anglash etayotgan kishi ruhidagi o‘zgarishlarni nafosat nuqtai nazaridan tadqiq qiladi.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san’at, adabiyot va ma’rifat ko‘tarishiga shubha yo‘q. San’at mohiyatan shaxsning xis tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o‘ziga jalb etib kelganganligini taxlil qilishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: San’at va uning turlari san’atning xususiyatlari va vazifalari, badiiy ijod jarayoni, ijodkor va anglash etuvchi hamda san’at turlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tafakkur orqali talqin etishda hamda turli xil munosabatlarni o‘rganishda insonga ko‘mak beruvchi vosita ekanligini anglash bilan belgilanishini tushuntirib berishdan iborat.

Darsda foydalaniladigan metod “ Charxpak ”

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

2. Talabalarni seminar mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochiladi. Seminar mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda san’at va uning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti hamda estetika falsafiy fan sifatida barcha san’atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiylar xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go‘zallik orqali haqiqatga yetishtirishga xizmat qilishi haqida ma’lumotlar beradi.

“CHARXPALAK” metodining mavzuga qo‘llanilishi

Talabalarni sonidan kelib chiqqan holda 4 yoki beshta guruhga ajratish va qo‘yidagi jadvalni berish. Kichik guruhlarda turli hildagi ruchkalar beriladi Bajarilgan ishning o‘ng burchagiga guruhning raqami, chap burchagiga esa o‘ziga tegishli bo‘lgan biror belgini qo‘yadi va berilgan rangli ruchkada vazifani bajaradi

shu asosida guruhlarni vazifalari bir-biridan ajralib turiladi. Jadvaldag'i tushunchalarning ma'nosidan kelib chiqib xususiyatlar, tamoyillar va vazifalarga taalluqligini ruchka bilan ajratib belgi qo'yib chiqadi. Talabalarga beriladigan jadval qo'yidagicha:

Nº	Tushunchalar	Xususiyatlar	Tamoyillar	Vazifalar
1.	Demokratik			
2.	Originallik -ijodiylik			
3.	Huzurbaxshlik			
4.	Haqqoniylik tamoyili			
5.	Tarbiyaviylik			
6.	Ma'jodziylik			
7.	Forig'lantirish			
8.	Tarixiylik			
9.	Bilimli, ma'rifatli qilish			
10.	Milliylik			
11.	Insoniylashtirish			
12.	Ijtimoiylik			
13.	Ijtimoiy aloqachilik			
14.	Xalqchillik			
15.	Umumbashariylik			

“CHARXPALAK” metodining bajarilishi

	Tushunchalar	Xususiyatlar	Tamoyillar	Vazifalar
1.	Demokratik	+		
2.	Originallik -ijodiylik		+	
3.	Huzurbaxshlik			+
4.	Haqqoniylik tamoyili		+	
5.	Tarbiyaviylik			+
6.	Ma'jodziylik	+		
7.	Forig'lantirish			+
8.	Tarixiylik	+		
9.	Bilimli, ma'rifatli			+

	qilish			
10.	Milliylik	+		
11.	Insoniylashtirish			+
12.	Ijtimoiylik	+		
13.	Ijtimoiy aloqachilik			+
14.	Xalqchillik		+	
15.	Umumbashariylik	+		

КЕЙС-СТАДИ: мазмуни, моҳияти, мақсади



КЕЙС-СТАДИ

(инглизча case – аниқ вазият, study – таълим) аниқ вазиятларни ўрганиш, таҳлил этиш ва ижтимоий аҳамиятга эга натижаларга эришишга асосланган таълим методи.

муаммоли таълим методидан фарқли равища реал вазиятларни ўрганиш асосида аниқ қарорлар қабул қилишга асосланади

ўқув жараённада маълум бир мақсадга эришиш йўли сифатида қўлланилса, метод характерига эга бўлади

(бирор бир жараённи тадқиқ этишда босқичма-босқич, маълум бир алгоритм асосида амалга оширилса, технологик жиҳатни ўзида акс эттиради

ИДРОК ХАРИТАСИ (КОНЦЕПТУАЛ ХАРИТА) МЕТОДИ

Методнинг адабиётлардаги номи

“Идрок харитаси”

“Концептуал харита”

“Картография концепцияси”

“Интеллект харита”

Бу метод фикрларни тақдим қилиши ва бир-бiri билан боғлаш усули ҳисобланади.

Методнинг мақсади:

- талабаларда тасаввур қилиш ва фикрларни тизимлаштириш;
- ўрганилаётган мавзудаги бош ғоялар ёки асосий тушунчаларни изоҳлаш;
- бирламчи тушунчаларни изоҳлашга ёрдам берувчи иккиламчи ва учламчи тушунчаларни ажратиш кўникма ва малакаларини шакллантиришга қаратилган.

Методнинг аҳамияти

янги билим ва ахборотларни конспектлаштирушнинг стандарт чизмасини ишлашга хизмат қилади; дарснинг узуундан-узоқ конспектини ёзиш юқидан халос этади.

Харитани тузиш талабага:

- Асосий иккиламчи, учламчи (ва ҳ.к.) шоҳчалар (чизиқларни) ишлатиш ҳисобидан иерархик тартибда мавзунинг асосий ғояларини структуралашга;
- равшан ва рангли образлар орқали ғояни кучайтиришга;
- тушунчалар орасидаги боғлиқликни намойиш этишга;
- ранг, шрифт хажми, бўрттириш ва ҳ.к.лар билан концепцияларни ажратишга;
- махсус белгилар ёрдамида ғояларни баҳолаш ва изоҳлашга имкон беради.

КИРИШ

Бу компонент ўз ичига қуйидагиларни олади:

- Кейснинг долзарблигини асослаб бериш;
- Унинг таълим мақсади;
- Кейс ечиш натижасида талабалар эришиши мумкин бўлган ўқув натижалари.

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1. Inson – axloqiy ta'limotning asosini tashkil etuvchi kategoriya sifatida
2. “Temur tuzuklari”da axloqqa doir masalalar
3. Sotqinlik – axloqiy illat sifatida
4. Jinoyat: mazmuni, mohiyati, illati
5. Gedonizm axloqining mohiyati
6. Vatan mustaqilligining axloqiy asoslari
7. Altruizm – axloqiy prinsip sifatida
8. Ma’naviy tubanlikka yetaklovchi illatlar
9. Halollik va uning inson kamolotidagi o‘rni
10. Vatanparvarlik tamoyilining axloqiy xususiyatlari
11. Axloqiy qadriyatlar va uning Vatan ravnaqiga ta’siri
12. Jamiyat barqarorligida tinchlik va tinchlikparvarlikning ahamiyati
13. Amoralizm – axloq meyorlarini inkor etuvchi hodisa
14. Genotsid – insoniyatga qaratilgan og‘ir jinoyat
15. Yevropa axloqiy madaniyatiga xos xususiyatlar
16. Yovuz inson: mohiyati, mazmuni
17. Zo‘ravonlik nazariyasi va uning inson erkiga salbiy ta’siri
18. Fundamentalizmning jamiyat axloqiy hayotiga salbiy ta’siri
19. Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muxsiniy” asarining ma’naviy ahamiyati
20. Arastuning “Axloqi Kabir” asarida fazilat masalasi
21. Mas’uliyatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati
22. Evdemonizmning etika ilmidagi o‘rni
23. Hasad – illat sifatida
24. Urushning buyuk yovuzlik sifatidagi mazmuni
25. Hudbinlikning axloqsizlik illati sifatidagi mazmuni
26. Fidoiylik tushunchasining axloqiy mohiyati
27. Vatanparvarlik tushunchasi va uning axloqiy mohiyati
28. Jamiyat ma’naviy hayoti va estetika.
29. Estetik anglash va uning gnoseologik ildizlari
30. Shaxs estetik ehtiyojini tarbiyalash muammolari.
31. Ijtimoiy taraqqiyotidagi go‘zallik.
32. Fojiaviy ziddiyat va fojiaviy qahramon;
33. Inson go‘zalligi va uning estetik mohiyati.
34. Jamiyatdagi ulug‘vorlik va uning namoyon bo‘lish xususiyatlari.
35. Fojiaviylikning san’atda namoyon bo‘lishi.

36. Kulgilik va kulgili xolatlar
37. Tabiat estetik faoliyat obyekti va estetik qadriyat sifatida
38. Xalq amaliy san'ati va dizayn.
39. Texnika estetikasining ahamiyati va uning zamonaviy nafosat falsafasida tutgan o'rni.
40. Shillerning «Inson estetik tarbiyasi haqidagi maktublari» asarida ijodning ikki xil yo'nalmasi.
41. Karl Yung estetikkasida estetik tiplar nazariyasi.
42. Estetikaning qadimiy fan sifatidagi asoslari.
43. Haqiqat, ezgulik va go'zallik – oliy estetik qadriyat sifatida.
44. Estetik anglashning asosiy unsurlari.
45. Estetik did tushunchasi.
46. Atrof-muhitni go'zallashtirish muammolari.
47. Dizaynning estetik mohiyati.
48. Ilmiy texnik taraqqiyotning estetik xususiyatlari.
49. Sportning ma'naviy-estetik jihatlari.
50. San'atning falsafiy-estetik mohiyati.
51. San'atda hayotiy haqiqat masalalari.
52. Estetik tarbiyaning an'anaviy va zamonaviy shakllari.
53. Estetik madaniyatning shaxs kamolotidagi ahamiyati.
54. "Omaaviy madaniyat" va uning yoshlar estetik tarbiyasiga salbiy ta'siri.
55. Ilmiy-texnik taraqqiyot estetikasi.
56. Estetik ravnaq va dizayn.

VII. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Axloq (ingliz tilida Morality)	Kishilarning xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy, shaxsiyhayoti hamda jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchinorma va qoidalar yig‘indisi.	is the differentiation of intentions, decisions, and actions between those that are distinguished as proper and those that are improper.
Bioetika (ingliz tilida Bioethics)	Inson hayotini eng oliv axloqiy qadriyat sifatida qaraydigina axloqiy soha	is the study of the typically controversial ethical issues emerging from new situations
Vatanparvarlik (ingliz tilida Ratriotism)	Insonni Vatanga sadoqati, g‘ururini aks ettirgan va faatlarini hurmat qilishniifodalovchi ma’naviy fazilat	This attachment can be viewed in terms of different features relating to one's own homeland, including ethnic,
Kasbiy odob (ingliz tilida Rrofessional ethics)	Jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi umumiy axloqning xos ko‘rinishi	encompass the personal, organizational, and corporate standards of behavior expected of professionals.
Muhabbat (ingliz tilida Love)	Insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo‘lishi va uni yolg‘izlikdan olib chiqadigan buyuk ma’naviy kuch	is a variety of different feelings, states, and attitudes that ranges from interpersonal affection to pleasure.
Nomus (ingliz tilida Nonor)	Shaxsning o‘z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr – qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo‘ladigan munosabati	is an abstract concept entailing a perceived quality of worthiness and respectability that affects both the social standing
Insonparvarlik (ingliz tilida Humanism)	insonni ulug‘lovchi, inson shaxsini qobiliyatlarining maksimal rivojlanishi va insonga loyiq hayot sharoitini yaratishga qaratilgan ta’limot	is a philosophical and ethical stance that emphasizes the value and agency of human beings, individually and collectively.
Etiket (ingliz tilida Yetiquette)	takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari.	Is a code of behavior that delineates expectations for social behavior according to

		contemporary conventional norms
Fidoiylik (ingliz tilida Self-sacrifice)	Boshqalar manfaati yo‘lida o‘z qonuniy manfaatlarini, ba’zan esa hatto hayotini qurbon qilishga tayyor turadigan shaxsning axloqiy fazilati.	the giving up of one's own benefit, especially giving up one's life, for the good of others
Yovuzlik (ingliz tilida Evil)	Mavjudlikni mavhumlikka, bonyodkorliknibuzg‘unchilikka, erkinliknierksizlikka aylantirishga qaratilgan salbiy hodisa	in a general context, is the absence or opposite of that which is described as being good. Often, evil is used to denote profound immorality
Imij (ingliz tilida Image)	Insonning o‘zini boshqalar oldida ma’lum ko‘rinish (obraz)da namoyish qilishi	s an artifact that depicts visual perception, for example a two-dimensional picture.
Uyg‘unlik (ingliz tilida Harmony)	Tarkibiy qismlari rivojlanishining o‘zaro muvofiq, mutanosib, uzviy bog‘liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha.	Showing accord in feeling or action. Having components pleasingly or appropriately combined.
Go‘zallik (ingliz tilida Beautiful)	Narsa hodisalarning nafisligi va nafosatini insonda yoqimli tuyg‘u, zavq, kuchli hayrat hissini hosil qiladigan tushuncha.	idea, object, person or place that provides a perceptual experience of pleasure or satisfaction.
Ulug‘vorlik (ingliz tilida The sublime)	tabiat, jamiyat, inson va uning faoliyati mahsulotlarida namoyon bo‘ladigan ma’naviy axloqiy tushuncha.	Is the quality of greatness, whether physical, moral, intellectual, metaphysical, aesthetic, spiritual, or artistic.
Estetika (ingliz tilida Aesthetics)	Insonning voqelikka nafosatli munosabati hamda tabiat, jamiyat va inson badiiy tafakkurining eng umumiyoq qoidalarini o‘rganuvchi fan.	is a branch of philosophy dealing with the nature of art, beauty, and taste, with the creation and appreciation of beauty.
Forig‘lanish (ingliz tilida Rurification)	mohiyatan qo‘rquvyoki achinish tufayli inson qalbini salbiy hissiyotlardan halos etuvchi estetik hodisa	is the purification and purgation of emotions especially pity and fear through art or any extreme change in emotion that results in renewal and restoration.

San'at (ingliz tilida Art)	Inson tomonidan voqelikni badiiy obrazlar orqali aks ettiruvchi ijtimoiy ong va inson faoliyatining o‘ziga xos shakli.	is a diverse range of human activities in creating visual, intended to be appreciated for their beauty or emotional power.
---	--	--

VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyun “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy

salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g“risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g“risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g“risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g“risida”gi 797-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

19. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
20. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
21. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
22. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
23. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
24. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
25. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
26. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
27. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.-155 b.
28. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.
29. Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2015 y.
30. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.- 318
31. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
32. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.

33. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
34. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -1606.
35. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
36. J.Rumi. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
37. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
38. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiY. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
39. Izzetova E., Pulatova D. FilosofiY. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-6
40. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
41. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
42. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018 y.
43. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.
44. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
45. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O'quv qo'llanma - T.: Universitet, 2017.
46. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
47. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
48. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019 y.
49. Xayitov SH., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
50. Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
51. Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir,

2013,720 6

52. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.

53. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.

IV. Internet saytlar

54. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

55. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

56. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

57. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyonET

58. <https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, statyam, jurnalam, naxodyashimsya v otkritom dostupe

59. <https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya ensiklopediya filosofii.

<https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi FALSAFA" yo'nalishidagi mutaxassislik fanlaridan tayyorlangan "ETIKA VA ESTETIKANING NAZARIY ASOSLARI" moduli bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish masofaviy kurslari uchun tayyorlangan materiallar talablarga javob berishi bo'yicha

EKSPERT XULOSASI

"FALSAFA" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan fanlaridan tayyorlangan "ETIKA VA ESTETIKANING NAZARIY ASOSLARI" moduli bo'yicha test savollari, o'quv-uslubiy majmua, bitiruv ishi mavzulari hamda masofaviy materiallar mazkur modul bo'yicha tasdiqlangan namunaviy dastur doirasida tayyorlangan va unga qo'yilgan talablarga javob beradi hamda BIMM internet portaliga qo'yishga tavsiya etiladi.

Tarmoq (mintaqaviy) markazi

direktori

O'.Tilavov

Bo'lim boshlig'i

O'.Muxamadiyev

"Estetika va etika" kafedrasi

mudiri

L.Muxammedjonova

Tuzuvchi:

L.Muxammedjonova

